NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

# O‘ZBEKISTON TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH EKOTIZIMI

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH STANDARTLARI

www.nqaae.uz

# MUNDARIJA


**KIRISH** ............................................................ 4

**1. TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA TIZIMDAGI O'RNI** ............................................................ 8

Agentlikning tashkil etilishi va uning institutsional ahamiyati ............................................ 8

Agentlikning vazifasi ............................................ 8

Agentlikning rivojlanish istiqbollari .................... 9

Agentlikning asosiy funksiyalari ........................ 10

Davlat ta'lim sifatini ta'minlash boshqaruv tuzilmasi ............................................................ 11

Agentlikning ta'lim tizimidagi strategik roli ...... 11

**2. DAVLAT AKKREDITATSIYASI** ................................ 12

Davlat akkreditatsiyasining mazmuni ................ 12

Davlat akkreditatsiyasining huquqiy asoslari .... 12

Akkreditatsiya turlari ........................................ 13

Kompleks davlat akkreditatsiyasi va uning standartlari ............................................................ 14

Maxsus davlat akkreditatsiyasi va uning standartlari ............................................................ 14

Davlat akkreditatsiyasining ahamiyati ............... 15

**3. MILLIY SIFATNI TA'MINLASH TIZIMI** ................. 16

**4. AKKREDITATSIYA JARAYONI** ................................ 17

Akkreditatsiya bosqichlari ................................. 18

Akkreditatsiya jarayonining sxemasi ............ 23

Ekspertlar guruhi .............................................. 24

Umumiy qoidalar .............................................. 24

Ekspertlar guruhi tarkibi .................................. 24

Ekspertlar guruhi faoliyatining asosiy tamoyillari ............................................................ 25

Ekspertlar guruhi asosiy funksiyalari ................. 25

Ekspertlar guruhi ish jarayoni ........................... 26

Ekspertlar guruhi a'zolarining majburiyatlari .......... 26

Ekspertlar guruhi faoliyati natijalari ........................ 27

Baholash mezonlari va indikatorlari .................... 27

Baholash yo'nalishlarining umumiy tuzilmasi .... 27

Indikatorlarni baholash metodologiyasi .......... 28

Dalillarga asoslangan baholash va natijalarni jamlash qoidalari ..................................................... 28

Yakuniy qaror qabul qilish va uning ta'siri ....... 29

**XULOSA** ............................................................ 30

1-Ilova. Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari ........................................ 33

2-Ilova. Kasbiy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari ........................................ 64

3-Ilova. O'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari ........................................ 92

4-Ilova. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari ........................................ 113

5-Ilova. Oliy ta'lim tashkilotlarinining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari ............................................................ 127

6-Ilova. Kasbiy ta'lim tashkilotlarinining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari ............................................................ 146

7-Ilova. O'rta maxsus ta'lim tashkilotlarinining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari ........................................ 168

8-Ilova. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari ............................................................ 188

# KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda ta’lim sifati va uni ta’minlash masalasi global ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot shakllanib borayotgan sharoitda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, innovatsion salohiyati hamda xalqaro raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan ta’lim tizimining samaradorligi bilan belgilanadi.

Shu munosabat bilan, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim natijalarining sifati va barqarorligini ta’minlash, shuningdek, ta’lim tashkilotlarining institutsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlariga aylangan.

Ta’lim sifati inson kapitalini rivojlantirish, mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

“Ta’limda sifatni ta’minlash” tushunchasi belgilangan standart va talablar asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, monitoring qilish, baholash hamda uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan institutsional, tashkiliy va metodik mexanizmlar tizimini anglatadi. Mazkur tushuncha o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, o‘qitish metodologiyalarini takomillashtirish, ta’lim natijalarini baholash, ta’lim tashkilotida samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish hamda ta’lim xizmatlari shaffofligini ta’minlash kabi ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, sifatni ta’minlash faqat nazorat mexanizmi sifatida emas, balki ta’lim tashkilotlarida sifat madaniyatini shakllantiruvchi, institutsional barqarorlikni ta’minlovchi hamda strategik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim boshqaruv vositasi sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda ta’limda sifatni ta’minlash sohasida aniq global tendensiyalar shakllangan. Xususan, ko‘plab mamlakatlarda ta’lim tizimlari kompetensiyaga asoslangan yondashuv, natijaga yo‘naltirilgan ta’lim modeli, ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida rivojlanmoqda.

Shuningdek, YUNESKO, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan sifatni ta’minlashga oid xalqaro standartlar va metodik yo‘riqnomalar milliy ta’lim tizimlarini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ayni paytda shaffoflik, hisobdorlik va manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini ta’minlash global ta’lim siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Global ta’lim makonida ta’lim sifatini ta’minlash jarayoni, amalga oshiriladigan kompleks va bir necha bosqichdan iborat ekotizim sifatida qaraladi. Mazkur ekotizim davlat boshqaruvi organlari, mustaqil sifatni ta’minlash agentliklari, ta’lim tashkilotlari, ish beruvchilar, talabalar hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslanadi. Ushbu tizim doirasida ta’lim standartlari, akkreditatsiya mexanizmlari, monitoring va baholash tizimlari, ta’lim natijalarini tahlil qilish hamda xalqaro reytinglar kabi asosiy instrumentlar integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. O‘zaro bog‘liq ushbu komponentlar ta’lim tizimlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ishonchni oshirish hamda ta’lim tashkilotlarining xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimlarida hisobdorlik tamoyili alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyati natijalari yuzasidan davlat, jamiyat hamda ish beruvchilar oldida ochiqlik va shaffoflik asosida hisobot berishga majburdir. Hisobdorlik strategik boshqaruv samaradorligi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ta’lim natijalari sifati hamda bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi kabi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv ta’lim tashkilotlarini o‘z faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilishga, dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga hamda sifatni uzluksiz oshirib borishga undaydi.

Ta’limda sifatni ta’minlash tizimlari ichki va tashqi baholash mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi. Ichki sifatni ta’minlash ta’lim tashkilotining o‘zini o‘zi baholash, ta’lim dasturlarini muntazam takomillashtirish hamda ta’lim jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, u monitoring, tahlil va doimiy takomillashtirish tamoyillariga asoslanadi. Tashqi sifatni ta’minlash esa vakolatli davlat organlari yoki mustaqil akkreditatsiya agentliklari tomonidan amalga oshiriladi va ta’lim tashkilotlarining belgilangan standartlarga muvofiqligini baholashni nazarda tutadi. Tashqi baholashning asosiy vositalaridan biri sifatida ta’lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Akkreditatsiya institutsional faoliyatni kompleks baholash, ta’lim dasturlari sifati,

mavjud resurslardan foydalanish darajasini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayon yakunlari ta’lim sifatini oshirish, ta’lim bozorida ishonchni mustahkamlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Ko‘plab davlatlarda milliy sifatni ta’minlash tizimlari xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalar asosida shakllantirilmoqda. Bunday tizimlar ta’lim standartlarini ishlab chiqish, akkreditatsiya jarayonlarini takomillashtirish, ta’lim natijalarini monitoring qilish, ta’lim tashkilotlarini reytingini yuritish hamda sifatni uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Ular ta’lim tashkilotlarining institutsional mustaqillik, hisobdorlik va shaffoflik tamoyillariga tayangan holda faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim sifatini ta’minlash sohasida tizimli va keng ko‘lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni global ta’lim makoniga integratsiya qilish hamda ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ishonchni oshirish maqsadida milliy sifatni ta’minlash tizimi bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Xususan, ta’lim tashkilotlarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, davlat akkreditatsiyasini samarali tashkil etish, ta’lim dasturlarini yangilash hamda ta’lim natijalarini mehnat bozori talablariga moslashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 5-maydagi PF–76-sonli Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tashkil etildi.

Mazkur Agentlik ta’lim sohasida mustaqil, tizimli va institutsional asosda tashqi sifatni ta’minlashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Uning tashkil etilishi mamlakat ta’lim tizimida shaffoflik, hisobdorlik hamda sifatni boshqarish mexanizmlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Agentlik o‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlarida, shuningdek, qayta tayyorlash, malaka oshirish va malakani baholash yo‘nalishlarida tashqi sifatni ta’minlash funksiyalarini amalga oshiradi. Shu bilan birga, u ta’lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish, ta’lim sifati monitoringini tizimli ravishda olib borish hamda milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar va talablar bilan uyg‘unlashtirish uchun mas’ul hisoblanadi.

Shu tariqa, O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy sifatni ta’minlash tizimi global ta’lim makonida e’tirof etilgan tamoyillar va ilg‘or xalqaro tajribalar asosida izchil rivojlanib bormoqda. Bu esa ta’lim xizmatlari sifatini oshirish, ta’lim tashkilotlarining xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash hamda milliy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

# 1. TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA TIZIMDAGI O‘RNI

## Agentlikning tashkil etilishi va uning institutsional ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning sifatni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim tashkilotlari faoliyatini mustaqil va xolis tashqi baholash mexanizmlarini joriy etish hamda milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadida zamonaviy institutsional mexanizmlar izchil shakllantirilmoqda. Mazkur islohotlarning muhim bosqichi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi tashkil etildi.

Agentlik mamlakatda mustaqil, tizimli va institutsional asosda tashqi sifatni ta’minlashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi sifatida faoliyat yuritadi. Uning asosiy funksiyalari qatoriga ta’lim tashkilotlarining faoliyati sifati va samaradorligini baholash, ta’lim dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta’minlash, shuningdek, ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish kiradi.

Agentlik o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonun hujjatlari, Prezident farmon va qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi. Ushbu agentlikning tashkil etilishi ta’limda sifatni ta’minlash bo‘yicha milliy modelni shakllantirish va uni xalqaro talablarga moslashtirish yo‘lida muhim strategik qadam hisoblanadi.

## Agentlikning vazifasi

Agentlikning asosiy missiyasi O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining barcha bosqichlarida sifatni ta’minlash, ta’lim tashkilotlarining institutsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim xizmatlari sifatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashdan iboratdir.

Agentlik o‘z faoliyatida sifat, shaffoflik, hisobdorlik va xolislik tamoyillariga qat’iy amal qiladi. Ushbu tamoyillar ta’lim tashkilotlarini baholash jarayonlarida adolat, betaraflik va ishonchlilikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Agentlik faoliyati ta’lim tashkilotlarida sifat madaniyatini shakllantirish, ularning uzluksiz takomillashuvi va barqaror rivojlanishini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan.

Agentlik o‘z funksional vazifalarini faqat tartibga soluvchi organ sifatida cheklab qolmay, balki ta’lim tashkilotlarining strategik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi institutsional hamkor sifatida ham faoliyat yuritadi. Mazkur yondashuv doirasida u ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar hamda zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etishga ko‘maklashadi.

Shu nuqtai nazardan, Agentlikning missiyasi ta’lim sifati sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirish, ta’lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda O‘zbekiston ta’lim tizimini global ta’lim makoniga izchil integratsiya qilishga qaratilgan.

## Agentlikning rivojlanish istiqbollari

Agentlikning rivojlanish istiqbollari O‘zbekiston Respublikasida xalqaro standartlarga mos keladigan, zamonaviy, shaffof va barqaror ta’lim sifatini ta’minlash ekotizimini shakllantirishdan iboratdir. Uzoq muddatli istiqbolda Agentlik mamlakatdagi ta’lim tashkilotlarining global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali institutsional mexanizmlarni rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mazkur jarayonda ta’lim sifati, akademik mustaqillik, innovatsion rivojlanish hamda ta’lim tizimining mehnat bozori bilan integratsiyasi ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanadi. Agentlikning strategik yondashuviga ko‘ra, ta’lim sifati nafaqat davlat nazorati orqali, balki ta’lim tashkilotlarida joriy etilgan ichki sifatni ta’minlash tizimlari orqali ham samarali kafolatlanishi lozim. Shu munosabat bilan, Agentlik ta’lim tashkilotlarida sifat madaniyatini shakllantirish va uni izchil rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda Agentlik O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro ta’lim reytinglari, xalqaro akkreditatsiya tizimlari hamda global akademik hamkorlik tarmoqlariga izchil integratsiya qilishni nazarda tutadi.

## Agentlikning asosiy funksiyalari

Agentlikning asosiy funksiyalari ta’lim tashkilotlari faoliyatida tizimli tashqi sifatni ta’minlashni amalga oshirish hamda ularning samaradorligini kompleks baholashdan iboratdir.

Agentlik ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlari sifatini kompleks (institutsional) va maxsus (dastur) davlat akkreditatsiyasi mexanizmlari orqali baholaydi. Akkreditatsiya jarayoni ta’lim dasturlarining sifati, inson resurslari salohiyati, moddiy-texnik infratuzilma hamda boshqaruv tizimlari samaradorligini har tomonlama tahlil qilishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, Agentlik ta’lim sifati bo‘yicha uzluksiz monitoringni amalga oshiradi hamda ta’lim tashkilotlari faoliyati yuzasidan tahliliy ma’lumotlar bazasini shakllantiradi. Mazkur ma’lumotlar asosida ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan, dalillarga asoslangan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Agentlikning muhim funksiyalaridan yana biri milliy va xalqaro standartlarni ta’lim tizimiga joriy etish hamda ularni o‘zaro uyg‘unlashtirishdan iborat. Ushbu jarayon ta’lim standartlari, akkreditatsiya talablari va baholash mexanizmlarini ilg‘or xalqaro tajribalar bilan integratsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, Agentlik ta’lim tashkilotlari faoliyatida shaffoflik va ochiqlik tamoyillarini ta’minlaydi, jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi hamda ta’lim xizmatlari sifati to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

**DAVLAT TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH BOSHQARUV TUZILMASI**
**TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH EKOTIZIMI**



## Agentlikning ta’lim tizimidagi strategik roli

Agentlikning tashkil etilishi O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini ta’minlash tizimini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur institut ta’lim tashkilotlari faoliyatini tizimli baholash, ta’lim xizmatlari sifatiga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini mustahkamlash hamda ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Agentlik faoliyati natijasida ta’lim tashkilotlarida sifatni boshqarishning zamonaviy va samarali mexanizmlari izchil joriy etilmoqda. Bu esa ularning institutsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda ta’lim xizmatlari sifatining uzluksiz takomillashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu tariqa, Agentlik O‘zbekiston ta’lim tizimida sifatni ta’minlashning markaziy institutsional bo‘g‘ini sifatida faoliyat yuritib, milliy ta’lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi va global ta’lim makonidagi nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

# 2. DAVLAT AKKREDITATSIYASI

## Davlat akkreditatsiyasining mazmuni

Davlat akkreditatsiyasi ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash va ularning belgilangan davlat talablari hamda xalqaro standartlarga muvofiqligini aniqlashning muhim vositasi hisoblanadi. Davlat akkreditatsiyasi orqali ta’lim jarayonlari, kadrlar salohiyati, o‘quv dasturlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, moddiy-texnik baza va boshqaruv tizimlarini qamrab olgan holda kompleks baholash amalga oshiriladi. Ushbu jarayon ta’lim tashkilotlari faoliyatini tizimli tahlil qilish, rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish hamda ta’lim sifatini uzluksiz oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimlarida akkreditatsiya nafaqat tartibga soluvchi mexanizm, balki sifatni oshirishga qaratilgan strategik boshqaruv vositasi sifatida ham qaraladi. U ta’lim tashkilotlariga o‘z faoliyatini qayta baholash, ichki sifatni ta’minlash tizimlarini mustahkamlash va mehnat bozori talablariga mos ta’lim dasturlarini joriy etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, akkreditatsiya jarayoni ta’lim tashkilotlarida sifat madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda davlat akkreditatsiyasi mexanizmlari milliy ta’lim sifatini ta’minlash tizimini takomillashtirish doirasida xalqaro standartlarga muvofiq ravishda tubdan qayta ko‘rib chiqildi va modernizatsiya qilindi. Ushbu islohotlar shaffoflikni ta’minlash, hisobdorlikni kuchaytirish hamda ta’lim xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan.

## Davlat akkreditatsiyasining huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishning huquqiy asoslari ta’lim sohasidagi milliy normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentyabr), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni (PF–76-son, 2025-yil 5-may), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori (PQ–275-son, 2025-yil 8-sentyabr), shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori (498-son, 2025-yil 6-avgust) ta’lim tashkilotlarining tashqi baholash tizimini tartibga soladi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi o‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limda, shuningdek qayta tayyorlash, malaka oshirish va malakalarni baholash sohalarida tashqi sifatni ta’minlashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan.

Amaldagi huquqiy asosga ko‘ra, Agentlik ta’lim tashkilotlari faoliyatini kompleks (institutsional) va maxsus (dastur) davlat akkreditatsiyasi orqali baholaydi. Ushbu mexanizm tashkilot faoliyati natijadorligi hamda ta’lim dasturlari sifati darajasini mustaqil va xolis baholanishini ta’minlaydi.

## Akkreditatsiya turlari

O‘zbekiston Respublikasida davlat akkreditatsiyasi ikki turga bo‘linadi: birinchisi – butun ta’lim tashkilotini qamrab oluvchi kompleks (institutsional) davlat akkreditatsiyasi, ikkinchisi – alohida ta’lim dasturlarini baholovchi maxsus (dastur) davlat akkreditatsiyasi.

Bu ikki mexanizm orqali ta’lim tashkilotining umumiy faoliyati va aniq ta’lim dasturlari sifat darajasi alohida-alohida baholanadi.

## Kompleks davlat akkreditatsiyasi va uning standartlari

Kompleks (institutsional) davlat akkreditatsiyasi ta’lim tashkilotining barcha faoliyat yo‘nalishlarini qamrab oladi. Unda boshqaruv tizimi, ta’lim dasturlari, o‘qituvchilar tarkibi, ilmiy faoliyat, moddiy-texnik baza, talabalarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va boshqa asosiy sohalar har tomonlama baholanadi.

Amaldagi tartibga ko‘ra, kompleks akkreditatsiya har besh yilda bir marta o‘tkaziladi. Jarayon tashkilotning barqaror rivojlanish darajasini hamda belgilangan sifat talablariga mosligini aniqlashga qaratilgan. Akkreditatsiya natijalari keyingi rejalashtirish va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompleks davlat akkreditatsiyasi quyidagi yo‘nalishlar (standartlar) va ularning tegishli mezonlari asosida amalga oshiriladi:

- Tashkiliy-boshqaruv faoliyati
- Ta’lim sifatini ta’minlash
- O‘quvchilar faoliyati
- O‘quv jarayonini tashkil etish
- Inson resurslari
- O‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash
- Moddiy-texnik ta’minot

Ushbu yo‘nalishlar ta’lim tashkilotining faoliyati va ta’lim sifati darajasini kompleks hamda tizimli baholash uchun asosiy mezonlar majmuini tashkil etadi. Baholash mezonlari bo‘yicha indikatorlar 1–4-ilovalarda keltirilgan.

## Maxsus davlat akkreditatsiyasi va uning standartlari

Maxsus (dastur) davlat akkreditatsiyasi alohida ta’lim dasturlari darajasida amalga oshiriladi. U ta’lim dasturlarining mazmunini, o‘quv rejalari va fan dasturlarini, ta’lim natijalarini hamda ularning mehnat bozori talablariga muvofiqligini kompleks baholashga qaratilgan. Mazkur turdagi akkreditatsiya, odatda, yangi ta’lim dasturlari ishga tushirilishidan avval o‘tkazilib, talabalar qabul qilinishidan oldin ularning belgilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu mexanizm ta’lim dasturlari sifatini ta’minlash, talabalarning huquqlarini himoya qilish hamda mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi tartibga muvofiq, maxsus davlat akkreditatsiyasi quyidagi yo‘nalishlar (standartlar) va ularning tegishli mezonlari asosida amalga oshiriladi:

- Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash
- Ta’lim dasturlari
- O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash
- O‘quvchilar faoliyati
- Inson resurslari
- Moddiy-texnik ta’minot

Mazkur yo‘nalishlar alohida ta’lim dasturlarining sifati, dolzarbligi va samaradorligini tizimli hamda strukturaviy asosda baholashni ta’minlaydi.

Ta’lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishda qo‘llaniladigan baholash mezonlari bo‘yicha indikatorlar 5–8-ilovalarda batafsil bayon etilgan.

## Davlat akkreditatsiyasining ahamiyati

**A** **Ta’lim sifati va standartlarini ta’minlash**

Davlat akkreditatsiyasi ta’lim tashkilotlari faoliyatining milliy va xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etilishini ta’minlaydi. Akkreditatsiya jarayonida o‘quv rejalari, o‘qitish metodologiyalari hamda baholash tizimlari har tomonlama ekspertizadan o‘tkaziladi. Bu ta’lim jarayonida yuqori sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolishga xizmat qiladi.

**B** **Ta’lim oluvchilarning huquqlarini himoya qilish**

Davlat akkreditatsiyasi tizimi ta’lim oluvchilarning sifatli ta’lim olish huquqini kafolatlaydi. Akkreditatsiyadan o‘tmagan ta’lim dasturi bo‘yicha talabalarni qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur mexanizm fuqarolarni sifatsiz ta’lim xizmatlaridan himoya qiladi

**D** **Ta’lim tashkilotlarining hisobdorligini kuchaytirish**

Akkreditatsiya jarayoni ta’lim tashkilotlarining davlat va jamoatchilik oldidagi hisobdorligini ta’minlaydi. Tashkilotlar o‘z faoliyati to‘g‘risida shaffof ma’lumot taqdim etishi hamda taqdim etilayotgan ta’lim sifati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi shart

**E** **Ta’lim tizimida raqobat muhitini rivojlantirish**

Davlat akkreditatsiyasi ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi. Sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishga intilish tashkilotlarni o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirish va umumiy samaradorligini oshirishga undaydi.

**F** **Ta’lim natijalari va malakalarining xalqaro darajada tan olinishini ta’minlash**

Davlat akkreditatsiyasi tizimi milliy ta’lim tizimining xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirilgan akkreditatsiya milliy ta’lim tizimini global ta’lim makoniga integratsiya qilishda muhim omil hisoblanadi.

**G** **Ta’lim sifati monitoringini kuchaytirish**

Davlat akkreditatsiyasi jarayoni ta’lim tizimida tizimli monitoringni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sohasidagi muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishni ta’minlaydi.

# 3. MILLIY SIFATNI TA’MINLASH TIZIMI

Milliy sifatni ta’minlash tizimi mamlakat ta’lim tizimida ta’lim sifatini ta’minlash, boshqarish hamda uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan institutsional va metodologik mexanizmlarning yagona tizimini ifodalaydi. Mazkur tizim ta’lim natijalarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta’minlash, ta’lim jarayonlarining ochiqligi va hisobdorligini kuchaytirish, shuningdek, milliy ta’lim tizimining global ta’lim makonidagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tizimning asosiy maqsadi ta’lim sifati bo‘yicha yagona talablar va baholash mezonlarini belgilash orqali barcha darajadagi ta’lim tashkilotlari faoliyatida o‘zaro muvofiqlik va izchillikni ta’minlashdan iborat.

Mazkur tizimning tarkibiy qismlariga Milliy malakalar ramkasi (MMR) hamda davlat ta’lim standartlari kiradi. MMR ta’lim natijalarini malaka darajalari bo‘yicha tizimlashtiradi hamda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning uzviyligini ta’minlaydi. Davlat ta’lim standartlari va davlat talablari ta’lim mazmunini, o‘quv yuklamasini, o‘quv natijalarini hamda baholash mezonlarini belgilab, minimal va majburiy sifat talablarini o‘rnatadi. Ushbu hujjatlar ta’lim jarayonini yagona yondashuv asosida tashkil etish va uning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, baholash yo‘nalishlari, mezonlar va ularning indikatorlarini o‘z ichiga olgan Akkreditatsiya standartlari milliy sifatni ta’minlash tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Mazkur standartlar asosida ta’lim tashkilotlari faoliyati institutsional va dasturiy darajalarda baholanadi. Ushbu jarayonlar orqali tashqi sifatni baholash ta’minlanadi hamda ta’lim tashkilotlarining uzluksiz rivojlanishi va xalqaro standartlarga muvofiqligi qo‘llab-quvvatlanadi.

# 4. AKKREDITATSIYA JARAYONI

Davlat akkreditatsiyasi jarayoni, odatda, bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi. Dastlabki bosqichda ta’lim tashkiloti o‘z ichki tahliliga asoslanib ichki baholash hisobotini tayyorlaydi. Keyingi bosqichda mustaqil ekspertlar hay’ati joyiga chiqib, tashrifni amalga oshiradi, tegishli hujjatlarni ko‘rib chiqadi, ta’lim jarayonlarini kuzatadi hamda manfaatdor tomonlar bilan intervyular o‘tkazadi. Yakuniy bosqichda esa ekspert baholashlari asosida akkreditatsiya to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Ushbu jarayon ta’lim tashkilotlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini ta’minlaydi.

## Akkreditatsiya bosqichlari

Ta’lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish jarayoni izchil va tizimli bosqichlar ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlarning har biri sifatni ta’minlash jarayonida obyektivlik, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat akkreditatsiyasi to‘rt asosiy bosqich hamda akkreditatsiyadan keyingi bosqichda amalga oshiriladi. Jarayon aniq belgilangan tartib-taomillar, muddatlar va mas’uliyatlar asosida tashkil etiladi.

### 01 BOSQICH — Ariza topshirish

Dastlabki bosqichda ta’lim tashkiloti akkreditatsiya o‘tkazuvchi Agentlikka rasmiy ravishda akkreditatsiya olish uchun ariza taqdim etadi. Ushbu ariza tashkilotning tashqi baholash jarayonidan o‘tishiga tayyorligini tasdiqlaydi hamda uning faoliyati, ta’lim dasturlari va belgilangan talablarga muvofiqligi to‘g‘risida asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

## Amalga oshiriladigan harakatlar

- Ta’lim tashkiloti arizani accreditation.nqaae.uz raqamli platformasi orqali taqdim etadi
- Zarur hujjatlar ilova qilinadi (litsenziya, oldingi akkreditatsiya sertifikati, to‘lovni tasdiqlovchi hujjat, mas’ul shaxs ma’lumotlari va boshqalar);
- Agentlik va ta’lim tashkiloti o‘rtasida ikki tomonlama shartnoma imzolanadi.

## Muddatlar:

- Maxsus (dasturiy) akkreditatsiya
  arizalar har yili 1-oktabrdan 31-yanvargacha qabul qilinadi
- Kompleks (institutsional) akkreditatsiya
  arizalar akkreditatsiya o‘tkazilishidan oldingi o‘quv yilining 15-sentabrigacha topshiriladi
- Agentlik tomonidan arizani ko‘rib chiqish muddati: 15 ish kuni
- Shartnoma imzolash: ariza qabul qilingandan so‘ng 10 ish kuni ichida

## 02 BOSQICH

## O‘zini o‘zi baholash (Ichki sifatni baholash)

Ichki (o‘zini o‘zi) baholash — bu ta’lim tashkiloti tomonidan ichki sifatni ta’minlash mezonlari asosida o‘z faoliyati samaradorligini monitoring qilish, tahlil etish va baholash hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonidir.

## Amalga oshiriladigan harakatlar

- Ta’lim tashkiloti ichki baholashni amalga oshiradi va ichki baholash hisobotini tayyorlaydi
- Hisobot quyidagilarni o‘z ichiga oladi
  - tashkilot haqida umumiy ma’lumot
  - akkreditatsiya mezonlariga muvofiqlik tahlili
  - aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takomillashtirish rejasi
  - tasdiqlovchi dalillar (hujjatlar va ma’lumotlar)
- Ichki sifatni ta’minlash bo‘linmalari jarayonni tashkil etadi va amalga oshirilishini ta’minlaydi.

## Muddatlar:

- Ichki hisobotni taqdim etish:
  - maxsus akkreditatsiya uchun tashqi baholashdan kamida 1 oy oldin
  - kompleks akkreditatsiya uchun tashqi baholashdan kamida 2 oy oldin

03
BOSQICH

## Tashqi baholash (ekspert baholashi)

Tashqi baholash — bu Akkreditatsiya agentligi tomonidan amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, ta’lim tashkiloti faoliyatini, jumladan ta’lim mazmuni, darajasi va sifatini davlat ta’lim standartlari (talablari) hamda akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholashni o‘z ichiga oladi.

Agentlik tashqi baholashni amalga oshirish uchun akademik mutaxassislar, ish beruvchilar, davlat organlari vakillari hamda zarur hollarda xalqaro ekspertlardan iborat ekspertlar guruhini shakllantiradi.

## Amalga oshiriladigan harakatlar:

- ichki baholash hisobotini ko‘rib chiqish;
- ta’lim tashkilotini joyiga chiqqan holda o‘rganish (yoki zarur hollarda masofaviy formatda baholash);
- ta’lim tashkiloti bilan aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takomillashtirish rejasini ishlab chiqish;
- hisobot/yakuniy hisobotni shakllantirish.

## Muddatlar:

- Maxsus akkreditatsiya: 5 ish kunigacha;
- Kompleks akkreditatsiya:
  - kasbiy ta’lim va malaka oshirish tashkilotlari: 5 ish kunigacha
  - oliy ta’lim tashkilotlari: 10 ish kunigacha

## IZOH:

Tashqi baholash jarayonining hisobot tayyorlash muddatlari ekspert tahlilining puxtaligini hamda ta’lim tashkilotining fikr bildirish imkoniyatini ta’minlash, shu bilan birga jarayonning samaradorligi va shaffofligini saqlash maqsadida tartibga solinadi.

Tashqi baholash yakunlangandan so‘ng, ekspertlar guruhi 15 ish kuni ichida dastlabki hisobot (draft report)ni tayyorlaydi. Mazkur hisobot akkreditatsiya mezonlari bo‘yicha dastlabki xulosalar, baholash natijalari, aniqlangan kuchli va zaif tomonlar hamda dastlabki tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu hujjat yakuniy qaror emas, balki tekshirish va tasdiqlash uchun mo‘ljallangan dastlabki hujjat hisoblanadi.

Dastlabki hisobot taqdim etilgandan so‘ng, ta’lim tashkilotiga uni ko‘rib chiqish va rasmiy fikr bildirish uchun 3 ish kuni beriladi. Ushbu davrda tashkilot asoslangan izohlar, tushuntirishlar yoki e’tirozlarni taqdim etishi mumkin, ayniqsa qo‘shimcha dalillar yoki tuzatishlar talab etiladigan holatlarda. Mazkur bosqich adolat, aniqlik va tashkilotning baholash jarayonida ishtirok etishini ta’minlaydi.

Ta’lim tashkilotining fikrlari inobatga olinganidan so‘ng, ekspertlar guruhi 3 ish kuni ichida yakuniy hisobotni tayyorlaydi. Yakuniy hisobot tasdiqlangan xulosalarni o‘z ichiga oladi va asoslangan tuzatishlar kiritilgan bo‘ladi. Ushbu hujjat akkreditatsiya komissiyasining keyingi qarori uchun rasmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur muddatlar tizimi ekspert xulosasi va ta’lim tashkilotining fikrini muvozanatli tarzda hisobga olgan holda, akkreditatsiya jarayonida shaffoflik, obyektivlik va dalillarga asoslangan qaror qabul qilishni ta’minlaydi.

Akkreditatsiya tashkilotning so‘nggi 2 yil hamda joriy o‘quv yili faoliyati natijalarini qamrab

## 04 BOSQICH Akkreditatsiya qarorini qabul qilish

Ekspertlar guruhining yakuniy hisoboti asosida tayyorlangan xulosani koʻrib chiqish hamda taʼlim tashkiloti (yoki taʼlim dasturi)ga davlat akkreditatsiyasini berish boʻyicha yakuniy qaror qabul qilish maqsadida Agentlik tarkibida doimiy faoliyat yurituvchi Akkreditatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Akkreditatsiya komissiyasi tarkibiga vazirliklar, davlat organlari va tashkilotlar vakillari, shuningdek ish beruvchilar, taʼlim oluvchilar hamda xalqaro ekspertlar kiradi. Agentlik direktori

### Amalga oshiriladigan harakatlar:

- Yakuniy hisobot Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan koʻrib chiqiladi;
- Akkreditatsiya mezonlariga muvofiqlik darajasiga asoslanib qaror qabul qilinadi:
  Akkreditatsiyadan oʻtdi | Akkreditatsiyadan oʻtmadi

### Muddatlar:

- Qaror yakuniy hisobot olinganidan soʻng 1 oy ichida qabul qilinadi.

### IZOH:

Akkreditatsiya toʻgʻrisidagi qaror qabul qilingandan soʻng, taʼlim tashkiloti yoki taʼlim dasturiga 1 hafta ichida akkreditatsiya sertifikati rasmiy ravishda beriladi. Ushbu sertifikat tashkilot yoki dastur belgilangan akkreditatsiya standartlariga muvaffaqiyatli javob berganini hamda taʼlim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, akkreditatsiya natijalari toʻgʻrisidagi maʼlumot Davlat akkreditatsiya reyestrida eʼlon qilinadi va u ochiq foydalanish uchun taqdim etiladi. Bu jarayon shaffoflikni taʼminlaydi, manfaatdor tomonlarga akkreditatsiya holatini tekshirish imkonini beradi hamda taʼlim tizimiga boʻlgan jamoatchilik ishonchini

## 05 BOSQICH Akkreditatsiyadan keyingi monitoring va kuzatuv jarayoni

Akkreditatsiyadan keyingi monitoring va kuzatuv bosqichi sifatni taʼminlash siklining muhim tarkibiy qismi boʻlib, akkreditatsiya bir martalik baholash emas, balki uzluksiz takomillashtirish jarayoni ekanligini taʼminlaydi. Taʼlim tashkiloti yoki taʼlim dasturi akkreditatsiyadan oʻtgach, u belgilangan standartlarga muvofiqlikni saqlashi hamda oʻz faoliyati sifatini tizimli ravishda yaxshilab borishi shart.

Ushbu bosqichda taʼlim tashkiloti akkreditatsiya jarayonida aniqlangan takomillashtirish choralarini amalga oshirish uchun javobgar hisoblanadi. Ekspertlar guruhi tavsiyalari va akkreditatsiya qarori asosida tashkilot sifatni oshirish boʻyicha harakatlar rejasini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etadi va ichki sifatni taʼminlash tizimini mustahkamlaydi. Ushbu chora-tadbirlarning bajarilishi belgilangan raqamli platforma orqali muntazam ravishda hujjatlashtirilishi va hisobot shaklida taqdim etilishi lozim.

- tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan davriy hisobotlarni tahlil qilish
- xavfga asoslangan monitoring va maqsadli tekshiruvlarni amalga oshirish
- talabalar va ish beruvchilar oʻrtasida milliy soʻrovnomalar orqali fikr-mulohazalarni oʻrganish
- bitiruvchilarning oʻquv natijalari va mehnat bozoriga integratsiyasini baholash

Ushbu uzluksiz nazorat sifat pasayishi yoki potentsial xavflarni erta aniqlash imkonini beradi. Agar jiddiy kamchiliklar aniqlanib, belgilangan muddatlarda bartaraf etilmasa, Agentlik tuzatish choralarini qoʻllashi mumkin, jumladan qayta baholash, ayrim dasturlarni toʻxtatib turish yoki ogʻir hollarda akkreditatsiya yoki litsenziyani bekor qilish.

Umuman olganda, akkreditatsiyadan keyingi monitoring sifat barqarorligini, tashkilot javobgarligini va milliy hamda xalqaro standartlarga uzluksiz moslashuvni taʼminlaydi, bu esa taʼlim tizimiga boʻlgan ishonchni mustahkamlaydi va uning uzoq muddatli rivojlanishini qoʻllab-quvvatlaydi.

## Akkreditatsiya jarayonining blok-sxemasi



# 5. EKSPERTLAR GURUHI

## Umumiy qoidalar

Ekspertlar guruhlari (tashqi baholash jamoalari) davlat akkreditatsiyasi doirasida ta'lim tashkilotlari va ta'lim dasturlarini mustaqil, xolis va dalillarga asoslangan tashqi baholashni amalga oshirish uchun Agentlik tomonidan tashkil etiladi.

Ekspertlar guruhi tashqi sifatni ta'minlashning asosiy operatsion mexanizmi sifatida faoliyat yuritib, ta'lim tashkilotlarining akkreditatsiya yo'nalishlari (standartlari), mezonlari va indikatorlariga muvofiqligini ta'minlashni amalga oshiradi.

## Ekspertlar guruhi tarkibi

Ekspertlar guruhi tarkibi Agentlik tomonidan tasdiqlanadi hamda u kasbiy kompetensiya, mustaqillik va manfaatdor tomonlar vakilligini ta'minlash tamoyillari asosida shakllantiriladi.

**Ekspertlar guruhi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi:**

- akademik ekspertlar (professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar);
- ish beruvchilar vakillari (sanoat va soha mutaxassislari);
- tegishli vazirliklar va tarmoq tashkilotlari vakillari;
- sifatni ta'minlash va akkreditatsiya bo'yicha ekspertlar;
- zarur hollarda xalqaro ekspertlar;
- ta'lim tashkiloti yoki dastur yo'nalishiga qarab boshqa mutaxassislar.

**Ekspertlar guruhi tarkibi quyidagilarni ta'minlashi lozim:**

- sohaviy moslik;
- manfaatlar to'qnashuvining mavjud emasligi;
- ekspertiza vakolatlarining muvozanatli taqsimlanishi.

Ta'lim tashkiloti ekspertlar guruhi tarkibi to'g'risida joyiga chiqib tashrifdan oldin rasmiy ravishda xabardor qilinadi.

## Ekspertlar guruhi faoliyatining asosiy tamoyillari

**Ekspertlar guruhi quyidagi tamoyillar asosida faoliyat yuritadi:**

- xolislik va beg'arazlik;
- shaffoflik va hisobdorlik;
- dalillarga asoslangan baholash;
- axborot maxfiyligini ta'minlash;
- kasbiy etika va halollik.

Ekspertlar baholash jarayoni davomida bevosita yoki bilvosita manfaatlar to'qnashuvidan qochishi hamda butun jarayon mobaynida mustaqil ravishda faoliyat yuritishi shart.

## Ekspertlar guruhi asosiy funksiyalari

**Ekspertlar guruhi quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:**

### Analitik ko‘rib chiqish

- ichki baholash hisobotini ko‘rib chiqish
- taqdim etilgan hujjatlar va dalillarni tahlil qilish
- akkreditatsiya standartlariga muvofiqlikni baholash

### Tashqi baholash (joyiga chiqqan holda)

- joyida yoki masofaviy baholashni amalga oshirish
- o‘qitish va o‘qish jarayonlarini kuzatish
- infratuzilma va resurslarni ko‘rib chiqish
- manfaatdor tomonlar (boshqaruv, xodimlar, talabalar, ish beruvchilar) bilan intervyular o‘tkazish

### Tasdiqlash

- ta’lim tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini tekshirish
- kuchli va zaif tomonlar, xavflar hamda ilg‘or amaliyotlarni aniqlash

### Hisobot tayyorlash

- ekspertlarning dastlabki hisobotini tayyorlash
- xulosalar, natijalar va tavsiyalarni shakllantirish
- tashkilot fikr-mulohazalari asosida yakuniy hisobotni tayyorlash

## Ekspertlar guruhi ish jarayoni

**Ekspertlar guruhi faoliyati quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:**

- ekspertlar guruhini shakllantirish va tasdiqlash
- ichki baholash hisobotini ko‘rib chiqish
- tashqi baholashni (joyiga chiqib tashrifni) amalga oshirish
- dastlabki hisobotni tayyorlash (15 ish kuni ichida)
- ta’lim tashkilotining fikr-mulohazalarini ko‘rib chiqish (3 ish kuni ichida)
- yakuniy hisobotni tayyorlash (3 ish kuni ichida)

Ekspertlar guruhining yakuniy hisoboti akkreditatsiya bo‘yicha qaror qabul qilishning asosiy tahliliy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

## Ekspertlar guruhi a’zolarining majburiyatlari

**Har bir ekspert quyidagilar uchun mas’ul hisoblanadi:**

- o‘ziga biriktirilgan soha/standart doirasida baholashni amalga oshirish
- asoslantirilgan va dalillarga tayangan xulosalarni taqdim etish
- kasbiy etika va maxfiylik talablariga rioya qilish
- muhokamalarda ishtirok etish hamda umumiy kelishuvga erishish jarayonida qatnashish

Ekspertlar guruhi raisi baholash jarayonini muvofiqlashtiradi hamda xulosalar izchilligi va uyg‘unligini ta’minlaydi

## Ekspertlar guruhi faoliyati natijalari

**Ekspertlar guruhidan yakuniy baholash hisobotini shakllantirib berishi talab etiladi. Ushbu hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- standartlarga muvofiqlikni baholash;
- aniqlangan kuchli tomonlar va takomillashtirish yo'nalishlari;
- xavflarni tahlil qilish;
- sifatni oshirish bo'yicha tavsiyalar.

Mazkur hisobot Agentlikka taqdim etiladi va quyidagilar uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

- akkreditatsiya bo'yicha qaror qabul qilish;
- akkreditatsiyadan keyingi monitoringni amalga oshirish;
- tashkilotning institutsional rivojlanishini rejalashtirish.

# 6. BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI

## Baholash yo'nalishlarining umumiy tuzilmasi

Davlat akkreditatsiyasi doirasida ta'lim tashkilotlari va ta'lim dasturlarini baholash vakolatli Agentlik tomonidan tasdiqlangan baholash yo'nalishlari (standartlar), mezonlar va indikatorlardan iborat tuzilmaviy tizim asosida amalga oshiriladi. Mazkur tizim baholashning xolisligi, shaffofligi va izchilligini ta'minlaydi hamda milliy ta'lim siyosati va xalqaro sifatni ta'minlash tamoyillariga muvofiqlikni saqlaydi.

Baholash yo'nalishlari ta'lim tashkilotining asosiy faoliyat sohalarini ifodalaydi. Har bir yo'nalish kutilayotgan talablarni belgilovchi mezonlardan iborat bo'lib, ular o'z navbatida o'lchanadigan indikatorlar orqali aniq ifodalanadi. Metodologiya ichki (o'zini o'zi baholash) va tashqi baholashni integratsiyalash asosida qurilgan bo'lib, uzluksiz sifatni ta'minlash siklini hamda dalillarga asoslangan qaror qabul qilishni ta'minlaydi.

## Indikatorlarni baholash metodologiyasi

Baholash tizimi indikatorlarga asoslangan bo'lib, har bir indikator "muvofiq" yoki "nomuvofiq" deb baholanadi. Indikatorlar majburiy va umumiy turlarga ajratiladi. Har bir mezon bo'yicha baholash "muvofiq" indikatorlar ulushi asosida belgilanadi:

| Muvofiqlik darajasi | Indikatorlarning minimal talablari | |
|---|---|---|
| | *Oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari* | *Boshqa ta'lim tashkilotlar* |
| **Muvofiq** | ≥ 70% | ≥ 60% |
| **Qisman muvofiq** | 50% – 70% | 50% – 60% |
| **Non-Muvofiq emas** | ≤ 50% | ≤ 50% |

Muhim qoida amal qiladi: agar majburiy indikatorlardan kamida bittasi nomuvofiq deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, tegishli mezon avtomatik ravishda nomuvofiq deb baholanadi. Bu yondashuv minimal sifat standartlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlaydi hamda yuzaki muvofiqlik holatlarining oldini oladi.

## Dalillarga asoslangan baholash va natijalarni umumlashtirish tartibi

Baholash jarayoni qat'iy ravishda dalillarga asoslangan bo'lib, u tashkilot siyosatlari, akademik qaydlar, statistik ma'lumotlar, monitoring hisobotlari hamda joyiga chiqib o'tkazilgan tashriflar va manfaatdor tomonlar bilan suhbatlar natijalari kabi tekshirilishi mumkin bo'lgan hujjatlarga tayanadi.

Tashqi baholash ekspertlar guruhlari tomonidan amalga oshirilib, har bir mezon ham miqdoriy indikator natijalari, ham sifat jihatidan kasbiy ekspert xulosalari asosida baholanadi.

Umumlashtirish jarayonida mezonlar bo'yicha natijalar baholash yo'nalishlari (standartlar)ning muvofiqligini belgilaydi.

Normativ-huquqiy asosga muvofiq:

| Mezon turlari | "Muvofiq" deb topilish talablari |
|---|---|
| **Majburiy mezonlar** | Barcha mezonlar "muvofiq" bo'lishi shart |
| **Umumiy mezonlar** | Ko'pi bilan 2 ta mezon "qisman muvofiq" bo'lishi mumkin |
| **Nomuvofiqlik** | "Nomuvofiq" deb topilgan mezon bo'lmasligi kerak |

Faqat barcha shartlar bajarilgandagina, baholash yo'nalishi "muvofiq" deb tan olinadi. Bu yondashuv qat'iy muvofiqlik talablarini ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi uchun ma'lum darajadagi moslashuvchanlik bilan uyg'unlashtirilishini ta'minlaydi.

## Yakuniy qaror qabul qilish va uning ta'siri

Yakuniy akkreditatsiya qarori barcha baholash yo'nalishlari bo'yicha olingan natijalarga asoslanadi. Agar barcha baholash yo'nalishlari "muvofiq" deb baholansa, ta'lim tashkiloti yoki dastur akkreditatsiyadan o'tkaziladi, lekin kamida bitta yo'nalish "nomuvofiq" deb topilsa, akkreditatsiya rad etiladi.

Bu yondashuv jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik tamoyiliga asoslanadi va tizimning barqarorligi hamda ishonchliligini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, mazkur tizim risklarga asoslangan monitoring hamda uzluksiz sifatni yaxshilash mexanizmlarini o'z ichiga oladi, jumladan:

- akkreditatsiyadan keyingi monitoring;
- milliy darajadagi talabalar va ish beruvchilar so'rovnomalari;
- majburiy takomillashtirish bo'yicha harakat rejalari;
- kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda dastur faoliyatini tugatish imkoniyati.

Shunday qilib, baholash va ball berish tizimi nafaqat tartibga soluvchi vosita, balki strategik boshqaruv instrumenti sifatida ham xizmat qiladi, hisobdorlik, shaffoflik va ta'lim sifati uzluksiz takomillashuvini rag'batlantiradi. U ta'lim tashkilotlarida barqaror sifat madaniyatini shakllantirishga ko'maklashadi hamda ularning global ta'lim makoniga integratsiyasini osonlashtiradi.

# XULOSA

O‘zbekistonda Ta’lim sifatini ta’minlash ekotizimini rivojlantirish milliy ta’lim tizimini zamonaviy, shaffof hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh modelga transformatsiya qilishga qaratilgan kompleks va strategik jihatdan uyg‘unlashtirilgan islohotni ifodalaydi. Mazkur hujjatda qayd etilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining tashkil etilishi muhim institutsional bosqich hisoblanib, ta’lim sifatini ta’minlash jarayonlarining barcha ta’lim bosqichlarida mustaqil, tizimli va dalillarga asoslangan holda joriy etilishini ta’minlaydi. Ushbu institutsional mexanizm an’anaviy nazoratga yo‘naltirilgan yondashuvlardan kompleks va rivojlanishga qaratilgan sifatni ta’minlash modeliga o‘tishni aks ettiradi.

Tuzilmaviy Milliy sifatni ta’minlash doirasining joriy etilishi, jumladan Milliy malaka tizimi, Davlat ta’lim standartlari, akkreditatsiya mexanizmlari va monitoring tizimlari kabi elementlarning integratsiyasi ta’lim natijalarining izchilligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlash uchun yagona metodologik asosni shakllantiradi. Mazkur tizim nafaqat minimal sifat talablari belgilaydi, balki ichki sifatni ta’minlash mexanizmlarini rivojlantirish, sifat madaniyatini shakllantirish hamda ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni rag‘batlantirish orqali ta’lim tashkilotlarining uzluksiz takomillashuvini qo‘llab-quvvatlaydi.

Mazkur ekotizimning markaziy tarkibiy qismi davlat akkreditatsiyasi tizimi bo‘lib, u tartibga soluvchi va strategik instrument sifatida faoliyat yuritadi. Kompleks (institutsional) va maxsus (ta’lim dasturi bo‘yicha) akkreditatsiya orqali ta’lim tashkilotlari aniq belgilangan standartlar, mezonlar va indikatorlar asosida baholanadi. Ariza topshirish, o‘zini-o‘zi baholash, tashqi ekspertiza, qaror qabul qilish va akkreditatsiyadan keyingi monitoring bosqichlarini o‘z ichiga olgan ko‘p bosqichli akkreditatsiya jarayoni shaffoflik, hisobdorlik va obyektivlikni ta’minlaydi. Shuningdek, ekspertlar guruhi, manfaatdor tomonlar ishtiroki va dalillarga asoslangan baholash tizimning ishonchli va ishonarli bo‘lishini kuchaytiradi.

Baholash mezonlari va baholash tizimi aniq chegaraviy indikatorlar, majburiy talablar hamda umumlashtirish qoidalarini joriy etish orqali mazkur doiraning mustahkamligini yanada kuchaytiradi. Bu akkreditatsiya bo‘yicha qarorlar o‘lchanadigan natijalarga asoslangan holda qabul qilinishini ta’minlaydi va minimal sifat standartlariga qat’iy rioya etilishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, akkreditatsiyadan keyingi monitoring mexanizmlarining joriy etilishi akkreditatsiyani bir martalik baholashdan ko‘ra uzluksiz jarayonga aylantiradi va barqaror institutsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Tizimning yana bir muhim o‘lchami uning xalqaro sifatni ta’minlash amaliyotlari bilan uyg‘unligidir. Shaffoflik, hisobdorlik, manfaatdor tomonlar ishtiroki va natijalarga yo‘naltirilgan baholash kabi global tamoyillarni qo‘llash orqali O‘zbekistonning sifatni ta’minlash tizimi global ta’lim makonida tobora mustahkam o‘rin egallamoqda. Ushbu uyg‘unlik malakalarning xalqaro tan olinishi, akademik mobillikni kengaytirish hamda milliy ta’lim tashkilotlarining global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, xususan raqamli akkreditatsiya platformasini ishlab chiqish sifatni ta’minlash jarayonida samaradorlik, qulaylik va ma’lumotlarni boshqarish darajasini oshiruvchi istiqbolli yondashuvni ifodalaydi. Mazkur raqamli transformatsiya real vaqt rejimida monitoringni ta’minlaydi, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi kommunikatsiyani takomillashtiradi va ta’lim tizimining umumiy modernizatsiyasiga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur hujjatda taqdim etilgan O‘zbekistonning milliy ta’lim sifatini ta’minlash tizimi tartibga solish va rivojlanish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi kompleks ekotizim hisoblanadi. U ta’lim oluvchilarning huquqlarini himoya qiladi, jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi va ta’lim tashkilotlarida uzluksiz takomillashuv madaniyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, u ta’lim tizimini mehnat bozori talablari va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi strategik instrument sifatida mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda global integratsiyasiga hissa qo‘shadi.

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot

**Ilova 1. Oliy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish yo‘nalishlari, mezonlari va indikatorlari**

Oliy ta’lim tashkilotlari kompleks davlat akkreditatsiyasi doirasida 8 ta yo‘nalish, 47 ta mezon va 272 ta indikator bo‘yicha baholanadi.

Majburiy mezonlar va indikatorlar yulduzcha (*) bilan belgilangan.

| Yo‘nalish | Mezon | Indikator |
|---|---|---|
| **1. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati** | 1.1. Ta’lim tashkilotida Boshqaruv (Kuzatuv, Vasiylik) kengashining (bundan buyon matnda Boshqaruv kengashi deb yuritiladi) tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi* | 1.1.1. Boshqaruv kengashi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasasining vasiylik kengashi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2014-yil 23-maydagi 129-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan |
| | | 1.1.2. Boshqaruv kengashining vakolatlari, vazifalari, funksiyalari va ish yuritish tartibi belgilangan |
| | | 1.1.3. Boshqaruv kengashining yig‘ilishlari tizimli ravishda o‘tkazilgan va yig‘ilish qarorlari asosida chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan |
| | | 1.1.4. Boshqaruv kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ta’lim sifatini oshirish, professor-o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslaridan samarali foydalanish va oliy ta’lim tashkilotini strategik rivojlantirishga yo‘naltirilgan* |
| | | 1.1.5. Oliy ta’lim tashkilotida kollegial organlar (oliy ta’lim tashkilotining kengashi, jamoatchilik kengashi va boshqalar) mavjud, ushbu kollegial organlarni tashkil etish asoslari, maqsadlari va vazifalari aniq belgilangan hamda ularning ta’lim sifatini ta’minlashdagi ishtiroki ta’minlangan |
| | | 1.1.6. Boshqaruv kengashi va kollegial organlarning qarorlarini qabul qilish jarayonida talabalar, professor-o‘qituvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan |
| | | 1.1.7. Boshqaruv kengashi va kollegial organlarning qarorlari va ushbu |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | qarorlar yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar rejalari ijrosi bo‘yicha yagona monitoring tizimi joriy etilgan hamda monitoring natijalari muntazam tahlil qilingan |
| | 1.2. | Ta’lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta’lim sifatini ta’minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilgani* | 1.2.1. | | Oliy ta’lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasiga (strategik reja, missiya, strategiya) muvofiq moliyaviy mablag‘larni boshqarish va taqsimlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan |
| | | | 1.2.2. | | Moliyaviy resurslar o‘quv jarayoni, moddiy-texnik baza va infratuzilmani rivojlantirish yo‘nalishlariga muvofiq ravishda taqsimlangan |
| | | | 1.2.3. | | Yillik moliyaviy reja tasdiqlangan va ijrosi amalga oshirilgan |
| | | | 1.2.4. | | Yillik moliyaviy rejadagi o‘quv jarayoniga yo‘naltirilgan xarajatlar maqsadli va samarali sarflangan |
| | | | 1.2.5. | | Moliyaviy resurslardan foydalanish va yillik moliyaviy rejaning ijrosi bo‘yicha muntazam monitoring va tahlil amalga oshirilgan hamda monitoring va tahlil natijalari asosida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilingan |
| | 1.3. | Ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani | 1.3.1. | | Oliy ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik reja, missiya, strategiya) (bundan buyon matnda rivojlantirish rejasi deb yuritiladi) tasdiqlangan hamda mazkur rejada oliy ta’lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas’ul ijrochilar belgilangan* |
| | | | 1.3.2. | | Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun oliy ta’lim tashkilotidagi barcha tarkibiy bo‘linmalarning (fakultetlar, kafedralar, bo‘limlar va boshqalar) yillik ish rejalari tasdiqlangan |
| | | | 1.3.3. | | Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan, ularning taqsimoti rivojlantirish rejasining |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | maqsadlari va vazifalari bilan uyg‘unlashtirilgan |
| | | 1.3.4. | Rivojlantirish rejasining ijrosi hamda natijalari ochiq va shaffof tarzda jamoatchilikka taqdim etib borilgan |
| | | 1.3.5. | Rivojlantirish rejasining monitoringi va tahlili natijalari, manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari o‘rganilgan hamda ular asosida rivojlantirish rejasini takomillashtirish choralari ko‘rilgan |
| | 1.4. Ta’lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini, shuningdek biriktirilgan ta’lim tashkilotlarini rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasi* | 1.4.1. | Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirish yo‘nalishlarida tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan |
| | | 1.4.2. | Oliy ta’lim tashkiloti hududiy va respublika darajasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etgan (hissa qo‘shgan, tashkil qilgan) |
| | | 1.4.3. | Madaniy-ma’rifiy va ilmiy tadbirlar (festival, ko‘rgazma, anjumanlar yoki boshqalar) tashkil etilgan |
| | | 1.4.4. | Oliy ta’lim tashkilotiga biriktirilgan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasbiy va boshqa ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 1.4.5. | Jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy va ilmiy tadbirlarning natijalari tahlil qilingan |
| | 1.5. Ta’lim jarayonlarini boshqarish hamda ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘yicha axborot tizimining (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) mavjudligi va ushbu tizimning ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani | 1.5.1. | Oliy ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonlarini boshqarish, monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish uchun axborot tizimi (HEMIS, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi yoki boshqalar) joriy etilgan* |
| | | 1.5.2. | Axborot tizimida talabalar va professor-o‘qituvchilarga oid ma’lumotlar, shuningdek o‘quv mashg‘ulotlari (dars) jadvali, baholash va talabalar davomati bo‘yicha ma’lumotlarni yuritish imkoniyati mavjud |
| | | 1.5.3. | O‘zaro ma’lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish maqsadida axborot tizimi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan |
| | | 1.5.4. | Axborot tizimini texnik qoʻllab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari koʻrilgan hamda axborot tizimida foydalanuvchilarning samarali va qulay ishlay olishi ta'minlangan |
| | | 1.5.5. | Axborot tizimidagi ma'lumotlarning aniqligi ta'minlangan hamda axborot tizimi oʻz vaqtida yangilanib borilgan va monitoring yuritilgan, shuningdek ushbu ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan |
| | | 1.5.6. | Tayyorlangan tahliliy hisobotlar oliy ta'lim tashkilotining kengashi (bundan buyon matnda OTT kengashi deb yuritiladi) yigʻilishlarida muhokama qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni tuzatish choralari koʻrilgan |
| | 1.6. Ta'lim tashkilotida xalqaro hamkorlik aloqalari yoʻlga qoʻyilgani | 1.6.1. | Xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlar, shuningdek nufuzli xalqaro institutlar bilan oʻzaro manfaatli hamkorlik aloqalari yoʻlga qoʻyilgan |
| | | 1.6.2. | Professor-oʻqituvchilarning oʻz sohalari boʻyicha yetakchi xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish va stajirovka dasturlarida ishtirok etish imkoniyati yaratilgan |
| | | 1.6.3. | Oʻquv jarayoniga tegishli sohalar boʻyicha yuqori malakaga ega xorijiy mutaxassislar jalb etilgan hamda ularning oʻquv jarayonidagi ishtiroki ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilgan |
| | | 1.6.4. | Xalqaro hamkorlik natijasida oʻquv jarayonlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta'lim dasturlarining mazmuni takomillashtirilgan |
| | | 1.6.5. | Xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalar natijalari boʻyicha tahlillar oʻtkazilib va tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan |
| | | 1.6.6. | Tahlillar natijasida samaradorlik koʻrsatkichlari aniqlanib, xalqaro hamkorlik faoliyati qayta koʻrib |

| | | |
|---|---|---|
| | | chiqilgan va manfaatli yo‘nalishlarda rivojlantirilgan |
| **2. Ta’lim sifatini ta’minlash** | 2.1. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta’lim sifatini ichki ta’minlashning yo‘lga qo‘yilgani* | 2.1.1. Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo‘yicha baholash tartibi manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan va ijroga yo‘naltirilgan |
| | | 2.1.2. Ta’lim sifatini ichki ta’minlash jarayonida manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangan hamda ularning ishtirokida muntazam tadbirlar (uchrashuvlar, seminar-treninglar, muhokamalar, anjumanlar so‘rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar yoki boshqalar) o‘tkazilgan |
| | | 2.1.3. Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari asosida ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 2.1.4. Yig‘ilgan ma’lumotlar, shu jumladan manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari va (yoki) ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi, ta’lim dasturlari va ta’lim jarayoniga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan hamda muntazam takomillashtirilgan |
| | | 2.1.5. Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi takomillashtirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar oliy ta’lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e’lon qilib borilgan |
| | 2.2. Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko‘rilgani | 2.2.1. Oliy ta’lim tashkilotida ta’lim sifatini ichki ta’minlash bo‘linmasi (ichki ta’lim sifati nazorati bo‘limi, ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi) tashkil etilgan* |
| | | 2.2.2. Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo‘yicha baholash tartibi amaliyotga joriy etilgan |
| | | 2.2.3. Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi faoliyati muntazam ravishda (yillik yoki yarim yillik) monitoring qilingan hamda tahlillar asosida baholab borilgan |
| | | 2.2.4. Monitoring va tahlil natijalari OTT kengashining yig‘ilishlarida muhokama qilingan hamda jamoatchilik va manfaatdor tomonlarga yetkazilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 2.2.5. Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimini takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 2.2.6. Aniqlangan muammo va kamchiliklar chora-tadbirlar rejasiga muvofiq oʻz vaqtida bartaraf etilgan |
| | 2.3. Talabalar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning oʻquv natijalariga muvofiqligi | 2.3.1. Talabalarning bilim, koʻnikma va kompetensiyalarini baholash jarayonlari boʻyicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar (bundan buyon matnda baholash tartibi deb yuritiladi) tasdiqlangan va ta’lim dasturlaridagi kutilgan oʻquv natijalari hamda fanlarning (modullarning) maqsadlariga mosligi ta’minlangan |
| | | 2.3.2. Baholash tartibi oʻquv jarayoni boshlanishidan oldin talabalar va professor-oʻqituvchilarga ma’lum qilib borilgan |
| | | 2.3.3. Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali qoʻllanilgan hamda talabalarning bilim, koʻnikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida xolislik, shaffoflik va akademik halollik ta’minlangan |
| | | 2.3.4. Baholash natijalari raqamli platformada, talabalarning amaliyot kundaligida hamda yakuniy davlat attestatsiya (bundan buyon matnda YADA deb yuritiladi) komissiyasining baholash bayonnomalarida tizimli aks ettirilgan, yuritilgan va saqlangan |
| | | 2.3.5. Baholash jarayoni va natijalari boʻyicha talabalarning shikoyatlarini hal etish boʻyicha apellyatsiya va (yoki) qayta koʻrib chiqish mexanizmi mavjud |
| | | 2.3.6. Baholash tizimining samaradorligi doimiy monitoring qilingan hamda monitoring natijalari asosida baholash tartibi takomillashtirib borilgan |
| | 2.4. Ta’lim tashkilotida akademik halollik qoidalari belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish boʻyicha | 2.4.1. Oliy ta’lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas’uliyatga oid tartib (qoidalar) va (yoki) yoʻriqnoma(lar) mavjud |
| | | 2.4.2. Akademik halollik tamoyillari ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, oʻqitish, |

| | | |
|---|---|---|
| | samarali tizimning mavjudligi | baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilingan |
| | | 2.4.3. Akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etilgan* |
| | | 2.4.4. Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko‘rib chiqish va javobgarlik choralarini belgilash bo‘yicha shaffof tartib mavjud |
| | | 2.4.5. Talabalar va professor-o‘qituvchilar akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilgan |
| | | 2.4.6. Talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun’iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma’ruzalar) tashkil etilgan |
| | | 2.4.7. Talabalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g‘oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar himoya qilingan |
| | | 2.4.8. Akademik halollik tizimining samaradorligi doimiy tahlil qilingan hamda uni takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilgan |
| | 2.5. Bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va ish beruvchilarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari tahlil qilingani | 2.5.1. Karyera markazi yoki bitiruvchilar bilan ishlash bo‘limining faoliyati tashkil etilgan hamda uning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi ta’minlangan |
| | | 2.5.2. Mehnat bozoridagi tendensiyalar asosida talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan |
| | | 2.5.3. Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va ish joyidagi samaradorligi yuzasidan ish beruvchilardan fikr-mulohazalar olish tizimi yo‘lga qo‘yilgan* |
| | | 2.5.4. Bitiruvchilarning bandligi bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasi mavjud |

| | | |
|---|---|---|
| | | hamda uning monitoringi muntazam yuritilgan |
| | | 2.5.5. Bitiruvchilarning bandligi monitoringi natijalari tahlil qilingan hamda Boshqaruv kengashi va OTT kengashining yig‘ilishlarida muhokama qilingan va tegishli qarorlar qabul qilingan |
| | | 2.5.6. Bitiruvchilarning bandligi monitoring natijalari hamda ish beruvchilarning fikr-mulohazalari asosida o‘quv jarayoni takomillashtirilgan, kadrlar tayyorlash siyosati va qabul parametrlari qayta ko‘rib chiqilgan, shuningdek yangilangan ma’lumotlar jamoatchilikka ochiq tarzda e’lon qilingan |
| **3. Talabalar faoliyati** | 3.1. Qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mosligi* | 3.1.1. Qabul parametrlari (talabalar soni, yo‘nalishlar kesimidagi kvotalar va boshqalar) oliy ta’lim tashkilotining auditoriyalari, maxsus xonalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari, texnikaviy jihozlanishi, shuningdek ta’lim dasturlarida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatini hisobga olgan holda belgilangan* |
| | | 3.1.2. Qabul parametrlarini belgilashda axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) imkoniyatlari (sig‘imi) hisobga olingan |
| | | 3.1.3. Qabul parametrlari professor-o‘qituvchilar soni, tarkibi va ularning o‘quv (ish) yuklamasini tahlil qilish asosida belgilangan |
| | | 3.1.4. Moliyaviy imkoniyatlardan (budjet, grantlar, kontrakt tushumlari yoki boshqalar) kelib chiqqan holda qabul parametrlari shakllantirilgan |
| | | 3.1.5. Qabul parametrlari oliy ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik rejasi, missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg‘unlashtirilgan |
| | | 3.1.6. Qabul parametrlari mehnat bozori ehtiyojlari, ustuvor ta’lim yo‘nalishlari va ilmiy salohiyat bilan uyg‘un holda shakllantirilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 3.1.7. | Qabul parametrlarini bajarilish holati bo'yicha har yili tahlil amalga oshirilgan hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o'zgartirishlar kiritib borilgan |
| | 3.2. Talabalarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani* | 3.2.1. | O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi belgilangan* |
| | | 3.2.2. | O'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13 sentabrdagi 578-son "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiqligi ta'minlangan |
| | | 3.2.3. | Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlovchi raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan |
| | | 3.2.4. | Qabul jarayonida abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan va qabul jarayonining barcha bosqichlari (hujjat topshirish, kirish imtihonlarini o'tkazish va natijalarini e'lon qilish, tanlov asosida o'qishga tavsiya etilgan yoki tavsiya etilmagan abituriyentlar ro'yxatini e'lon qilish va boshqalar) ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan |
| | | 3.2.5. | Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan arizalar rasmiylashtirilgan, ko'rib chiqilgan va ularning ijrosi nazoratga olingan |
| | | 3.2.6. | Qabul jarayoni doimiy ravishda ichki nazorat va tahlil qilingan hamda ichki nazorat va tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish choralari ko'rilgan |
| | 3.3. Talabalar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishni qayta tiklash (bundan buyon | 3.3.1. | Talabalar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda ishlab chiqilgan* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | matnda talabalar harakati deb yuritiladi) jarayonlarining belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilgani* | 3.3.2. | Talabalar harakati boʻyicha buyruqlar, komissiya bayonnomalari va boshqa hujjatlar asosli, adolatli va shaffof tarzda qabul qilingan holda rasmiylashtirilgan, ular boʻyicha hisobdorlik ta’minlangan va muntazam monitoring yuritilgan |
| | | | 3.3.3. | Kursdan-kursga oʻtkazish yoki qoldirishning mezonlari aniq belgilangan hamda kursdan-kursga oʻtkazish yoki qoldirish boʻyicha qaror qabul qilishda akademik koʻrsatkichlar hisobga olingan |
| | | | 3.3.4. | Talabalar harakati boʻyicha talabalarning huquqlari ta’minlangan va jarayonlar haqida talabalar va ularning ota-onalari xabardor qilingan, shuningdek talabalar harakati boʻyicha barcha oʻzgarishlar ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarida (HEMIS, LMS) oʻz vaqtida aks ettirilgan |
| | | | 3.3.5. | Talabalar harakati boʻyicha shikoyat berish uchun ochiq va qulay tizim yaratilgan va shikoyatlarni koʻrib chiqish jarayonlari samarali tashkil etilgan |
| | 3.4. | Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ta’lim tashkilotlari bilan akademik mobillikning yoʻlga qoʻyilgani | 3.4.1. | Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ta’lim tashkilotlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish boʻyicha kelishuvlar (shartnomalar, memorandumlar va hamkorlik bitimlari) tuzilgan |
| | | | 3.4.2. | Akademik mobillik jarayonlarini tashkil etish, tanlov oʻtkazish va moliyalashtirish tartibi belgilangan |
| | | | 3.4.3. | Akademik mobillikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha tarkibiy boʻlinma tashkil etilgan va (yoki) mas’ul ijrochi(lar) belgilangan |
| | | | 3.4.4. | Akademik mobillik jarayonlari milliy va xalqaro akademik mobillik talablari asosida amalga oshirilgan |
| | | | 3.4.5. | Professor-oʻqituvchilar va talabalarning akademik mobillik loyihalarida, shu jumladan hamkorlik dasturlari asosida yoʻlga qoʻyilgan loyihalarda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 3.4.6. | Akademik mobillikda ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar va talabalar ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi, ta’lim dasturlari va o‘quv jarayonini yaxshilashga qo‘shayotgan hissasi tizimli tahlil qilingan |
| | 3.5. Ta’lim xizmatlari eksportining samarali yo‘lga qo‘yilgani | 3.5.1. | Xorijiy fuqarolarni o‘qishga qabul qilish tartibi bo‘yicha ichki hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan |
| | | 3.5.2. | Xorijiy fuqarolarni jalb qilishga qaratilgan targ‘ibot va xalqaro hamkorlik faoliyati muntazam yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 3.5.3. | Xorijiy talabalarga mo‘ljallangan ta’lim dasturlari, til kurslari yoki maxsus modul va xizmatlar (viza rasmiylashtirish, viza muddatini uzaytirish, turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish va boshqalar) tashkil etilgan |
| | | 3.5.4. | Xorijiy talabalarning yangi sharoitlarga (o‘quv jarayoni, yashash, madaniyat va boshqalar) adaptatsiya bo‘lishi bo‘yicha ular tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalar muntazam yig‘ilgan, tahlil qilingan hamda tahlil natijalari asosida o‘quv jarayoni va ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish choralari ko‘rilgan |
| | | 3.5.5. | Xorijiy investitsiyalar hisobidan ta’lim texnologiyalari, ilmiy tadqiqotlar va infratuzilma modernizatsiya qilingan |
| | | 3.5.6. | Ta’lim xizmatlari eksporti ko‘rsatkichlari, xorijiy talabalar oqimi, moliyaviy va akademik natijalar bo‘yicha yillik tahlillar amalga oshirilgan va hisobotlar yuritilgan |
| **4. O‘quv jarayonini tashkil etish** | 4.1. O‘quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani* | 4.1.1. | O‘quv jarayoni jadvali (semestrlar davomiyligi, ta’til davrlari, oraliq va yakuniy nazoratlar muddatlari va boshqalar) ishlab chiqilgan hamda o‘quv yilining boshlanishidan oldin e’lon qilingan* |
| | | 4.1.2. | O‘quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari (o‘quv jarayoni jadvali, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlar (sillabuslar), dars jadvallari va imtihonlar jadvallari) oliy ta’lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo‘linmalarining (fakultet, kafedra, bo‘lim va boshqalar) |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | yig'ilishlarida muhokamadan o'tkazilgan holda tasdiqlangan |
| | | 4.1.3. | Dars jadvallari o'quv rejadagi kreditlar (soatlar) hajmi, fanlar (modullar) ketma-ketligi, guruhlar sig'imi va professor-o'qituvchilarning o'quv (ish) yuklamasiga muvofiq shakllantirilgan hamda auditoriya va vaqt bo'yicha to'qnashuvlarga yo'l qo'yilmagan |
| | | 4.1.4. | Ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari bo'yicha haftalik va semestrlik yuklamalar taqsimoti hujjatlashtirilgan |
| | | 4.1.5. | O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari, auditoriya, laboratoriya va maxsus xonalarning bandligi hamda guruhlar kesimidagi mashg'ulotlar axborot tizimida rejalashtirilgan va onlayn monitoring mexanizmi yo'lga qo'yilgan |
| | | 4.1.6. | O'quv reja va dars jadvallariga o'quv yili davomida kiritilgan o'zgartirishlar hujjatlashtirilgan hamda professor-o'qituvchilar va talabalarga o'z vaqtida yetkazilgan |
| | 4.2. Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi* | 4.2.1. | O'quv dasturlarida (sillabuslarda) fanning (modulning) maqsadlari va vazifalari, kutilgan o'quv natijalari (learning outcomes), asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, baholash mezonlari va usullari, ta'lim texnologiyalari aniq belgilangan |
| | | 4.2.2. | Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari (o'quv dasturi (sillabus), o'qitish materiallari, shaxsiy yillik ish reja) fanning (modulning) maqsadlari va vazifalariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda oliy ta'lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalarining (fakultet, kafedra, bo'lim va boshqalar) yig'ilishlarida muhokama qilingan holda tasdiqlangan |
| | | 4.2.3. | Ishlab chiqilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar amaliyotga tatbiq etilgan hamda ushbu hujjatlarning amalda qo'llanilishi doimiy ravishda monitoring va tahlil qilingan |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 4.2.4. | Monitoring va tahlil natijasida o‘quv-me’yoriy hujjatlarni (o‘quv dasturi (sillabus), o‘qitish materiallari, shaxsiy yillik ish reja) qo‘llashda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijro etilgan hamda shu asosida o‘quv-me’yoriy hujjatlar takomillashtirib borilgan |
| | | 4.3. | Professor-o‘qituvchilarga o‘quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilganligi | 4.3.1. | Professor-o‘qituvchilarning o‘quv (ish) yuklamalari xalqaro standartlar va (yoki) professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlari va shtatlar jadvaliga muvofiq ishlab chiqilgan |
| | | | | 4.3.2. | O‘quv (ish) yuklamalari professor-o‘qituvchilar o‘rtasida ularning mutaxassisligi, ilmiy darajasi va ilmiy unvonidan kelib chiqib mutanosib ravishda taqsimlangan |
| | | | | 4.3.3. | O‘quv (ish) yuklamalarining taqsimoti barcha professor-o‘qituvchilar uchun ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan |
| | | | | 4.3.4. | O‘quv (ish) yuklamalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘quv yili boshlanishidan avval professor-o‘qituvchilarga yetkazilgan |
| | | | | 4.3.5. | Shaxsiy yillik ish rejalarida ilmiy tadqiqot olib borish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun alohida band belgilangan |
| | | 4.4. | Ta’lim dasturlarining iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib takomillashtirilgani hamda mazmunining yangilanganligi | 4.4.1. | Ta’lim dasturlari bo‘yicha muntazam monitoring va tahlil qilish mexanizmi yaratilgan hamda kutilgan o‘quv natijalariga (learning outcomes) erishish darajasi doimiy baholangan |
| | | | | 4.4.2. | Ta’lim dasturlari mehnat bozori, sanoat va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari hamda soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam qayta ko‘rib chiqilgan |
| | | | | 4.4.3. | Ta’lim dasturlari mazmuniga raqamli texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar va innovatsion yondashuvlar integratsiya qilingan |
| | | | | 4.4.4. | Ta’lim dasturlarini takomillashtirish jarayonida manfaatdor tomonlarning |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | taklif va fikr-mulohazalari o‘rganilgan va inobatga olingan |
| | | | | 4.4.5. | Ta’lim dasturlariga kiritilgan o‘zgartirishlar manfaatdor tomonlarga ochiq va shaffof tarzda yetkazilgan |
| | | 4.5. | Ta’lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilinganligi | 4.5.1. | Dars tahlillarini o‘tkazish tartibi, mezonlari va baholash ko‘rsatkichlari oliy ta’lim tashkilotining ichki hujjatlarida belgilangan |
| | | | | 4.5.2. | Rahbar kadrlar va professor-o‘qituvchilar tomonidan dars tahlillari reja-grafik asosida muntazam amalga oshirilgan |
| | | | | 4.5.3. | Dars tahlillari natijalari oliy ta’lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo‘linmalarining (fakultet, kafedra, bo‘lim va boshqalar) yig‘ilishlarida muhokama qilib borilgan |
| | | | | 4.5.4. | Dars tahlillari davomida aniqlangan muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha metodik tavsiyalar tizimli ravishda ishlab chiqilgan |
| | | | | 4.5.5. | Yosh pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida ular “ustoz-shogird” va mentorlik tizimlari asosida tajribali professor-o‘qituvchilarga biriktirilgan |
| 5. | **Inson resurslari** | 5.1. | Belgilangan talablar va me’yorlarga muvofiq ilmiy salohiyatga ega pedagog kadrlarning mavjudligi* | 5.1.1. | Professor-o‘qituvchilarning soni talabalar kontingentiga nisbatan talabalar soni nisbati normativlari va professor-o‘qituvchilarga qo‘yiladigan minimal talablar doirasida belgilangan (bunda, asosiy shtatdagi professor-o‘qituvchilar soni barcha professor-o‘qituvchilar soniga nisbatan kamida 70 foizni tashkil etadi)* |
| | | | | 5.1.2. | Oliy ta’lim tashkiloti ilmiy daraja va unvonga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlangan (bunda, asosiy shtatdagi ilmiy daraja va unvonga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar soni barcha asosiy shtatdagi professor-o‘qituvchilar soniga nisbatan bakalavriatda kamida 35 foizni va magistraturada 70 foizni tashkil etadi)* |
| | | | | 5.1.3. | Professor-o‘qituvchilar ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etgan hamda |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | ularning ilmiy ishlari va natijalari doimiy tahlil qilingan |
| | | | 5.1.4. | Oliy ta’lim tashkilotini ilmiy salohiyatga ega professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlash uchun maqsadli kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan |
| | | | 5.1.5. | Professor-o‘qituvchilar faoliyati samaradorligini baholash tizimi joriy etilgan hamda ilmiy salohiyatga ega xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va moddiy rag‘batlantirish tizimi mavjud |
| | 5.2. | Ta’lim tashkilotida pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o‘tadigan fan(lar)ga mosligi* | 5.2.1. | Professor-o‘qituvchilar ular tomonidan o‘qitiladigan (o‘qitilayotgan) fanlar (modullar) bo‘yicha tegishli oliy ma’lumot, mutaxassislik (ixtisoslik) va kasbiy tayyorgarlikka ega* |
| | | | 5.2.2. | Yangi yo‘nalishlar yoki fanlararo (modullararo) kurslarni joriy etishda tegishli soha bo‘yicha malakali mutaxassislar jalb qilingan |
| | | | 5.2.3. | Professor-o‘qituvchilarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonlarida fan (modul) profiliga moslik asosiy mezon sifatida belgilangan |
| | | | 5.2.4. | O‘quv (ish) yuklamasi professor-o‘qituvchilarning mutaxassisligi (ixtisosligi), ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi va kasbiy kompetensiyasiga muvofiq ravishda adolatli va asosli taqsimlangan |
| | | | 5.2.5. | Professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida tizimli malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan |
| | 5.3. | Ta’lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish to‘g‘ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo‘nimsizligining oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilgani | 5.3.1. | Professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlari mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik va oliy ta’lim tashkilotining ichki hujjatlari asosida amalga oshirilgan hamda ushbu jarayonlarga doir hujjatlar (tanlov hujjatlari, suhbat bayonnomalari, arizalar, buyruqlar yoki boshqalar) mavjud* |
| | | | 5.3.2. | Professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonlari ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillari hamda tanlov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | (imtihon, suhbat) asosida amalga oshirilgan |
| | | 5.3.3. | Professor-o‘qituvchilarning qo‘nimsizligi va kadrlar siyosatining samaradorligi bo‘yicha doimiy ravishda monitoring va tahlil olib borilgan, shu jumladan pedagog kadrlar tarkibidagi o‘zgarishlar dinamikasi va mehnat shartnomasini bekor qilish sabablari o‘rganilgan |
| | | 5.3.4. | Monitoring va tahlil natijalari asosida chora-tadbirlar rejasi va yillik hisobot ishlab chiqilgan hamda boshqaruv qarorlarida inobatga olingan, shuningdek chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta’minlangan |
| | | 5.3.5. | Yangi ishga qabul qilingan professor-o‘qituvchilar uchun mentorlik va adaptatsiya dasturlari mavjud |
| | 5.4. Pedagog kadrlarning belgilangan talablarga muvofiq kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani* | 5.4.1. | Professor-o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarining kasbiy rivojlanishi, shu jumladan qayta tayyorlanishi va malakasini oshirishi bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli strategiyalar va reja-jadvallar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan |
| | | 5.4.2. | Professor-o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma tashkil etilgan yoki mas’ul xodim(lar) ajratilgan |
| | | 5.4.3. | Qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 5.4.4. | Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari professor-o‘qituvchilar mutaxassisligi (ixtisosligi) va fan (modul) yo‘nalishlariga mos ravishda tashkil etilgan |
| | | 5.4.5. | Professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini baholash va monitoring qilish tizimi mavjud hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish natijalari kadrlar siyosatida inobatga olingan |
| | | 5.4.6. | Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan professor-o‘qituvchilarning ulushi oxirgi uch yilda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega |

| | | |
|---|---|---|
| | 5.5. Pedagog kadrlarning xorijda va/yoki ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishi yoki stajirovkalari tashkil etilgani | 5.5.1. Mahalliy va xorijiy ta'lim tashkilotlari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari bilan malaka oshirish va (yoki) stajirovka bo'yicha hamkorlik kelishuvlariga ega |
| | | 5.5.2. Stajirovka, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlari uchun zarur moliyaviy resurslar ajratilgan va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan |
| | | 5.5.3. Stajirovka yo'nalishlari professor-o'qituvchilar mutaxassisligi (ixtisosligi) va fan (modul) yo'nalishlariga mos ravishda tashkil etilgan* |
| | | 5.5.4. Stajirovka natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlangan hamda olingan bilim va ko'nikmalar o'quv jarayoniga joriy etilgan |
| | | 5.5.5. Stajirovka jarayonining samaradorligini baholash va monitoring qilish tizimi mavjud hamda stajirovka natijalari kadrlar siyosatida inobatga olingan |
| | | 5.5.6. Stajirovkada ishtirok etgan professor-o'qituvchilarning ulushi oxirgi uch yilda barqaror o'sish tendensiyasiga ega |
| | 5.6. Rahbar va pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI)ning yo'lga qo'yilgani hamda u asosida xodimlarning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani | 5.6.1. Rahbar va professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI) bo'yicha tartib ishlab chiqilgan va tasdiqlangan |
| | | 5.6.2. KPI tizimida o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy faoliyat yo'nalishlari qamrab olingan |
| | | 5.6.3. KPI ko'rsatkichlari va baholash mezonlari aniq belgilangan hamda baholash jarayonlari ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillari asosida amalga oshirilgan |
| | | 5.6.4. KPI tizimining samaradorligi davriy ravishda tahlil qilingan hamda tahlil natijalari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan |
| | | 5.6.5. KPI baholash natijalari bo'yicha rahbar va professor-o'qituvchilarni ochiqlik, xolislik va adolat tamoyillari asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan |
| 6. **Ilmiy-tadqiqot ishlari** | 6.1. Ta'lim tashkilotida professor-o'qituvchilarning ilmiy- | 6.1.1. Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun zarur laboratoriyalar va moddiy-texnik baza yaratilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari va xalqaro mobilligi uchun shart-sharoitlarning mavjudligi* | 6.1.2. Ilmiy faoliyatni moliyalashtirish uchun mablag‘lar (xalqaro va mahalliy grantlar, budjet, donorlik yordamlari yoki boshqalar) jalb qilingan |
| | | 6.1.3. Professor-o‘qituvchilar xalqaro ilmiy loyihalar va grantlarda ishtirok etgan |
| | | 6.1.4. Xalqaro mobillik dasturlari orqali xorijiy stajirovka imkoniyatlari yaratilgan |
| | | 6.1.5. Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha tartib va mexanizmlar mavjud |
| | | 6.1.6. Ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha yillik hisobotlar tayyorlangan |
| | | 6.1.7. Ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari tahlil qilingan hamda ilmiy faoliyatni rivojlantirish choralari belgilangan |
| | | 6.1.8. Talabalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalar, innovatsion g‘oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar himoya qilingan |
| | 6.2. Ilmiy-noshirlik faoliyatida ko‘chirmachilikni aniqlash bo‘yicha axborot tizimining joriy etilgani hamda doimiy hisobotlarning yuritilishi | 6.2.1. Ilmiy-noshirlik faoliyatida antiplagiat tizimi joriy etilgan* |
| | | 6.2.2. Ko‘chirmachilikni aniqlash bo‘yicha ichki tartib (yo‘riqnoma) ishlab chiqilgan va tasdiqlangan |
| | | 6.2.3. Barcha dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va tezislarni antiplagiat tizimi orqali tekshirish yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 6.2.4. Tekshiruv natijalari bo‘yicha hisobotlar shakllantirilgan hamda ma’lumotlar bazasi yuritilgan |
| | | 6.2.5. Plagiat holatlarini tahlil qilish va oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi mavjud |
| | | 6.2.6. Ilmiy ishlarning o‘rtacha o‘xshashlik foizi va tendensiyalari bo‘yicha yillik hisobotlari tayyorlangan |
| | 6.3. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik va amaliy anjumanlarning (bundan buyon matnda amaliy anjuman deb yuritiladi) o‘tkazilgani | 6.3.1. Oliy ta’lim tashkiloti tomonidan yillik reja asosida amaliy anjumanlar tashkil etilgan |
| | | 6.3.2. Amaliy anjumanlar oliy ta’lim tashkilotining ustuvor ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlariga mos ravishda o‘tkazilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 6.3.3. Amaliy anjumanlarda talabalar, ilmiy izlanuvchilar, professor-o‘qituvchilar, xodimlar, hamkor mahalliy va xorijiy tashkilotlar ishtirok etgan |
| | | 6.3.4. Amaliy anjuman materiallari (tezislar, maqolalar to‘plamlari yoki boshqalar) nashr etilgan |
| | | 6.3.5. Amaliy anjumanlar natijasida ilmiy hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha kelishuvlar (memorandumlar, shartnomalar, qo‘shma loyihalar yoki boshqalar) amalga oshirilgan |
| | | 6.3.6. Amaliy anjumanlar faoliyati oliy ta’lim tashkilotining veb-sayti va ommaviy axborot vositalari orqali yoritilgan |
| | | 6.3.7. Oliy ta’lim tashkilotining faoliyati samaradorligiga amaliy anjumanlarning ta’siri tahlil qilingan va hisobot yuritilgan |
| | 6.4. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani | 6.4.1. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik bo‘yicha kelishuvlar (shartnomalar) imzolangan va ularning amal qilish muddatlari tasdiqlangan |
| | | 6.4.2. Hamkor tashkilotlar, korxonalar va muassasalar ishtirokida amalga oshirilgan (oshirilayotgan) ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar mavjud |
| | | 6.4.3. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari asosida ilmiy yechimlar va texnologiyalar ishlab chiqarish va (yoki) o‘quv jarayonlariga joriy etilgan |
| | | 6.4.4. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini ishlab chiqarish va (yoki) o‘quv jarayonlariga tatbiq etish bo‘yicha dalolatnomalar, bayonnomalar yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatlar mavjud |
| | | 6.4.5. Ishlab chiqarish va (yoki) o‘quv jarayonlariga tatbiq qilingan ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining iqtisodiy, texnologik yoki ijtimoiy samaradorligi bo‘yicha tahlillar olib borilgan va hisobotlar yuritilgan |
| | 6.5. Mahalliy hamda xalqaro axborot va ma’lumotlar | 6.5.1. Oliy ta’lim tashkilotida indeksatsiyalangan ma’lumotlar |

| | | |
|---|---|---|
| | bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) (bundan buyon matnda indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari deb yuritiladi) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani | bazalaridan foydalanish imkoniyati mavjud* |
| | | 6.5.2. Axborot resurslaridan, shu jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar (yo'riqnomalar) ishlab chiqilgan hamda o'quv-seminarlar va treninglar o'tkazilgan |
| | | 6.5.3. Talabalar, ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar uchun indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati (IP manzil, login, korporativ akkaunt yoki boshqalar) yaratilgan |
| | | 6.5.4. Ilmiy maqolalar indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalarida chop etilgan hamda chop etilgan ilmiy maqolalar va ularga iqtiboslik ko'rsatkichlari bo'yicha talabalar, ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar kesimida tahlillar yuritilgan |
| | | 6.5.5. Ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkich "Xirsh" indeksi (h-indeks) besh va undan yuqori bo'lgan ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar bo'yicha tahlillar yuritilgan hamda ularni moddiy rag'batlantirib borish tizimi joriy etilgan |
| | | 6.5.6. Axborot resurslaridan, shu jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha tahlil olib borilgan va hisobotlar yuritilgan |
| | 6.6. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining muntazam monitoring qilib borilgani | 6.6.1. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini tahlil qilish va umumiylashtirish bo'yicha oliy ta'lim tashkilotida mas'ul tarkibiy bo'linma yoki ishchi guruhning faoliyati yo'lga qo'yilgan |
| | | 6.6.2. Ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari belgilangan |
| | | 6.6.3. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini raqamli tahlil qilish va monitoring qilish uchun maxsus axborot tizimlaridan foydalanilgan |
| | | 6.6.4. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari bo'yicha tahliliy hisobotlar va statistik ma'lumotlar tayyorlab borilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 6.6.5. | Ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun patent, ijodiy (jumladan, san’at yo‘nalishida) ishlarga olingan mualliflik guvohnomalari hamda elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur yoki ma’lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar mavjud |
| | | 6.6.6. | Ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijalari bo‘yicha OTT kengashida muntazam muhokamalar o‘tkazilgan |
| | 6.7. Talabalarning startap loyihalari va ratsionalizatorlik g‘oyalari bilan respublika va xalqaro ilmiy dasturlarda ishtiroki hamda ularning natijadorligi | 6.7.1. | Talabalarning startap loyihalari va ratsionalizatorlik g‘oyalari uchun tanlovlar, akseleratsiya dasturlari va inkubatsiya jarayonlari tashkil etilgan |
| | | 6.7.2. | Talabalarning startaplari va ratsionalizatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlovchi ichki mexanizmlar (grant, moddiy yordam, maslahatchilik, mentorlik yoki boshqalar) yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 6.7.3. | Talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv-seminarlar, treninglar va master-klasslar o‘tkazilgan |
| | | 6.7.4. | Talabalar respublika va xalqaro ilmiy tanlov, grant yoki startap dasturlarida ishtirok etgan |
| | | 6.7.5. | Talabalarning innovatsion g‘oyalari va startap loyihalari oliy ta’lim tashkilotining veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida yoritilib borilgan |
| | | 6.7.6. | Respublika va xalqaro ilmiy tanlov, grant yoki startap dasturlaridagi talabalar ishtirokining natijadorligi bo‘yicha tahliliy hisobotlar va samaradorlik ko‘rsatkichlari (yillar va ta’lim dasturlari kesimida loyihalar, ishtirokchilar va g‘oliblar soni, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, joriy etilgan yechimlar va boshqalar) mavjud |
| | 6.8. Ta’lim tashkiloti talaba va professor-o‘qituvchilarining ilmiy va ilmiy-texnik faoliyati natijalarining tijoratlashtirilgani | 6.8.1. | Ilmiy-tadqiqot ishlari, shu jumladan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha ichki tartib (reglament) mavjud |
| | | 6.8.2. | Oliy ta’lim tashkilotida tijoratlashtirish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma (texnologiya transferi markazi, innovatsiya bo‘limi) |

| | | |
|---|---|---|
| | | tashkil etilgan yoki mas’ul xodim(lar) ajratilgan |
| | | 6.8.3. Ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha tuzilgan tijorat kelishuvlari (shartnomalari) mavjud |
| | | 6.8.4. Tijoratlashtirishdan olingan moliyaviy tushumlar haqida hisobotlar yuritilgan |
| | | 6.8.5. Tijoratlashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ro‘yxati va ularning iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha tahlillar yuritilgan |
| 7. **Talabalarni qo‘llab-quvvatlash** | 7.1. Ta’lim xizmatlari yuzasidan talabalar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko‘rilgani* | 7.1.1. Talabalarning fikr-mulohazalarini o‘rganish bo‘yicha ichki tartib (yo‘riqnoma) hamda talabalarning ta’lim sifati va yaratilgan sharoitlardan qoniqishi darajasini baholash bo‘yicha so‘rovnoma (anketa) shakli va metodologiyasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan |
| | | 7.1.2. Talabalarning fikr-mulohazalarini o‘rganish bo‘yicha so‘rovnomalar (intervyular, muhokamalar va talabalar fikrini o‘rganishga qaratilgan boshqa tadbirlar) muntazam (kamida har semestrda bir marotaba) o‘tkazilgan |
| | | 7.1.3. Talabalarning fikr-mulohazalarini yig‘ish bo‘yicha monitoring tizimi (onlayn anketa platformasi) mavjud |
| | | 7.1.4. Talabalarning fikr-mulohazalarini o‘rganish natijalari oliy ta’lim tashkilotining tegishli tarkibiy bo‘linmalarining (fakultet, kafedra, bo‘lim va boshqalar) yig‘ilishlarida muhokama qilingan hamda o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 7.1.5. Talabalarning fikr-mulohazalarini o‘rganish natijalari o‘quv jarayonini takomillashtirishda inobatga olingan hamda chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta’minlangan |
| | | 7.1.6. Talabalarning fikr-mulohazalarini o‘rganish natijalari oliy ta’lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ichki axborot tizimida e’lon qilingan |
| | 7.2. Talabalarga yetarli darajada ta’lim olish va qo‘llab-quvvatlash | 7.2.1. Talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maslahat berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | bo‘yicha maslahat berish hamda karyera xizmatlarining tashkil etilgani | 7.2.2. Talabalarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tarkibiy bo‘linma tashkil etilgan yoki mas’ul xodimlar ajratilgan |
| | | 7.2.3. Karera markazi (bitiruvchilar bilan ishlash bo‘limi) faoliyati samarali tashkil etilgan hamda talabalar bandligini ta’minlash bo‘yicha faoliyat yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 7.2.4. Talabalarning bandligini ta’minlash maqsadida karyera yarmarkalari, ish beruvchilar bilan uchrashuvlar va mahorat darslari muntazam o‘tkazilgan |
| | | 7.2.5. Psixologik va karyera xizmatlari samaradorligini oshirish uchun takliflar ishlab chiqilgan hamda amaliy choralar ko‘rilgan |
| | 7.3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani | 7.3.1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash (rag‘batlantirish) mexanizmlari ishlab chiqilgan |
| | | 7.3.2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarning ro‘yxatlari shakllantirilgan hamda ular uchun individual ta’lim trayektoriyalari ishlab chiqilgan |
| | | 7.3.3. Talabaning o‘z iqtidorini ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar (stipendiyalar, grantlar, tanlovlar va boshqalar) yaratilgan hamda iqtidorli talabalarni saralash, qo‘llab-quvvatlash va e’tirof etishda ochiqlik, shaffoflik va adolat tamoyillariga amal qilingan |
| | | 7.3.4. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi monitoring qilingan, shuningdek monitoring natijalari va talabalarning ehtiyojlari (takliflari) asosida ushbu mexanizmlar takomillashtirilgan |
| | | 7.3.5. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalar oliy ta’lim tashkilotining talabalar turar joy(lar)iga joylashtirilgan |
| | | 7.3.6. Talabalar turar joyida tarbiyaviy, madaniy va psixologik qo‘llab- |

| | | |
|---|---|---|
| | | quvvatlash tadbirlari hamda talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha faoliyat yo‘lga qo‘yilgan |
| | 7.4. Yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilgani | 7.4.1. Yoshlar siyosati va tarbiya ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha ichki tartib mavjud |
| | | 7.4.2. Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha tarkibiy bo‘linma tashkil etilgan va (yoki) mas’ul xodimlar (kurator, tyutor, psixolog, huquqshunos yoki boshqalar) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 7.4.3. Talabalar uchun huquqiy ong va madaniyatni oshirish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilib borilgan |
| | | 7.4.4. Talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sport musobaqalari va madaniy-ma’rifiy tadbirlar orqali ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ishlari yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 7.4.5. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birga talabalar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish bo‘yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilgan |
| | | 7.4.6. Huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi talabalar bilan individual profilaktik ishlar olib borilgan hamda ularning natijadorligi tahlil qilingan va hisobotlar yuritilgan |
| | | 7.4.7. Yoshlar bilan ishlash, shu jumladan huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi talabalar bilan ishlash samaradorligi bo‘yicha natijalarga erishgan tyutorlar rag‘batlantirib borilgan |
| | 7.5. Talabalar huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibining mavjudligi | 7.5.1. Talabalarning huquqlarini himoya qilish hamda ularning ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ichki tartib mavjud |
| | | 7.5.2. Ariza va shikoyatlar talabalar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali (qutilar, elektron vositalar, psixolog, mas’ul shaxs, ishonch telefoni yoki boshqalar) qabul qilib borilgan |
| | | 7.5.3. Ariza va shikoyatlar belgilangan muddatlar va tartibga qat’iy rioya |

| | | |
|---|---|---|
| | | qilgan holda ochiqlik, hisobdorlik va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga asosan ko‘rib chiqilgan |
| | | 7.5.4. Ariza va shikoyatlar ro‘yxati yuritilgan, ularni ko‘rib chiqish muddatlari belgilangan hamda ko‘rib chiqish jarayonlari hujjatlashtirilgan |
| | | 7.5.5. Ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish natijalari tahlil qilingan hamda talabalarning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilgan |
| 8. **Moddiy-texnik ta’minot** | 8.1. Ta’lim dasturi/shakllari xususiyatidan kelib chiqib o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun talabalar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta’minot bilan ta’minlanganligi* | 8.1.1. Oliy ta’lim tashkilotining umumiy maydoni talabalarning kontingenti hisobga olingan holda bino va inshootlar, auditoriyalar, maxsus xonalar, laboratoriyalar, amaliy mashg‘ulot xonalari, amaliyot bazalari, axborot resurs markazi va boshqa infratuzilmalar bilan ta’minlangan |
| | | 8.1.2. Oliy ta’lim tashkilotining bino va inshootlari va moddiy-texnik bazasi mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong‘in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi |
| | | 8.1.3. Ta’lim dasturidan kelib chiqqan holda laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlari talabalarning amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, musiqa asboblari, texnik vositalar, reagentlar, xomashyo materiallari yoki boshqa vositalar bilan ta’minlangan* |
| | | 8.1.4. Talabalar va professor-o‘qituvchilarning elektron ta’lim platformalari (LMS, Zoom, Moodle, Google Classroom va boshqalar) hamda dasturiy ta’minotga kirish imkoniyati mavjud |
| | | 8.1.5. Ta’lim jarayonlari uchun zarur bo‘lgan amaliyot bazalari, laboratoriyalari va ustaxona moddiy-texnik baza, jihozlar va asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish yoki yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi |

| | | |
|---|---|---|
| | | (yillik reja) ishlab chiqilgan va ijro etilgan |
| | | 8.1.6. Infratuzilma va uni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha moliyaviy hisobotlar mavjud |
| | | 8.1.7. Oliy ta’lim tashkilotining talabalar turar joy(lar)i mavjud hamda uning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan |
| | 8.2. Ta’lim jarayonlari uchun zarur bo‘lgan amaliyot bazalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta’lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgani | 8.2.1. Amaliyot o‘tish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilma (laboratoriyalar, maxsus xonalar, amaliyot xonalari, amaliyot bazalari) mavjud va faoliyat ko‘rsatadi |
| | | 8.2.2. Ta’lim dasturiga mos laboratoriya, maxsus xonalar, amaliyot xonalari va amaliyot bazalari tashkil etilgan hamda zarur jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta’minlangan |
| | | 8.2.3. Laboratoriya, maxsus xonalar va amaliyot xonalaridagi jihozlar va asbob-uskunalar ishchi holatida hamda ularni yangilash va kalibrovka qilish bo‘yicha rejali ishlar amalga oshirilgan |
| | | 8.2.4. Sanoat hamkorlari va boshqa ta’lim tashkilotlarining bazalaridan foydalanish bo‘yicha hamkorlik kelishuvlari mavjud hamda ushbu tashkilotlarda talabalar uchun mashg‘ulotlar va amaliyotlar tashkil etilgan |
| | | 8.2.5. Amaliyot bazalaridan foydalanish tartibi va rejasi ishlab chiqilgan hamda amalga oshirilishi doimiy monitoring qilib borilgan |
| | | 8.2.6. Talabalar uchun tashkilotlar, korxonalar va muassasalarda amaliyotlar tashkil etilgan hamda ularda ishtirok etish natijalari bo‘yicha hisobot yuritish tizimi yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 8.2.7. Amaliyotlar natijalari tahlil qilingan, ular asosida o‘quv jarayoni hamda o‘quv dasturlarini takomillashtirish choralari ko‘rilgan |
| | 8.3. Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) talabalar kontingentiga | 8.3.1. Oliy ta’lim tashkiloti talabalar kontingentidan kelib chiqqan holda fanlar (modullar) bo‘yicha asosiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlangan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | mos o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi | 8.3.2. | ARMning fondi tarkibi va undan foydalanish ko'rsatkichlari, shu jumladan kitoblar sonining (elektron manbalarning) talabalar soniga nisbati o'quv-metodik ta'minotga qo'yiladigan minimal talablarga mos keladi* |
| | | 8.3.3. | Talabalar, ilmiy izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar uchun elektron kutubxona va raqamli ta'lim resurslari, shu jumladan xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan |
| | | 8.3.4. | ARM zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlar, internet, elektron katalog, elektron qurilmalar yoki boshqalar) bilan jihozlangan, internet tarmog'iga ulanish imkoniyati yaratilgan hamda ulardan foydalanish bo'yicha talabalarga tushuntirishlar berilgan |
| | | 8.3.5. | Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondida ta'lim dasturlari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanma va adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlar raqamli formatda joylashtirilgan |
| | | 8.3.6. | ARM sohaviy ilmiy nashrlar va jurnallar bilan ta'minlangan hamda elektron katalog va onlayn foydalanish tizimi yaratilgan va muntazam yangilangan |
| | | 8.3.7. | ARM xizmatlari va elektron resurslardan foydalanish samaradorligi bo'yicha monitoring va foydalanuvchilar statistikasi yuritilgan va tahlil qilib borilgan |
| | 8.4. Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani | 8.4.1. | Oliy ta'lim tashkilotining binolari va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, eshiklar va sanitariya xonalari (hojatxonalar) nogironligi bo'lgan shaxslar (talabalar) uchun moslashtirilgan |
| | | 8.4.2. | Ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), ergonomik o'rindiqlar, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud |

| | | |
|---|---|---|
| | | 8.4.3. Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl alifbosi, subtitr, ekran oʻquvchi tizimlar yoki boshqalar) yaratilgan |
| | | 8.4.4. Inklyuziv ta'lim metodikasi boʻyicha tayyorlangan va zarur koʻnikmalarga ega pedagog(lar) va (yoki) psixolog mavjud hamda individual ta'lim trayektoriyalari ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan |
| | | 8.4.5. Inklyuziv ta'lim sharoitlarining amalda qoʻllanishi va samaradorligi boʻyicha monitoring yuritilgan |
| | 8.5. Oʻquv va laboratoriya xonalarida jihozlarning tegishli xavfsizlik qoidalari hamda oʻqitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani | 8.5.1. Oʻquv, laboratoriya, maxsus va amaliyot xonalarida jihozlar va asbob-uskunalarning joylashuvi oʻquv mashgʻulotlarining mazmuni, amaliyot jarayonlari va ergonomika me'yorlariga mos |
| | | 8.5.2. Oʻquv, laboratoriya, maxsus va amaliyot xonalarida jihozlar va asbob-uskunalar, mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yongʻin va texnika xavfsizligi qoidalariga mos ravishda joylashtirilgan |
| | | 8.5.3. Oʻquv, laboratoriya, maxsus va amaliyot xonalari shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq isitish, shamollatish, konditsiyalashtirish va yoritish tizimlari bilan ta'minlangan |
| | | 8.5.4. Oʻquv, laboratoriya, maxsus va amaliyot xonalarida erkin harakatlanish ta'minlangan hamda favqulodda holatlarda evakuatsiya chiqish yoʻllari belgilangan |
| | | 8.5.5. Xavfsizlik qoidalariga amal qilinishi boʻyicha muntazam tekshiruvlar va profilaktika tadbirlari oʻtkazilgan |
| | 8.6. Oʻquv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va raqamli ta'lim muhiti yaratilgani | 8.6.1. Oʻquv xonalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan |
| | | 8.6.2. Raqamli ta'lim muhiti (LMS, sun'iy intellekt, VR tizimlari, elektron jurnal, |

| | | |
|---|---|---|
| | | elektron kutubxona, raqamli o'quv resurslari yoki boshqalar) joriy etilgan va o'quv jarayonida faol qo'llanilgan |
| | | 8.6.3. Professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayonida raqamli ta'lim muhitidan, shu jumladan elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari va interaktiv uskunalardan samarali foydalanilgan |
| | | 8.6.4. Onlayn darslar va videokonferensiyalar uchun texnik sharoitlar yaratilgan |
| | | 8.6.5. Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish talablari ta'minlangan |
| | | 8.6.6. O'quv binolari va talabalar turar joylarida barqaror va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i ta'minlangan hamda Wi-Fi zonalari tashkil etilgan |
| | 8.7. Ta'lim tashkilotida talabalar kontingentiga mos bufet/oshxona, o'rindiqlar va sport maydonlarining mavjudligi | 8.7.1. Oliy ta'lim tashkilotida, shu jumladan talabalar turar joy(lar)ida talabalar kontingentiga mos ravishda bufet (oshxona) mavjud hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq yuritilgan, shuningdek bufetda (oshxonada) sog'lom ovqatlanishga oid tavsiyalar va ratsional menyu yo'lga qo'yilgan |
| | | 8.7.2. Oliy ta'lim tashkilotida, shu jumladan talabalar turar joyi(lar)ida talabalar kontingentidan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog'lomlashtirish inshootlari mavjud |
| | | 8.7.3. Sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog'lomlashtirish inshootlari doimiy faoliyat ko'rsatadi, ularning jihozlari texnik jihatdan soz holda saqlangan va yangilab borilgan |
| | | 8.7.4. Dam olish va suhbatlashish uchun qulay joylar (yoritilgan ochiq maydonlar, ayvonlar, o'rindiqlar, yopiq xonalar) tashkil etilgan |
| | | 8.7.5. Talabalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar tizimi yo'lga qo'yilgan |

## Ilova 2. Kasbiy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish yo‘nalishlari, mezonlari va indikatorlari

Kasbiy ta’lim tashkilotlari kompleks davlat akkreditatsiyasi doirasida 7 ta yo‘nalish, 37 ta mezon va 203 ta indikator bo‘yicha baholanadi.

Majburiy mezonlar va indikatorlar yulduzcha (*) bilan belgilangan.

| Yo‘nalish | Mezon | Indikator |
|---|---|---|
| **1. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati** | 1.1. Ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani | 1.1.1. Kasbiy ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik rejasi, missiyasi, strategiyasi) (bundan buyon matnda rivojlantirish rejasi deb yuritiladi) tasdiqlangan hamda unda kasbiy ta’lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas’ul ijrochilar belgilangan* |
| | | 1.1.2. Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun kasbiy ta’lim tashkilotidagi barcha tarkibiy bo‘linmalarning (kafedralarning, bo‘limlarning) tizimli ravishda yillik ish rejalari ishlab chiqilgan |
| | | 1.1.3. Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan hamda ularning taqsimoti rivojlantirish rejasidagi maqsadlar va vazifalar bilan uyg‘unlashtirilgan |
| | | 1.1.4. Rivojlantirish rejasining monitoringi va tahlili natijalari hamda pedagoglar, o‘quvchilar, bitiruvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari, shuningdek ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) taklif va fikr-mulohazalari o‘rganilgan, shuningdek ular asosida rivojlantirish rejasini takomillashtirish choralari ko‘rilgan |
| | | 1.1.5. Rivojlantirish rejasining ijrosi hamda natijalari ochiq va shaffof tarzda jamoatchilikka e’lon qilib borilgan |
| | 1.2. Ta’lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta’lim sifatini ta’minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilgani | 1.2.1. Kasbiy ta’lim tashkilotining faoliyatini samarali tashkil etish va ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida rivojlantirish rejasiga muvofiq moliyaviy resurslarni maqsadli boshqarish va taqsimlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 1.2.2. Moliyaviy resurslar o‘quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish hamda moddiy-texnik baza va infratuzilmani rivojlantirish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | maqsadlariga muvofiq ravishda taqsimlangan |
| | | 1.2.3. | Moliyaviy boshqaruv jarayoni yo'lga qo'yilgan hamda yillik moliyaviy reja tasdiqlangan va ijrosi amalga oshirilgan |
| | | 1.2.4. | Yillik moliyaviy rejada ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan mablag'lar maqsadli va samarali sarflangan |
| | | 1.2.5. | Moliyaviy resurslardan foydalanish va yillik moliyaviy rejaning ijrosi bo'yicha muntazam monitoring va tahlil amalga oshirilgan hamda bu yuzasidan qarorlar monitoring va tahlil natijalari asosida qabul qilingan |
| | 1.3. Ta'lim tashkilotining pedagogik (vasiylik) kengashi faoliyati va uning samaradorligi | 1.3.1. | Pedagogik (vasiylik) kengashning ish rejasi va nizomi, shu jumladan vakolatlari, vazifalari va ish yuritish tartibi tasdiqlangan |
| | | 1.3.2. | Pedagogik (vasiylik) kengashning yig'ilishlari muntazam o'tkazilgan hamda yig'ilish qarorlari asosida chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan va ularning ijrosi nazorat qilingan |
| | | 1.3.3. | Pedagogik (vasiylik) kengash qarorlarini qabul qilishda manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan |
| | | 1.3.4. | Pedagogik (vasiylik) kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslardan samarali va maqsadli foydalanish hamda kasbiy ta'lim tashkilotini rivojlantirish maqsadlari uchun yo'naltirilgan |
| | | 1.3.5. | Pedagogik (vasiylik) kengash faoliyatiga oid ma'lumotlar ochiqlik, hisobdorlik va shaffoflik tamoyillariga muvofiq jamoatchilikka taqdim etib borilgan |
| | 1.4. Ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining | 1.4.1. | Kasbiy ta'lim tashkilotida axborot tizimi (EMIS PT, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi yoki boshqalar) joriy etilgan* |
| | | 1.4.2. | Axborot tizimida o'quvchilar va pedagoglarga oid ma'lumotlar, shuningdek o'quv mashg'ulotlari (dars) jadvali, baholash va o'quvchilar davomati bo'yicha ma'lumotlarni yuritish imkoniyati mavjud |
| | | 1.4.3. | O'zaro ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi, Oliy ta'lim, fan va |

| | | |
|---|---|---|
| | axborot tizimlariga integratsiya qilingani | innovatsiyalar vazirligi va uning huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan |
| | | 1.4.4. Axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari tizimli ravishda ko'rilgan hamda axborot tizimida foydalanuvchilarning samarali va qulay ishlay olishi ta'minlangan |
| | | 1.4.5. Axborot tizimidagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi ta'minlangan hamda axborot tizimi o'z vaqtida yangilanib borilgan va monitoring yuritilgan, shuningdek ushbu ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan |
| | | 1.4.6. Tayyorlangan hisobotlar pedagogik (vasiylik) kengashning yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni tuzatish choralari ko'rilgan |
| **2. Ta'lim sifatini ta'minlash** | 2.1. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani | 2.1.1. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash jarayonida manfaatdor tomonlar ishtiroki ta'minlangan hamda ularning ishtirokida muntazam tadbirlar (uchrashuvlar, seminar-treninglar, muhokamalar, anjumanlar, so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar yoki boshqalar) o'tkazilgan |
| | | 2.1.2. Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 2.1.3. Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda hamda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi muntazam takomillashtirilgan |
| | | 2.1.4. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi takomillashtirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar kasbiy ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e'lon qilib borilgan |
| | 2.2. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish | 2.2.1. Kasbiy ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi rasmiylashtirilgan (ichki baholash tartibi ishlab chiqilgan) hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash bo'linmasi tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan* |
| | | 2.2.2. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini ichki baholash tartibi amaliyotga joriy etilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | choralarining ko'rilgani | 2.2.3. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimining samaradorligi doimiy ravishda monitoring qilingan va davriy (yarim yillik va yillik) tahlillar asosida baholab borilgan |
| | | 2.2.4. Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 2.2.5. Aniqlangan muammo va kamchiliklar chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o'z vaqtida bartaraf etib borilgan |
| | | 2.2.6. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi doimiy ravishda ichki baholashdan o'tkazilgan, ichki baholash natijalari pedagogik (vasiylik) kengashning yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga o'z vaqtida va to'liq taqdim etib borilgan |
| | 2.3. O'quvchilar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi | 2.3.1. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonlari bo'yicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar (bundan buyon matnda baholash tartibi deb yuritiladi) ishlab chiqilgan hamda ta'lim dasturlaridagi kutilgan o'quv natijalari (learning outcomes) va fanlarning (modullarning) maqsadlariga mosligi ta'minlangan |
| | | 2.3.2. Baholash tartibi o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'quvchilarga ma'lum qilib borilgan |
| | | 2.3.3. Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali va doimiy qo'llanilgan hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida xolislik, shaffoflik va akademik halollik ta'minlangan |
| | | 2.3.4. Baholash natijalari raqamli platformalar, o'quvchilarning amaliyot kundaligi, yakuniy davlat attestatsiya (bundan buyon matnda YADA deb yuritiladi) komissiyasining baholash bayonnomalarida tizimli ravishda aks ettirilgan, yuritilgan hamda saqlangan |
| | | 2.3.5. Baholash jarayoni va natijalari bo'yicha o'quvchilarning shikoyatlari kasbiy ta'lim tashkilotining apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan va tizimli ravishda tahlil qilingan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 2.3.6. Shikoyatlar tahlili natijalari bo‘yicha hisobotlar muntazam tayyorlangan va baholash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan, shuningdek baholash tartibi va mezonlariga zarur o‘zgartirishlar kiritib borilgan |
| | 2.4. Bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va ish beruvchilarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari muntazam ravishda tahlil qilingani | 2.4.1. Karera markazi yoki bitiruvchilar bilan ishlash bo‘linmasi faoliyat yuritadi hamda uning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi ta’minlangan |
| | | 2.4.2. Mehnat bozoridagi tendensiyalar asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan |
| | | 2.4.3. Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va ish joyidagi samaradorligi yuzasidan ish beruvchilardan taklif va fikr-mulohazalar olish tizimi yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 2.4.4. Bitiruvchilarning bandligi bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasi mavjud hamda bitiruvchilarning bandligi bo‘yicha monitoring muntazam yuritilgan |
| | | 2.4.5. Bitiruvchilarning bandligi bo‘yicha monitoring natijalari tahlil qilingan, pedagogik (vasiylik) kengashning yig‘ilishlarida muhokama qilinib, qarorlar qabul qilingan, shuningdek ushbu tahlillar asosida rivojlantirish rejasi takomillashtirib borilgan |
| | | 2.4.6. Bitiruvchilarning bandligi bo‘yicha monitoring natijalari hamda ish beruvchilarning taklif va fikr-mulohazalari asosida o‘quv jarayoni tizimli ravishda takomillashtirilgan hamda qabul parametrlari qayta ko‘rib chiqilgan |
| **3. O‘quvchilar faoliyati** | 3.1. Qabul parametrlarining ta’lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi | 3.1.1. Qabul parametrlari kasbiy ta’lim tashkilotining infratuzilmasi, moliyaviy imkoniyatlari, auditoriya va laboratoriya xonalari, amaliyot bazalari, davlat ta’lim standartlari va kasbiy ta’limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatoriga mos ravishda belgilangan* |
| | | 3.1.2. Qabul parametrlari tegishli hududning mehnat bozori, rivojlantirish rejasi, pedagoglarning soni va tarkibi, ularning o‘quv (ish) yuklamasi bilan uyg‘unlashtirilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 3.1.3. Qabul parametrlarining bajarilish holati bo‘yicha har yili tahlillar amalga oshirilgan hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o‘zgartirishlar kiritib borilgan |
| | 3.2. O‘quvchilarni o‘qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to‘g‘ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani | 3.2.1. O‘qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyati belgilangan |
| | | 3.2.2. O‘qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari va baholash usullari bilan bog‘liq ma’lumotlarning ochiqligi ta’minlangan |
| | | 3.2.3. Qabul jarayonida abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan va qabul jarayonining barcha bosqichlari (hujjat topshirish, kirish imtihonlarini o‘tkazish va natijalarini e’lon qilish, tanlov asosida o‘qishga tavsiya etilgan yoki tavsiya etilmagan abituriyentlar ro‘yxatini e’lon qilish va boshqalar) ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan |
| | | 3.2.4. Qabul natijalari bo‘yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan ariza va shikoyatlar rasmiylashtirilgan, ko‘rib chiqilgan va ularning ijrosi nazoratga olingan |
| | | 3.2.5. Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kamaytirish va qabul jarayonida xolislikni ta’minlashga qaratilgan raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan |
| | | 3.2.6. Qabul jarayoni doimiy ravishda ichki nazorat va tahlil qilinadi hamda ichki nazorat va tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish choralari ko‘rilgan |
| | 3.3. O‘quvchilar o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishni qayta tiklash (bundan buyon matnda o‘quvchilar harakati deb yuritiladi) jarayonlarining belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilgani | 3.3.1. O‘quvchilar harakati kasbiy ta’lim tashkilotiga o‘qishga qabul qilish, o‘qishni ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshirilgan hamda o‘quvchilar harakatini amalga oshirish bo‘yicha mas’ul komissiya (yoki ishchi guruh) tashkil etilgan* |
| | | 3.3.2. O‘quvchilar harakati bo‘yicha buyruqlar, komissiya bayonnomalari va boshqa tegishli hujjatlar asosli, adolatli va shaffof tarzda qabul qilingan holda to‘g‘ri rasmiylashtirilgan hamda ularning hisoboti va monitoringi muntazam yuritilgan |
| | | 3.3.3. Kursdan-kursga o‘tkazish yoki qoldirishning mezonlari aniq belgilangan hamda kursdan-kursga o‘tkazish yoki qoldirish bo‘yicha qaror |

| | | |
|---|---|---|
| | | qabul qilishda akademik ko'rsatkichlar ham hisobga olingan |
| | | 3.3.4. O'quvchilar harakati bo'yicha o'quvchilarning huquqlari ta'minlangan va jarayonlar haqida o'quvchilar va ularning ota-onalari xabardor qilingan, shuningdek o'quvchilar harakati bo'yicha barcha o'zgarishlar ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarida (EMIS PT) o'z vaqtida va to'liq aks ettirilgan |
| | | 3.3.5. O'quvchilar harakati bo'yicha shikoyat berish uchun ochiq va qulay tizim yaratilgan va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonlari samarali tashkil etilgan |
| | 3.4. O'quvchilarning respublika va xalqaro olimpiadalar, tanlovlar, musobaqalarda (bundan buyon matnda tanlovlar deb yuritiladi) ishtirok etgani va ularda sovrindor bo'lgan o'quvchilarning rag'batlantirilgani | 3.4.1. O'quvchilarning tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi mavjud |
| | | 3.4.2. O'quvchilarning tanlovlardagi ishtirokini muvofiqlashtirish uchun bo'linma tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan |
| | | 3.4.3. O'quvchilarni tanlovlarga tayyorlash bo'yicha to'garaklar yoki maxsus kurslar tashkil etilgan |
| | | 3.4.4. O'quvchilarning tanlovlardagi ishtiroki bo'yicha monitoring yuritilgan, shuningdek tanlovlarda qatnashgan o'quvchilarning ro'yxati va ularning natijalari qayd etib borilgan |
| | | 3.4.5. Tanlov natijalari asosida pedagoglar va o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralari ko'rilgan |
| | | 3.4.6. O'quvchilarning tanlovlardagi natijalari tizimli ravishda tahlil qilingan va tanlovlarga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan |
| | 3.5. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari tashkil etilgani, ularning mehnat bozoridagi va ta'limning keyingi bosqichi bo'yicha mavjud imkoniyatlar to'g'risidagi ishonchli axborotlar bilan ta'minlangani | 3.5.1. Kasbiy ta'lim tashkilotida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 3.5.2. O'quvchilarga mehnat bozoridagi bo'sh ish o'rinlari, karera kunlari, potensial ish beruvchilar va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid boshqa masalalar bo'yicha ma'lumotlar berilgan |
| | | 3.5.3. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ish beruvchilar va oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 3.5.4. Kasbiy ta’lim tashkiloti tomonidan o‘quvchilar ishtirokida kasbga yo‘naltirish tadbirlari (seminarlar, uchrashuvlar, maslahatlar, davra suhbatlari yoki boshqalar) o‘tkazib borish yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 3.5.5. Mehnat bozori va ta’lim sohasiga oid ma’lumotlar kasbiy ta’lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida muntazam joylashtirilgan va yangilanib borilgan |
| **4. O‘quv jarayonini tashkil etish** | 4.1. O‘quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani | 4.1.1. Namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan ishchi o‘quv rejalar hamda o‘quv jarayoni grafigi davlat ta’lim standartlarining talablariga muvofiq hamda hududlardagi ish beruvchilar bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan* |
| | | 4.1.2. O‘quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari (ishchi o‘quv rejalar, ishchi o‘quv dasturlar, o‘quv jarayoni grafigi va o‘quv mashg‘ulotlari (dars) jadvali) pedagogik (metodik) kengashda muhokamadan o‘tkazilgan holda tasdiqlangan |
| | | 4.1.3. O‘quv mashg‘ulotlari (dars) jadvali ishchi o‘quv rejalar va o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq ishlab chiqilgan |
| | | 4.1.4. O‘quv jarayonini tashkil etish uchun o‘quv-uslubiy resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) samarali va maqsadli ravishda foydalanilgan |
| | 4.2. Pedagoglarga o‘quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani | 4.2.1. Pedagoglarning o‘quv (ish) yuklamalari kasbiy ta’lim tashkilotlarida pedagog xodimlar ish faoliyatining (o‘quv va pedagogik yuklamasining) vaqt me’yorlari va shtatlar jadvaliga muvofiq ishlab chiqilgan |
| | | 4.2.2. O‘quv (ish) yuklamalarining taqsimotida pedagoglarning mutaxassisligi, dars beradigan fanlari (modullari), ish turlari va vaqt me’yori (soat) hisobga olingan* |
| | | 4.2.3. O‘quv (ish) yuklamalarning bajarilish holati doimiy ravishda monitoring qilingan va davriy (oylik, yarim yillik va yillik) tahlillar amalga oshirilgan hamda hisobotlar yuritilgan |
| | | 4.2.4. Monitoring va tahlil jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan hamda ijrosi ta’minlangan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 4.2.5. Monitoring va tahlil jarayonlari ochiq va adolatli tarzda amalga oshirilganligi hamda chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlanganligi bo'yicha ma'lumotlar pedagogik (metodik) kengashga taqdim etilgan va muhokama qilingan |
| | 4.3. Pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi | 4.3.1. Pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlarini (ishchi o'quv dasturi, o'qitish materiallari) ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muhokamalar va seminar-treninglar tashkil etilgan |
| | | 4.3.2. Pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlari ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda pedagogik kengash (metodik kengash) muhokamasidan o'tkazilgan holda hujjatlashtirilgan |
| | | 4.3.3. Ishlab chiqilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar amaliyotga tatbiq etilgan hamda ushbu hujjatlarning amalda qo'llanilishi doimiy ravishda monitoring va tahlil qilingan |
| | | 4.3.4. Monitoring va tahlil natijasida o'quv-me'yoriy hujjatlarni qo'llashda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijro etilgan hamda shu asosida o'quv-me'yoriy hujjatlar takomillashtirib borilgan |
| | 4.4. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani | 4.4.1. Fanlar (modullar) va amaliy mashg'ulotlarni o'qitish jarayonida kutilgan o'quv natijalariga erishishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullari doimiy ravishda qo'llanilgan |
| | | 4.4.2. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarining qamrovi va murakkabligi ta'lim dasturining darajasi, ta'lim shakli va o'quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda belgilangan |
| | | 4.4.3. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llash samaradorligi muntazam monitoring va tahlil qilib borilgan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar bo'yicha pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish choralari ko'rilgan |
| | | 4.4.4. Monitoring, tahlil va pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish natijalari asosida kasbiy ta'lim tashkilotida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar doimiy ravishda yangilangan hamda takomillashtirilgan |
| | | 4.4.5. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llash |

| | | |
|---|---|---|
| | | samaradorligi bo‘yicha yillik tahliliy hisobot tayyorlangan va pedagogik (metodik) kengashda ko‘rib chiqilgan |
| | 4.5. Ta’lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani | 4.5.1. Rahbar va pedagog kadrlar tomonidan dars tahlillarini amalga oshirish bo‘yicha reja-grafik ishlab chiqilgan |
| | | 4.5.2. Dars tahlilida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, innovatsion o‘qitish usullari va baholash vositalari inobatga olingan hamda tahlil jarayoni turli usullar (maxsus shakl, cheklist, rubrika yoki boshqalar) asosida amalga oshirilgan |
| | | 4.5.3. Dars tahlili natijalari pedagoglar bilan individual yoki guruh shaklida muhokama qilingan group formats |
| | | 4.5.4. Dars tahlili natijalari ta’lim sifatini ichki ta’minlash hisobotlariga kiritilgan va pedagogik (metodik) kengashda ko‘rib chiqilgan |
| | | 4.5.5. Pedagogik (metodik) kengashda qabul qilingan qarorlarning bajarilishi monitoring qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijrosi nazorat qilingan |
| | 4.6. Ta’lim shakllariga mos ravishda tegishli amaliyotlar ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgani | 4.6.1. Amaliyot mashg‘ulotlarini tashkil etishda ta’lim shakllariga mos ish beruvchilar bilan hamkorlik kelishuvlar (shartnomalar, memorandumlar) mavjud |
| | | 4.6.2. Ta’lim shakliga mos amaliyot mashg‘ulotlari (o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari hamda laboratoriya mashg‘ulotlari) dasturlari tasdiqlangan |
| | | 4.6.3. Amaliyot mashg‘ulotlari ishchi o‘quv rejalar va o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq tashkil etilgan |
| | | 4.6.4. Amaliyot mashg‘ulotlarida ishtirok etuvchi o‘quvchilarga mehnatni muhofaza qilish, yo‘l harakati xavfsizligi va texnika xavfsizlik qoidalari bo‘yicha tushuntirishlar berilgan hamda ushbu qoidalarga rioya qilinishi ta’minlangan |
| | | 4.6.5. Amaliyot mashg‘ulotlari hisobotlari yuritib borilgan hamda elektron tizim yoki jurnallarda qayd etilgan |
| | | 4.6.6. Ish beruvchilar bilan hamkorlikda amaliyot mashg‘ulotlari tahlil qilingan hamda tahlil natijalari asosida ta’lim dasturlari, shu |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | jumladan amaliyot mashg‘ulotlari takomillashtirilgan* |
| | | 4.7. Yakuniy davlat attestatsiyasi (bundan buyon matnda YADA deb yuritiladi) ish beruvchilar ishtirokida o‘quv natijalariga muvofiq o‘tkazilgani | 4.7.1. Yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi mavjud hamda YADA komissiyasi va apellyatsiya komissiyasi a’zolari tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi 836-son “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi *qaroriga* asosan belgilangan |
| | | | 4.7.2. YADA o‘quv xonalarida hamda ko‘rgazmali-amaliy imtihonlar korxona va tashkilotlarning maxsus tashkil etilgan maydonlarida (simulyatsion laboratoriyalarida) va amaliyot bazalarida o‘tkazilgan |
| | | | 4.7.3. YADA doirasidagi test topshiriqlari, ko‘rgazmali-amaliy imtihonlarning shartlari va baholash mezonlari ta’lim dasturlarida belgilangan kutilgan o‘quv natijalari asosida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan |
| | | | 4.7.4. Baholash jarayonlari xolislik, shaffoflik va akademik halollik tamoyillariga muvofiq tashkil etilgan |
| | | | 4.7.5. YADA natijalari bayonnomalarda rasmiylashtirilgan hamda YADA natijalari bo‘yicha tahliliy hisobotlar pedagogik (metodik) kengashda ko‘rib chiqilgan |
| | | | 4.7.6. YADA bo‘yicha imtihon qaydnomalari va imtihon materiallari kasbiy ta’lim tashkilotida saqlangan hamda ular bo‘yicha hisobot yuritilgan va hisobdan chiqarish choralari ko‘rilgan |
| | | | 4.7.7. YADA bo‘yicha shikoyatlar apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilgan hamda ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha bayonnomalar rasmiylashtirilgan |
| **5.** | **Inson resurslari** | 5.1. Ta’lim tashkilotida pedagog kadrlarning ma’lumoti, mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o‘tadigan fan(lar)ga mosligi | 5.1.1. Fanlar (modullar) va amaliyot mashg‘ulotlari asosiy shtatdagi pedagoglar bilan ta’minlangan hamda ushbu pedagoglarning diplomi (sertifikati), malaka toifasi va sohaviy tajribasi ta’lim yo‘nalishiga mos keladi* |
| | | | 5.1.2. O‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun oliy ma’lumotli o‘qituvchilar va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish ta’lim ustalari mavjud |
| | | | 5.1.3. Pedagoglar o‘zining ixtisosligi bo‘yicha qayta tayyorlash va (yoki) malaka oshirish kurslarini |

| | | |
|---|---|---|
| | | tamomlagan hamda diplomga (sertifikatga) ega |
| | | 5.1.4. Kasbiy ta'lim tashkilotida pedagog kadrlar attestatsiyadan o'tish lozimligi to'g'risida oldindan xabardor qilingan hamda ularning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash tashkil etilgan |
| | | 5.1.5. Pedagog kadrlarning mutaxassisligi bilan dars beradigan fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlarining o'zaro mosligi yuzasidan monitoring yuritilgan |
| | | 5.1.6. Monitoring natijalari asosida pedagoglarning diplomi (sertifikati), malaka toifasi va sohaviy tajribasiga mos fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlarini olib borishi ta'minlangan |
| | 5.2. Ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani | 5.2.1. Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlari mehnat to'g'risidagi qonunchilik va kasbiy ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari asosida amalga oshirilgan hamda ushbu jarayonlarga doir hujjatlar (tanlov hujjatlari, suhbat bayonnomalari, arizalar, buyruqlar yoki boshqalar) mavjud |
| | | 5.2.2. Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish jarayonlari ochiqlik va adolat tamoyillari hamda tanlov (imtihon, suhbat) asosida amalga oshirilgan |
| | | 5.2.3. Pedagog kadrlar bo'yicha elektron yoki qog'oz shakldagi shaxsiy portfoliolar (papkalar) shakllantirilgan |
| | | 5.2.4. Pedagog kadrlarning qo'nimsizligi bo'yicha doimiy ravishda monitoring va tahlil olib borilgan, shu jumladan pedagog kadrlar tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasi va mehnat shartnomasini bekor qilish sabablari o'rganilgan |
| | | 5.2.5. Monitoring va tahlil natijalari asosida chora-tadbirlar rejasi va yillik hisobot ishlab chiqilgan hamda chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlangan |
| | | 5.2.6. Pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj to'g'risida oliy ta'lim tashkilotlari va O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy bo'linmalariga chiqarilgan murojaatlar mavjud |
| | | 5.2.7. Pedagog kadrlarning qo'nimsizligini oldini olish maqsadida kadrlar zaxirasi shakllantirilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | 5.3. Rahbar va pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo‘lga qo‘yilgani hamda ularning moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilgani | 5.3.1. Rahbar va pedagog kadrlarning faoliyati samaradorligi natijalari asosida ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan hamda kasbiy ta’lim tashkiloti tomonidan amalga oshirib borilgan |
| | | 5.3.2. Rahbar va pedagog kadrlarning faoliyati samaradorligini baholash jarayonlari kasbiy ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylikda o‘tkazib borilgan |
| | | 5.3.3. Baholash natijalari asosida rahbar va pedagog kadrlarning reytingi (samaradorlik ko‘rsatkichlari) shakllantirilgan hamda rasmiylashtirilgan |
| | | 5.3.4. Rahbar va pedagog kadrlarni baholash hamda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish jarayonlarida shaffoflik hamda adolat tamoyillariga amal qilingan |
| | 5.4. Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish, tajribasini ommalashtirish va malakasini oshirish uchun sharoit yaratilgani | 5.4.1. Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha ehtiyojlarni aniqlash yuzasidan monitoring o‘tkazib borilgan |
| | | 5.4.2. Monitoring natijalari asosida pedagog kadrlarning malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi hamda ish beruvchi korxona va tashkilotlarda stajirovka o‘tashi bo‘yicha grafiklar ishlab chiqilgan |
| | | 5.4.3. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida, shuningdek stajirovkada ishtirok etishi yo‘lga qo‘yilgan hamda pedagog kadrlar grafik asosida malaka oshirish, qayta tayyorlash va stajirovkaga yuborilgan* |
| | | 5.4.4. Pedagog kadrlarni kasbiy ta’lim tashkilotining kasbiy rivojlantirish tizimiga muvofiq ilmiy-amaliy konferensiya, vebinarlar, seminar-treninglar va forumlarga yuborish (ishtirokini ta’minlash, tashkil etish) choralari ko‘rilgan |
| | | 5.4.5. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, shuningdek stajirovka hamda kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida pedagog kadrlar tomonidan o‘zlashtirilgan kompetensiya va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish maqsadida seminar-treninglar, mahorat va ochiq darslar tashkil etilgan, shuningdek “ustoz — shogird” va mentorlik tizimlari joriy etilgan |
| **6. O‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash** | 6.1. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilish uchun to‘garak | 6.1.1. To‘garaklar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha yillik reja-grafik mavjud, to‘garak rahbarlari belgilangan hamda to‘garak dasturlari ishlab chiqilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | mashg‘ulotlarining yo‘lga qo‘yilgani va ularning samaradorligi | 6.1.2. To‘garak mashg‘ulotlari yillik reja-grafik asosida o‘tkazilgan hamda qaydnoma jurnali yuritilgan yoki elektron tizim orqali hisobga olingan |
| | | 6.1.3. To‘garaklarning kasbiy ta’lim tashkilotidagi o‘quvchilarni qamrab olish darajasi hamda qamrab olingan o‘quvchilarning to‘garaklardagi ishtiroki bo‘yicha doimiy monitoring amalga oshirilgan |
| | | 6.1.4. To‘garaklar doirasida (musobaqalar, ko‘rgazmalar, tanlovlar, loyihalar yoki boshqalar) o‘quvchilar erishgan natijalar e’tirof etilgan hamda ushbu o‘quvchilar rag‘batlantirilgan |
| | | 6.1.5. To‘garaklar faoliyati yuzasidan o‘quvchilar, ota-onalar va pedagoglarning taklif va fikr-mulohazalari o‘rganilgan hamda to‘garaklarning samaradorligi tahlil qilingan |
| | | 6.1.6. Tahlil natijalari asosida to‘garaklar sifatini oshirish, qamrovini kengaytirish yoki yangi yo‘nalishlarni joriy etish bo‘yicha choralar ko‘rilgan |
| | 6.2. O‘quvchilarga yetarli darajada ta’lim olish va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maslahat berish va karera xizmatlarini tashkil etilgani | 6.2.1. O‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha psixologik xizmat va karera markazi faoliyati muntazam yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 6.2.2. O‘quvchilar bilan psixologik qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy rivojlanish va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha suhbatlar, treninglar o‘tkazilgan |
| | | 6.2.3. Ta’lim olishda qiynalayotgan yoki qo‘shimcha yordamga muhtoj o‘quvchilar bilan individual maslahatlashuvlar o‘tkazilgan |
| | | 6.2.4. O‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan maslahat xizmatlari tashkil etilgan va doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatgan |
| | | 6.2.5. Karera xizmatlari bo‘yicha seminarlar, bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari va ish beruvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etilgan |
| | | 6.2.6. Psixologik va karera xizmatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan hamda amaliy choralar ko‘rilgan |
| | 6.3. Ta’lim xizmatlari yuzasidan o‘quvchilar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi | 6.3.1. Kasbiy ta’lim tashkiloti tomonidan ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari bo‘yicha so‘rovnoma, suhbat, elektron anketa, intervyu va fokus-guruhlar (bundan buyon matnda so‘rovnoma deb yuritiladi), ularning |

| | | |
|---|---|---|
| | va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko‘rilgani | mavzulari, savollar (masalalar) ro‘yxati, so‘rovnomani o‘tkazish muddatlari hamda mas’ul ijrochilar belgilangan |
| | | 6.3.2. Ta’lim xizmatlarining sifati yuzasidan o‘tkaziladigan so‘rovnomalar to‘g‘risida o‘quvchilar muntazam xabardor qilingan hamda tizimli ravishda ularning ishtirokini ta’minlash choralari ko‘rilgan |
| | | 6.3.3. So‘rovnoma jarayonlari ochiqlik, tenglik va xolislik tamoyillari asosida tashkil etilgan |
| | | 6.3.4. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari mas’ul ijrochilar tomonidan tahlil qilingan, o‘quvchilarning ta’lim xizmatlarini takomillashtirishga oid taklif va fikr-mulohazalari muntazam yig‘ilgan |
| | | 6.3.5. So‘rovnoma natijalari bo‘yicha tahliliy hisobotlar tayyorlanib, pedagogik (metodik) kengashga taqdim etib borilgan |
| | | 6.3.6. So‘rovnoma doirasida bildirilgan taklif va fikr-mulohazalar hamda tayyorlangan tahliliy hisobotlar asosida ta’lim xizmatlarini takomillashtirish choralari ko‘rilgan |
| | | 6.3.7. So‘rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar kasbiy ta’lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e’lon qilib borilgan |
| | 6.4. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o‘quvchilarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani | 6.4.1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash (rag‘batlantirish) mexanizmlari ishlab chiqilgan |
| | | 6.4.2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o‘quvchilarning ro‘yxatlari shakllantirilgan hamda ular uchun individual ta’lim trayektoriyalari ishlab chiqilgan |
| | | 6.4.3. Ijtimoiy yordam, psixologik qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlar, moddiy va ma’naviy ko‘mak xizmatlari mavjud |
| | | 6.4.4. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim sharoitlari (moslashtirilgan xona, maxsus o‘quv materiallari va ko‘rgazmali materiallar, Brayl alifbosidagi kitoblar, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar) yaratilgan |
| | | 6.4.5. O‘quvchilarning o‘z iqtidorini ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan hamda iqtidorli o‘quvchilarni saralash, qo‘llab- |

| | | |
|---|---|---|
| | | quvvatlash va e'tirof etishda ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga amal qilingan |
| | | 6.4.6. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi monitoring qilingan hamda ushbu mexanizmlar takomillashtirilgan |
| | 6.5. Yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilgani | 6.5.1. Yoshlar bilan ishlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha bo'linma tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan hamda ushbu masalalar bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 6.5.2. Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o'quvchilar bilan tarbiyaviy suhbatlar, profilaktik yig'ilishlar, davra suhbatlari va psixologik treninglar o'tkazilgan |
| | | 6.5.3. Chora-tadbirlar rejasining samaradorligi monitoring qilingan, muammoli holatlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilgan |
| | | 6.5.4. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, "Mahalla yettiligi" a'zolari va boshqa hamkor tashkilotlar bilan profilaktik tadbirlari amalga oshirilgan |
| | | 6.5.5. Huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi o'quvchilar bilan individual profilaktik ishlar olib borilgan va hujjatlashtirilgan |
| | | 6.5.6. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport musobaqalari va madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ishlari yo'lga qo'yilgan |
| | 6.6. O'quvchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibining mavjudligi | 6.6.1. O'quvchilarning huquqlarini himoya qilish hamda ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ichki hujjatlar tasdiqlangan |
| | | 6.6.2. Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan va (yoki) mas'ul ijrochilar belgilangan, shuningdek ularning faoliyati yuzasidan hisobotlar yuritilgan |
| | | 6.6.3. Ariza va shikoyatlar o'quvchilar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali (qutilar, onlayn forma, psixolog, mas'ul shaxs, ishonch telefoni yoki boshqalar) qabul qilib borilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 6.6.4. Ariza va shikoyatlar ro‘yxati yuritilgan, ularni ko‘rib chiqish muddatlari belgilangan hamda ko‘rib chiqish jarayonlari hujjatlashtirilgan |
| | | 6.6.5. Ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish jarayoni ochiqlik, hisobdorlik va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga asosan amalga oshirilgan |
| | | 6.6.6. Ariza va shikoyatlarning tahlili asosida o‘quvchilarning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va ijrosi yuritilgan |
| **7. Moddiy-texnik ta’minot** | 7.1. Ta’lim dasturi/shakllari xususiyatidan kelib chiqib, o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun o‘quvchilar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, reagentlar, xomashyo materiallari va dasturiy ta’minot bilan ta’minlangani | 7.1.1. Ta’lim shakllari, o‘quvchilar kontingenti va ta’lim dasturlariga mos bino va inshootlar, o‘quv va laboratoriya xonalari yoki amaliyot ustaxonalari (poligonlar) mavjud* |
| | | 7.1.2. Amaliyot mashg‘ulotlari va laboratoriya ishlari uchun zarur reagentlar, xomashyo va yonilg‘i-moylash materiallari mavjud hamda xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda saqlangan |
| | | 7.1.3. O‘quv jarayonlariga mos keladigan dasturiy ta’minot, simulyatorlar, o‘quv platformalari va kompyuter texnikalari ishchi holatda |
| | | 7.1.4. Moddiy-texnik baza holati bo‘yicha muntazam monitoring o‘tkazilgan hamda monitoring natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan choralar ko‘rilgan |
| | | 7.1.5. Ta’lim shakllari, o‘quvchilar kontingenti va ta’lim dasturlariga mos ravishda mavjud jihozlar, asbob-uskunalar va laboratoriya resurslarini yangilash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilgan |
| | 7.2. Ta’lim jarayonlari uchun zarur bo‘lgan amaliyot bazalari, laboratoriyalari va ustaxona (poligon)lari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta’lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgani | 7.2.1. Ta’lim jarayonlariga mos amaliyot bazalari, laboratoriyalar va (yoki) ustaxonalar (poligonlar) mavjud |
| | | 7.2.2. Amaliyot mashg‘ulotlari, laboratoriya ishlari va fanning (modulning) amaliy qismlari uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik baza, jihozlar va asbob-uskunalar bilan ta’minlangan |
| | | 7.2.3. Ta’lim jarayonlari uchun zarur bo‘lgan amaliyot bazalari, laboratoriyalari va ustaxona moddiy-texnik baza, jihozlar va asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish yoki yangi texnologiyalarni joriy etish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va ijro etilgan |
| | | 7.2.4. | Sanoat, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi hamkor tashkilotlar hamda ta'lim tashkilotlari bilan amaliyot mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha hamkorlik shartnomalari mavjud |
| | | 7.2.5. | Sanoat, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda amaliyot bazalarida mehnatni muhofaza qilish qoidalari, texnika xavfsizlik qoidalari va sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etish ta'minlangan hamda jurnallar (qaydnomalar) yuritilgan |
| | 7.3. Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) o'quvchilar kontingentiga mos o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi | 7.3.1. | ARMda o'quvchilar kontingentiga mos darslik, o'quv va badiiy adabiyotlar mavjud* |
| | | 7.3.2. | ARM zamonaviy AKT va elektron qurilmalar bilan jihozlangan va ulardan foydalanish bo'yicha o'quvchilarga doimiy ravishda tushuntirishlar berilgan |
| | | 7.3.3. | ARM o'quv zali, elektron kutubxonadan foydalanish va internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlari yaratilgan |
| | | 7.3.4. | Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondida darsliklar, o'quv adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami, elektron ta'lim resurslari va multimedia kontentlari raqamli formatda joylashtirilgan |
| | | 7.3.5. | ARM va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish tartibi qulay va ochiq, elektron ma'lumotlar bazasiga erkin kirish ta'minlangan |
| | | 7.3.6. | ARM xizmatlaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha monitoring va foydalanuvchilar statistikasi yuritilgan va tahlil qilib borilgan |
| | | 7.3.7. | ARM faoliyati natijalari pedagogik (metodik) kengashda muntazam muhokama qilingan, shuningdek ARM faoliyatini takomillashtirish hamda zarur o'quv-uslubiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan, ijrosi ta'minlangan va hisoboti yuritib borilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 7.3.8. | Kutubxona fondi muntazam yangilanib borilgan |
| | 7.4. Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani | 7.4.1. | Kasbiy ta'lim tashkilotining binolari va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, eshiklar va sanitariya xonalari (hojatxonalar) nogironligi bo'lgan shaxslar (o'quvchilar) uchun moslashtirilgan |
| | | 7.4.2. | Ta'lim dasturlari bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud |
| | | 7.4.3. | Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl alifbosi, subtitr yoki boshqalar) yaratilgan |
| | | 7.4.4. | Inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha tayyorlangan va zarur ko'nikmalarga ega pedagog(lar) va (yoki) psixolog mavjud |
| | | 7.4.5. | O'quv jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish tizimi mavjud |
| | | 7.4.6. | Inklyuziv ta'lim sharoitlarining amalda qo'llanishi va samaradorligi bo'yicha monitoring olib borilgan |
| | 7.5. O'quv va laboratoriya xonalarida hamda ustaxonalarda jihozlarning tegishli xavfsizlik qoidalari hamda o'qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani | 7.5.1. | O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxonalarda (poligonlarda) jihozlar va asbob-uskunalarning joylashuvi o'quv mashg'ulotlarining mazmuni va amaliyot jarayonlariga mos |
| | | 7.5.2. | O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxonalarning (poligonlarning) jihozlari va asbob-uskunalari mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos ravishda joylashtirilgan |
| | | 7.5.3. | O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxonalarda (poligonlarda) erkin harakatlanish ta'minlangan hamda favqulodda holatlarda evakuatsiya chiqish yo'llari belgilangan |
| | | 7.5.4. | Jihozlar va asbob-uskunalarni joylashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va jismoniy imkoniyatlari, mashg'ulot turlari inobatga olingan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 7.5.5. O‘quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxonalarda (poligonlarda) jihozlar va asbob-uskunalarning joylashuvi o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuniga va amaliyot jarayonlariga mos |
| | 7.6. O‘quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va ularda raqamli ta’lim muhiti yaratilgani | 7.6.1. O‘quv xonalari AKT vositalari (kompyuterlar, elektron doskalar, proyektorlar yoki boshqalar) bilan jihozlangan |
| | | 7.6.2. Raqamli ta’lim muhiti yaratish uchun zarur bo‘lgan internet tarmog‘i, Wi-Fi zonalari va lokal tarmoqlar barqaror ishchi holatda |
| | | 7.6.3. Pedagoglar va o‘quvchilarning elektron platformalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan |
| | | 7.6.4. AKT vositalaridan foydalanish bo‘yicha xavfsizlik texnikasi va tartib-qoidalari ishlab chiqilgan |
| | | 7.6.5. AKT vositalarining holati bo‘yicha monitoring o‘tkazilgan, xizmat ko‘rsatish, yangilash va ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan |
| | | 7.6.6. Raqamli ta’lim muhitidan foydalanish samaradorligi bo‘yicha tahlillar o‘tkazilgan hamda o‘quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | 7.7. Ta’lim tashkilotida o‘quvchilar kontingentiga mos bufet/oshxona, o‘rindiqlar va sport maydonlarining mavjudligi | 7.7.1. Kasbiy ta’lim tashkilotida o‘quvchilar kontingentiga mos ravishda bufet (oshxona) mavjud hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq yuritilgan, shuningdek bufetda (oshxonada) sog‘lom ovqatlanishga oid tavsiyalar va ratsional menyu yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 7.7.2. Dam olish uchun o‘rindiqlar (ayvonlar) va soya joylar mavjud |
| | | 7.7.3. Kasbiy ta’lim tashkilotida o‘quvchilar kontingentidan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog‘lomlashtirish inshootlari mavjud |
| | | 7.7.4. Sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog‘lomlashtirish inshootlari faoliyat ko‘rsatadi, ularning jihozlari texnik jihatdan soz holda saqlangan va yangilanib borilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 7.7.5. Kasbiy ta'lim tashkilotida jihozlangan faollar zali mavjud |

## Ilova 3. O'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari

O'rta maxsus ta'lim tashkilotlari kompleks davlat akkreditatsiyasi doirasida 7 ta yo'nalish, 36 ta mezon va 193 ta indikator bo'yicha baholanadi.

Majburiy mezonlar va indikatorlar yulduzcha (*) bilan belgilangan

| Yo'nalish | Mezon | Indikator |
|---|---|---|
| **1. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash** | 1.1. Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani | 1.1.1 O'rta maxsus ta'lim tashkilotining faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida o'rta maxsus ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasiga (strategik rejasi, missiyasi, strategiyasi) (bundan buyon matnda rivojlantirish rejasi deb yuritiladi) muvofiq moliyaviy resurslarni maqsadli boshqarish va taqsimlash tizimi yo'lga qo'yilgan |
| | | 1.1.2 Moliyaviy resurslar o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish hamda moddiy-texnik baza va infratuzilmani rivojlantirish maqsadlariga muvofiq ravishda taqsimlangan |
| | | 1.1.3 Moliyaviy boshqaruv jarayoni yo'lga qo'yilgan hamda yillik moliyaviy reja tasdiqlangan va ijrosi amalga oshirilgan |
| | | 1.1.4 Yillik moliyaviy rejada ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan mablag'lar maqsadli va samarali sarflangan |
| | | 1.1.5 Yillik moliyaviy rejaning ijrosi bo'yicha muntazam monitoring va tahlil amalga oshirilgan hamda moliyaviy resurslardan foydalanish yuzasidan qarorlar monitoring va tahlil natijalari asosida qabul qilingan |
| | 1.2. Ta'lim tashkilotida Pedagogik kengash faoliyati yo'lga qo'yilgani va uning samaradorligi | 1.2.1 Pedagogik kengashning ish rejasi va nizomi, shu jumladan vakolatlari, vazifalari va ish yuritish tartibi tasdiqlangan |
| | | 1.2.2 Pedagogik kengashning yig'ilishlari muntazam o'tkazilgan hamda yig'ilish qarorlari asosida chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan va ijrosi nazorat qilingan |
| | | 1.2.3 Pedagogik kengash qarorlarini qabul qilishda qoshida (huzurida) o'rta maxsus ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirlik, idora yoki oliy ta'lim tashkilotining (bundan buyon matnda yuqori turuvchi tashkilot deb yuritiladi) mas'ullari, pedagoglar va |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | soha mutaxassislarining taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan |
| | | 1.2.4 | Pedagogik kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslardan samarali va maqsadli foydalanish hamda o'rta maxsus ta'lim tashkilotini rivojlantirish maqsadlari uchun yo'naltirilgan |
| | | 1.2.5 | Pedagogik kengash faoliyatiga oid ma'lumotlar ochiqlik, hisobdorlik va shaffoflik tamoyillariga muvofiq jamoatchilikka taqdim etib borilgan |
| | 1.3. Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani | 1.3.1 | Rivojlantirish rejasi tasdiqlangan hamda o'rta maxsus ta'lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas'ul ijrochilar belgilangan* |
| | | 1.3.2 | Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun o'rta maxsus ta'lim tashkilotidagi barcha tarkibiy bo'linmalarning (kafedralarning, bo'limlarning) yillik ish rejalari tizimli ravishda ishlab chiqilgan |
| | | 1.3.3 | Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan hamda ularning taqsimoti rivojlantirish rejasidagi maqsadlar va vazifalar bilan uyg'unlashtirilgan |
| | | 1.3.4 | Rivojlantirish rejasining monitoringi natijalari hamda yuqori turuvchi tashkilot mas'ullari, pedagoglar, o'quvchilar, bitiruvchilar, shuningdek ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning taklif va fikr-mulohazalari asosida rivojlantirish rejasini takomillashtirish choralari ko'rilgan |
| | | 1.3.5 | Rivojlantirish rejasining ijrosi hamda natijalari ochiq va shaffof tarzda jamoatchilikka e'lon qilib borilgan |
| | 1.4. Ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) mavjudligi | 1.4.1 | O'rta maxsus ta'lim tashkilotida axborot tizimi (EMIS AL, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi yoki boshqalar) joriy etilgan* |
| | | 1.4.2 | Axborot tizimida o'quvchilar va pedagoglarga oid ma'lumotlar, shuningdek o'quv mashg'ulotlari (dars) |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani | | jadvali, baholash va o'quvchilar davomati bo'yicha ma'lumotlarni yuritish imkoniyati mavjud |
| | | 1.4.3 | O'zaro ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan |
| | | 1.4.4 | Axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari tizimli ravishda ko'rilgan hamda axborot tizimida foydalanuvchilarning samarali va qulay ishlay olishi ta'minlangan |
| | | 1.4.5 | Axborot tizimidagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi ta'minlangan hamda axborot tizimi o'z vaqtida yangilanib borilgan va monitoring yuritilgan, shuningdek ushbu ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlab borilgan |
| | | 1.4.6 | Tayyorlangan hisobotlar pedagogik kengashning yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni tuzatish choralari ko'rilgan |
| 2. **Quality Assurance of Education** | 2.1. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani | 2.1.1 | Ta'lim sifatini ichki ta'minlash jarayonida yuqori turuvchi tashkilotning mas'ullari, pedagoglar, o'quvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar, shuningdek ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) ishtiroki ta'minlangan |
| | | 2.1.2 | Manfaatdor tomonlar ishtirokida muntazam tadbirlar (muhokamalar, so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar yoki boshqalar) o'tkazilgan hamda ularning taklif va fikr-mulohazalari asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 2.1.3 | Manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi muntazam takomillashtirilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 2.1.4 Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi takomillashtirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rta maxsus ta’lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e’lon qilib borilgan |
| | 2.2. Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko‘rilgani | 2.2.1 O‘rta maxsus ta’lim tashkilotida ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi (ichki baholash tartibi) ishlab chiqilgan hamda ta’lim sifatini ichki ta’minlash bo‘linmasi tashkil etilgan yoki mas’ul xodim(lar) ajratilgan* |
| | | 2.2.2 Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimini ichki baholash tartibi amaliyotga joriy etilgan |
| | | 2.2.3 Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimining samaradorligi doimiy ravishda monitoring qilingan va davriy (yarim yillik va yillik) tahlillar asosida baholab borilgan |
| | | 2.2.4 Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 2.2.5 Aniqlangan muammo va kamchiliklar chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o‘z vaqtida bartaraf etib borilgan |
| | | 2.2.6 Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi doimiy ravishda ichki baholashdan o‘tkazilgan, ichki baholash natijalari pedagogik kengashning yig‘ilishlarida muhokama qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligiga o‘z vaqtida va to‘liq taqdim etib borilgan |
| | 2.3. O‘quvchilar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o‘quv natijalariga muvofiqligi | 2.3.1 O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonlari bo‘yicha tartib, qoidalar, mezonlar va usullar (bundan buyon matnda baholash tartibi deb yuritiladi) ishlab chiqilgan hamda ta’lim dasturlaridagi kutilgan o‘quv natijalari (learning outcomes) va fanlarning maqsadlariga mosligi ta’minlangan |
| | | 2.3.2 Baholash tartibi o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin o‘quvchilarga ma’lum qilib borilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 2.3.3 | Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali va doimiy qo‘llanilgan hamda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonida xolislik, shaffoflik va akademik halollik ta’minlangan |
| | | 2.3.4 | Baholash natijalari raqamli platformalar, o‘quvchilarning amaliyot kundaligi, yakuniy davlat attestatsiya (bundan buyon matnda YDA deb yuritiladi) komissiyasining baholash bayonnomalarida tizimli ravishda aks ettirilgan hamda saqlangan |
| | | 2.3.5 | Baholash jarayoni va natijalari bo‘yicha o‘quvchilarning shikoyatlari o‘rta maxsus ta’lim tashkilotining apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilgan va tizimli ravishda tahlil qilingan |
| | | 2.3.6 | Shikoyatlar tahlili natijalari bo‘yicha hisobotlar muntazam tayyorlangan va baholash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan, shuningdek baholash tartibi va mezonlariga zarur o‘zgartirishlar kiritib borilgan |
| | 2.4. Bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va manfaatdor tomonlarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari muntazam ravishda tahlil qilingani | 2.4.1 | Bitiruvchilar bilan ishlash bo‘linmasi yoki mas’ul xodim(lar) faoliyat yuritadi hamda uning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi ta’minlangan |
| | | 2.4.2 | Mehnat bozoridagi tendensiyalar asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan |
| | | 2.4.3 | Bitiruvchilarning tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va ish joyidagi samaradorligi yuzasidan ish beruvchilardan taklif va fikr-mulohazalar olingan |
| | | 2.4.4 | Ish beruvchilarning taklif va fikr-mulohazalari asosida o‘quv jarayoni tizimli ravishda takomillashtirilgan hamda qabul parametrlari qayta ko‘rib chiqilgan |
| **3. O‘quvchilar faoliyati** | 3.1. Qabul parametrlarining ta’lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi | 3.1.1 | Qabul parametrlari o‘rta maxsus ta’lim tashkilotining infratuzilmasi, moliyaviy imkoniyatlari, o‘quv va laboratoriya xonalari, davlat ta’lim standartlariga mos ravishda belgilangan* |
| | | 3.1.2 | Qabul parametrlari mehnat bozori, rivojlantirish rejasi, pedagoglarning soni |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | va tarkibi, ularning oʻquv (ish) yuklamasi bilan uygʻunlashtirilgan |
| | | 3.1.3 | Qabul parametrlarining bajarilish holati boʻyicha har yili tahlillar amalga oshirilgan hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur oʻzgartirishlar kiritib borilgan |
| | 3.2. Oʻquvchilarni oʻqishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida toʻgʻri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani | 3.2.1 | Oʻqishga qabul qilish tartibi, qabul komissiyasi faoliyati, qabul mezonlari va baholash usullari belgilangan |
| | | 3.2.2 | Oʻqishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari va baholash usullari bilan bogʻliq maʼlumotlarning ochiqligi taʼminlangan |
| | | 3.2.3 | Qabul jarayonida abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan va qabul jarayonining barcha bosqichlari (hujjat topshirish, kirish imtihonlarini oʻtkazish va natijalarini eʼlon qilish, tanlov asosida oʻqishga tavsiya etilgan yoki tavsiya etilmagan abituriyentlar roʻyxatini eʼlon qilish va boshqalar) ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan |
| | | 3.2.4 | Qabul natijalari boʻyicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan ariza va shikoyatlar rasmiylashtirilgan, koʻrib chiqilgan va ularning ijrosi nazoratga olingan |
| | | 3.2.5 | Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar toʻqnashuvi xavfini kamaytirish va qabul jarayonida xolislikni taʼminlashga qaratilgan raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan |
| | | 3.2.6 | Qabul jarayoni doimiy ravishda tahlil qilingan hamda tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish choralari koʻrilgan |
| | 3.3. Oʻquvchilar oʻqishini koʻchirish, kursdan-kursga oʻtkazish va oʻqishdan chetlashtirish (bundan buyon matnda oʻquvchilar harakati deb yuritiladi) jarayonlarining belgilangan tartibda amalga oshirilgani | 3.3.1 | Oʻquvchilar harakati oʻrta maxsus taʼlim tashkilotiga oʻqishga qabul qilish, oʻqishni koʻchirish, qayta tiklash va oʻqishdan chetlashtirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshirilgan hamda oʻquvchilar harakatini amalga oshirish boʻyicha masʼul komissiya yoki ishchi guruh tashkil etilgan |
| | | 3.3.2 | Oʻquvchilar harakati boʻyicha buyruqlar, komissiya bayonnomalari va boshqa |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | tegishli hujjatlar asosli, adolatli va shaffof tarzda qabul qilingan holda to‘g‘ri rasmiylashtirilgan hamda ularning hisoboti va monitoringi muntazam yuritilgan |
| | | 3.3.3 | Kursdan-kursga o‘tkazishning mezonlari aniq belgilangan hamda kursdan-kursga o‘tkazish yoki chetlashtirish bo‘yicha qaror qabul qilishda akademik ko‘rsatkichlar ham hisobga olingan |
| | | 3.3.4 | O‘quvchilar harakati bo‘yicha o‘quvchilarning huquqlari ta’minlangan hamda o‘quvchilar harakati jarayonlari haqida o‘quvchilar va ularning ota-onalari xabardor qilingan, shuningdek o‘quvchilar harakati bo‘yicha barcha o‘zgarishlar ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarida (EMIS AL) o‘z vaqtida va to‘liq aks ettirilgan |
| | | 3.3.5 | O‘quvchilar harakati bo‘yicha shikoyat berish uchun ochiq va qulay tizim yaratilgan va shikoyatlarni ko‘rib chiqish jarayonlari samarali tashkil etilgan |
| | 3.4. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari tashkil etilgani, ularning mehnat bozoridagi va ta’limning keyingi bosqichi bo‘yicha mavjud imkoniyatlar to‘g‘risidagi ishonchli axborotlar bilan ta’minlangani | 3.4.1 | O‘rta maxsus ta’lim tashkilotida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va ta’limni keyingi bosqichda davom ettirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 3.4.2 | O‘quvchilarga mehnat bozoridagi bo‘sh ish o‘rinlari, karyera kunlari, potensial ish beruvchilar va kasbga yo‘naltirish hamda ta’limni keyingi bosqichida davom ettirish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan |
| | | 3.4.3 | O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ish beruvchilar va ta’limni keyingi bosqichida davom ettirish bo‘yicha oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 3.4.4 | O‘rta maxsus ta’lim tashkiloti tomonidan o‘quvchilar ishtirokida kasbga yo‘naltirish va ta’limni keyingi bosqichida davom ettirish bo‘yicha tadbirlarni (seminarlar, uchrashuvlar, maslahatlar, davra suhbatlari yoki boshqalar) o‘tkazib borish yo‘lga qo‘yilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 3.4.5 Mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar o'rta maxsus ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlariga muntazam joylashtirilgan va yangilanib borilgan |
| | 3.5. O'quvchilarning respublika va xalqaro fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda (bundan buyon matnda tanlovlar deb yuritiladi) ishtirok etgani hamda ularda sovrindor bo'lgan o'quvchilarning rag'batlantirilgani | 3.5.1 O'quvchilarning tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi mavjud |
| | | 3.5.2 O'quvchilarning tanlovlardagi ishtirokini muvofiqlashtirish uchun bo'linma tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan |
| | | 3.5.3 O'quvchilarni tanlovlarga tayyorlash bo'yicha to'garaklar yoki maxsus kurslar tashkil etilgan |
| | | 3.5.4 O'quvchilarning tanlovlardagi ishtiroki bo'yicha monitoring yuritilgan, shuningdek tanlovlarda qatnashgan o'quvchilarning ro'yxati va ularning natijalari qayd etib borilgan |
| | | 3.5.5 Tanlov natijalari asosida pedagoglar va o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralari ko'rilgan |
| | | 3.5.6 O'quvchilarning tanlovlardagi natijalari tizimli ravishda tahlil qilingan va tanlovlarga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan |
| | 3.6. Bitiruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgani | 3.6.1 O'quvchilarni oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 3.6.2 O'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlash bo'yicha kurslar va to'garaklar tashkil etilgan |
| | | 3.6.3 O'quvchilarning oliy ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan tadbirlarda (seminarlar, uchrashuvlar, maslahatlar, davra suhbatlari yoki boshqalar) ishtiroki bo'yicha shart-sharoitlar yaratilgan |
| | | 3.6.4 Bitiruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga kirish ko'rsatkichlari bo'yicha monitoring va tahlil yuritib borilgan hamda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrovini kengaytirish bo'yicha choralar ko'rilgan* |
| **4.** O'quv jarayonini tashkil etish | 4.1. O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqilgani va | 4.1.1 Ishchi o'quv reja va fan dasturlari, shuningdek o'quv jarayoni grafigi davlat ta'lim standartlarining talablariga mos* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | belgilangan tartibda tasdiqlangani | 4.1.2 | O‘quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari (ishchi o‘quv rejalar, ishchi o‘quv dasturlar, o‘quv jarayoni grafigi va o‘quv mashg‘ulotlari (dars) jadvali) pedagogik kengashda muhokamadan o‘tkazilgan holda tasdiqlangan |
| | | 4.1.3 | O‘quv mashg‘ulotlari (dars) jadvali ishchi o‘quv rejalar va o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq ishlab chiqilgan |
| | | 4.1.4 | O‘quv jarayonini tashkil etish uchun o‘quv-uslubiy resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) samarali va maqsadli ravishda foydalanilgan |
| | 4.2. Pedagoglarning o‘quv-me’yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi | 4.2.1 | Pedagoglarning o‘quv-me’yoriy hujjatlarini (ishchi o‘quv dasturi, o‘qitish materiallari) ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha muhokamalar va seminar-treninglar tashkil etilgan |
| | | 4.2.2 | Pedagoglarning o‘quv-me’yoriy hujjatlari ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda pedagogik kengash muhokamasidan o‘tkazilgan holda hujjatlashtirilgan |
| | | 4.2.3 | Ishlab chiqilgan o‘quv-me’yoriy hujjatlar amaliyotga tatbiq etilgan hamda ushbu hujjatlarning amalda qo‘llanilishi doimiy ravishda monitoring va tahlil qilingan |
| | | 4.2.4 | Monitoring va tahlil natijasida o‘quv-me’yoriy hujjatlarni qo‘llashda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijro etilgan hamda shu asosida o‘quv-me’yoriy hujjatlar takomillashtirib borilgan |
| | 4.3. Pedagoglarga o‘quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani | 4.3.1 | Pedagoglarning o‘quv (ish) yuklamalari o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida pedagog xodimlar ish faoliyatining (o‘quv va pedagogik yuklamasining) vaqt me’yorlari va shtatlar jadvaliga muvofiq ishlab chiqilgan |
| | | 4.3.2 | O‘quv (ish) yuklamalarining taqsimotida pedagoglarning mutaxassisligi, dars beradigan fanlari, ish turlari va vaqt me’yori (soat) hisobga olingan* |
| | | 4.3.3 | O‘quv (ish) yuklamalarning bajarilish holati doimiy ravishda monitoring |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | qilingan va davriy (oylik, yarim yillik va yillik) tahlillar amalga oshirilgan hamda hisobotlar yuritilgan |
| | | 4.3.4 | Monitoring va tahlil jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan hamda ijrosi ta'minlangan |
| | | 4.3.5 | Monitoring va tahlil jarayonlari ochiq va adolatli tarzda amalga oshirilganligi va chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta'minlanganligi bo'yicha ma'lumotlar pedagogik kengashga taqdim etilgan va muhokama qilingan |
| | 4.4. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani | 4.4.1 | Fanlar va laboratoriya mashg'ulotlarni o'qitish jarayonida kutilgan o'quv natijalariga erishishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullari doimiy ravishda qo'llanilgan |
| | | 4.4.2 | Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarining qamrovi va murakkabligi ta'lim dasturining darajasi va o'quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda belgilangan |
| | | 4.4.3 | Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llash samaradorligi muntazam monitoring va tahlil qilib borilgan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklar bo'yicha pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish choralari ko'rilgan |
| | | 4.4.4 | Monitoring, tahlil va pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish natijalari asosida o'rta maxsus ta'lim tashkilotida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar doimiy ravishda yangilangan hamda takomillashtirilgan |
| | | 4.4.5 | Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini qo'llash samaradorligi bo'yicha yillik tahliliy hisobot tayyorlangan va pedagogik kengashda ko'rib chiqilgan |
| | 4.5. Ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani | 4.5.1 | Rahbar va pedagog kadrlar tomonidan dars tahlillarini amalga oshirish bo'yicha reja-grafik ishlab chiqilgan |
| | | 4.5.2 | Dars tahlilida ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish usullari va baholash vositalari inobatga |

| | | |
|---|---|---|
| | | olingan hamda tahlil jarayoni turli usullar (maxsus shakl, cheklist, rubrika yoki boshqalar) asosida amalga oshirilgan |
| | | 4.5.3 Dars tahlili natijalari pedagoglar bilan individual yoki guruh shaklida muhokama qilingan |
| | | 4.5.4 Dars tahlili natijalari ta'lim sifatini ichki ta'minlash hisobotlariga kiritilgan va pedagogik kengashda ko'rib chiqilgan |
| | | 4.5.5 Pedagogik kengashda qabul qilingan qarorlarning bajarilishi monitoring qilingan hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan va ijrosi nazorat qilingan |
| **5. Inson resurslari** | 5.1. Ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning ma'lumoti, mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi va sifat tarkibi | 5.1.1 Fanlar bo'yicha asosiy shtatdagi pedagoglar mavjud hamda ushbu pedagoglarning diplomi (sertifikati) va malaka toifasi ta'lim yo'nalishiga mos keladi* |
| | | 5.1.2 O'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun oliy ma'lumotli pedagog kadrlar va amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan xodimlar mavjud |
| | | 5.1.3 Pedagog kadrlar o'zining ixtisosligi bo'yicha qayta tayyorlash va (yoki) malaka oshirish kurslarini tamomlagan hamda diplomga (sertifikatga) ega |
| | | 5.1.4 O'rta maxsus ta'lim tashkilotida pedagog kadrlar attestatsiyadan o'tish lozimligi to'g'risida oldindan xabardor qilingan hamda ularning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash tashkil etilgan |
| | | 5.1.5 Pedagog kadrlarning mutaxassisligi bilan dars beradigan fanlarning o'zaro mosligi yuzasidan monitoring yuritilgan |
| | | 5.1.6 Monitoring natijalari asosida pedagoglarning diplomi (sertifikati), malaka toifasi va sohaviy tajribasiga mos fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib borishi ta'minlangan |
| | 5.2. Ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarning belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining | 5.2.1 Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish jarayonlari mehnat to'g'risidagi qonunchilik va o'rta maxsus ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari asosida amalga oshirilgan hamda ushbu jarayonlarga doir hujjatlar (tanlov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilgani | | hujjatlari, suhbat bayonnomalari, arizalar, buyruqlar yoki boshqalar) rasmiylashtirilgan |
| | | 5.2.2 | Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish jarayonlari ochiqlik va adolat tamoyillari hamda tanlov (imtihon, suhbat) asosida amalga oshirilgan |
| | | 5.2.3 | Pedagog kadrlar bo‘yicha elektron yoki qog‘oz shakldagi shaxsiy portfoliolar (papkalar) shakllantirilgan |
| | | 5.2.4 | Pedagog kadrlarning qo‘nimsizligi bo‘yicha doimiy ravishda monitoring va tahlil olib borilgan, shu jumladan pedagog kadrlar tarkibidagi o‘zgarishlar dinamikasi va mehnat shartnomasini bekor qilish sabablari o‘rganilgan |
| | | 5.2.5 | Monitoring va tahlil natijalari asosida chora-tadbirlar rejasi va yillik hisobot ishlab chiqilgan hamda chora-tadbirlar rejasining ijrosi ta’minlangan |
| | | 5.2.6 | Pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj to‘g‘risida oliy ta’lim tashkilotlari va O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy bo‘linmalariga chiqarilgan murojaatlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda qilingan e’lonlar mavjud |
| | | 5.2.7 | Pedagog kadrlar qo‘nimsizligini oldini olish maqsadida kadrlar zaxirasi shakllantirilgan |
| | 5.3. Rahbar va pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo‘lga qo‘yilgani hamda ularning moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilgani | 5.3.1 | Rahbar va pedagog kadrlarning faoliyati samaradorligi natijalari asosida ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan hamda o‘rta maxsus ta’lim tashkiloti tomonidan amalga oshirib borilgan |
| | | 5.3.2 | Rahbar va pedagog kadrlarning faoliyati samaradorligini baholash jarayonlari o‘rta maxsus ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylikda o‘tkazib borilgan |
| | | 5.3.3 | Baholash natijalari asosida rahbar va pedagog kadrlarning reytingi (samaradorlik ko‘rsatkichlari) shakllantirilgan hamda rasmiylashtirilgan |
| | | 5.3.4 | Rahbar va pedagog kadrlarni baholash hamda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish jarayonlarida shaffoflik hamda adolat tamoyillariga amal qilingan |

| | | |
|---|---|---|
| | 5.4. Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish, tajribasini ommalashtirish va malaka oshirishi uchun sharoit yaratilgani | 5.4.1 Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha ehtiyojlarni aniqlash yuzasidan monitoring o'tkazib borilgan |
| | | 5.4.2 Monitoring natijalari asosida pedagog kadrlarning malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etishi bo'yicha grafiklar ishlab chiqilgan |
| | | 5.4.3 Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etish yo'lga qo'yilgan hamda pedagog kadrlar grafik asosida malaka oshirish va qayta tayyorlashga yuborilgan* |
| | | 5.4.4 Pedagog kadrlarni o'rta maxsus ta'lim tashkilotining kasbiy rivojlantirish tizimiga muvofiq ilmiy-amaliy konferensiya, vebinarlar, seminar-treninglar va forumlarga yuborish (ishtirokini ta'minlash, tashkil etish) choralari ko'rilgan |
| | | 5.4.5 Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari hamda kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida pedagog kadrlar tomonidan o'zlashtirilgan kompetensiya va ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida seminar-treninglar, mahorat va ochiq darslar tashkil etilgan, shuningdek "ustoz — shogird" va mentorlik tizimlari joriy etilgan |
| | 5.5. O'quv jarayonlariga oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining jalb qilingani | 5.5.1 O'quv jarayonlariga oliy ta'lim tashkilotlaridan professor-o'qituvchilar jalb qilish bo'yicha hamkorlik hujjatlari (memorandumlar, shartnomalar) mavjud |
| | | 5.5.2 Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilarini o'quv jarayonlariga jalb qilish bilan bog'liq jarayonlar hujjatlashtirilgan (ishga qabul qilinganligi to'g'risida buyruq, mehnat shartnomasi va boshqalar) va saqlangan |
| | | 5.5.3 Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilgan dars mashg'ulotlari muntazam monitoring va tahlil qilib borilgan |
| | | 5.5.4 Monitoring va tahlil natijalari asosida yillik hisobot ishlab chiqilgan hamda o'quv jarayonlarini takomillashtirishda oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan |

| | | |
|---|---|---|
| **6. O‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash** | 6.1. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilish uchun to‘garak mashg‘ulotlarining yo‘lga qo‘yilgani va ularning samaradorligi | 6.1.1 To‘garaklar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha yillik reja-grafik mavjud, to‘garak rahbarlari belgilangan hamda to‘garak dasturlari ishlab chiqilgan |
| | | 6.1.2 To‘garak mashg‘ulotlari yillik reja-grafik asosida o‘tkazilgan hamda qaydnoma jurnali yuritilgan yoki elektron tizim orqali hisobga olingan |
| | | 6.1.3 To‘garaklarning o‘rta maxsus ta’lim tashkilotidagi o‘quvchilarni qamrab olish darajasi hamda qamrab olingan o‘quvchilarning to‘garaklardagi ishtiroki bo‘yicha doimiy monitoring amalga oshirilgan |
| | | 6.1.4 To‘garaklar doirasida (musobaqalar, ko‘rgazmalar, tanlovlar, loyihalar yoki boshqalar) o‘quvchilar erishgan natijalar e’tirof etilgan hamda ushbu o‘quvchilar rag‘batlantirilgan |
| | | 6.1.5 To‘garaklar faoliyati yuzasidan o‘quvchilar, ota-onalar va pedagoglarning taklif va fikr-mulohazalari o‘rganilgan hamda to‘garaklarning samaradorligi tahlil qilingan |
| | | 6.1.6 Tahlil natijalari asosida to‘garaklar sifatini oshirish, qamrovini kengaytirish yoki yangi yo‘nalishlarni joriy etish bo‘yicha choralar ko‘rilgan |
| | 6.2. O‘quvchilarga yetarli darajada ta’lim olish va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maslahat berish va karyera xizmatlarining tashkil etilgani | 6.2.1 O‘quvchilar bilan ishlash bo‘yicha psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maslahat berish xizmati faoliyati muntazam yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 6.2.2 O‘quvchilar bilan psixologik qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy rivojlanish va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha suhbatlar (treninglar) o‘tkazilgan |
| | | 6.2.3 Ta’lim olishda qiynalayotgan yoki qo‘shimcha yordamga muhtoj o‘quvchilar bilan individual maslahatlashuvlar o‘tkazilgan |
| | | 6.2.4 O‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan maslahat xizmatlari tashkil etilgan va doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatgan |
| | | 6.2.5 Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar bo‘yicha seminarlar, bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari va ish beruvchilar bilan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | uchrashuvlar tashkil etilgan yoki ularda o‘quvchilar ishtiroki ta’minlangan |
| | | 6.2.6 | O‘quvchilarga yetarli darajada ta’lim olish va psixologik qo‘llab-quvvatlash yuzasidan maslahat berish xizmatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan hamda amaliy choralar ko‘rilgan |
| | 6.3. Ta’lim xizmatlari yuzasidan o‘quvchilar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko‘rilgani | 6.3.1 | O‘rta maxsus ta’lim tashkiloti tomonidan ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari bo‘yicha so‘rovnoma, suhbat, elektron anketa, intervyu va fokus-guruhlar (bundan buyon matnda so‘rovnoma deb yuritiladi), ularning mavzulari, savollar (masalalar) ro‘yxati, so‘rovnomani o‘tkazish muddatlari hamda mas’ul ijrochilar belgilangan |
| | | 6.3.2 | Ta’lim xizmatlarining sifati yuzasidan o‘tkaziladigan so‘rovnomalar to‘g‘risida o‘quvchilar muntazam xabardor qilingan hamda tizimli ravishda ularning ishtirokini ta’minlash choralari ko‘rilgan |
| | | 6.3.3 | So‘rovnoma jarayonlari ochiqlik, tenglik va xolislik tamoyillari asosida tashkil etilgan |
| | | 6.3.4 | O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari mas’ul ijrochilar tomonidan tahlil qilingan, o‘quvchilarning ta’lim xizmatlarini takomillashtirishga oid taklif va fikr-mulohazalar muntazam yig‘ilgan |
| | | 6.3.5 | So‘rovnoma natijalari bo‘yicha tahliliy hisobotlar tayyorlangan hamda pedagogik kengashga taqdim etib borilgan |
| | | 6.3.6 | So‘rovnoma doirasida bildirilgan taklif va fikr-mulohazalar hamda tayyorlangan tahliliy hisobotlar asosida ta’lim xizmatlarini takomillashtirish choralari ko‘rilgan |
| | | 6.3.7 | So‘rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar o‘rta maxsus ta’lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e’lon qilib borilgan |
| | 6.4. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o‘quvchilarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo‘llab- | 6.4.1 | Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash (rag‘batlantirish) mexanizmlari ishlab chiqilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani | 6.4.2 | Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o‘quvchilarning ro‘yxatlari shakllantirilgan hamda ular uchun individual ta’lim trayektoriyalari ishlab chiqilgan |
| | | 6.4.3 | Ijtimoiy yordam, psixologik qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlar, moddiy va ma’naviy ko‘mak xizmatlari mavjud |
| | | 6.4.4 | Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim sharoitlari (moslashtirilgan xona, maxsus o‘quv materiallari va ko‘rgazmali materiallar, Brayl alifbosidagi kitoblar, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar) yaratilgan |
| | | 6.4.5 | O‘quvchilarning o‘z iqtidorini ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan hamda iqtidorli o‘quvchilarni saralash, qo‘llab-quvvatlash va e’tirof etishda ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga amal qilingan |
| | | 6.4.6 | Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi monitoring qilingan hamda ushbu mexanizmlar takomillashtirilgan |
| | 6.5. Yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilgani | 6.5.1 | Yoshlar bilan ishlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha bo‘linma tashkil etilgan yoki mas’ul xodim(lar) ajratilgan hamda ushbu masalalar bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | 6.5.2 | Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o‘quvchilar bilan tarbiyaviy suhbatlar, profilaktik yig‘ilishlar, davra suhbatlari va psixologik treninglar o‘tkazilgan |
| | | 6.5.3 | Chora-tadbirlar rejasining samaradorligi monitoring qilingan, muammoli holatlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilgan |
| | | 6.5.4 | Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, “Mahalla yettiligi” a’zolari va boshqa hamkor tashkilotlar bilan profilaktik tadbirlar amalga oshirilgan |
| | | 6.5.5 | Huquqbuzarlikka moyil yoki ijtimoiy xavfli toifadagi o‘quvchilar bilan individual profilaktik ishlar olib borilgan va hujjatlashtirilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | 6.5.6 Yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, sport musobaqalari va madaniy-maʼrifiy tadbirlar orqali ularning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish ishlari yoʻlga qoʻyilgan |
| | 6.6. Oʻquvchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini koʻrib chiqish tartibining mavjudligi | 6.6.1 Oʻquvchilarning huquqlarini himoya qilish hamda ularning ariza va shikoyatlarini koʻrib chiqish boʻyicha ichki hujjatlar tasdiqlangan |
| | | 6.6.2 Ariza va shikoyatlarni koʻrib chiqish boʻyicha tarkibiy boʻlinma tashkil etilgan va (yoki) masʼul ijrochilar belgilangan, shuningdek ularning faoliyati yuzasidan hisobotlar yuritilgan |
| | | 6.6.3 Ariza va shikoyatlar oʻquvchilar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali (qutilar, onlayn forma, psixolog, masʼul shaxs, ishonch telefoni yoki boshqalar) qabul qilib borilgan |
| | | 6.6.4 Ariza va shikoyatlar roʻyxati yuritilgan, ularni koʻrib chiqish muddatlari belgilangan hamda koʻrib chiqish jarayonlari hujjatlashtirilgan |
| | | 6.6.5 Ariza va shikoyatlarni koʻrib chiqish jarayonlari ochiqlik, hisobdorlik va manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻymaslik tamoyillariga asosan amalga oshirilgan |
| | | 6.6.6 Ariza va shikoyatlarning tahlili asosida oʻquvchilarning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va ijrosi yuritilgan |
| **7. Moddiy-texnik taʼminot** | 7.1. Taʼlim yoʻnalishi xususiyatidan kelib chiqib oʻquv jarayonini tashkil qilish uchun oʻquvchilar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, reagentlar va dasturiy taʼminot bilan taʼminlangani | 7.1.1 Oʻquvchilar kontingenti va taʼlim dasturlariga mos bino va inshootlar, oʻquv va laboratoriya xonalari mavjud* |
| | | 7.1.2 Laboratoriya mashgʻulotlari uchun zarur moddiy-texnik baza, reaktiv moddalar, xomashyo va yonilgʻi-moylash materiallari, reagentlar, jihozlar, asbob-uskunalar ishchi holatda hamda xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda saqlangan |
| | | 7.1.3 Oʻquv jarayonlariga mos keladigan dasturiy taʼminot, simulyatorlar, oʻquv platformalari va kompyuter texnikalari ishchi holatda |
| | | 7.1.4 Moddiy-texnik bazaning holati boʻyicha muntazam monitoring oʻtkazilgan hamda monitoring natijalari asosida aniqlangan |

| | | |
|---|---|---|
| | | muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan choralar ko‘rilgan |
| | | 7.1.5 O‘quvchilar kontingenti va ta’lim dasturlariga mos ravishda mavjud jihozlar, asbob-uskunalar va laboratoriya resurslarini yangilash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan |
| | 7.2. Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) o‘quvchilar kontingentiga mos o‘quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda unda o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi | 7.2.1 O‘quvchilar kontingenti va ta’lim dasturlariga mos bino va inshootlar, o‘quv va laboratoriya xonalari mavjud* |
| | | 7.2.2 Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun zarur moddiy-texnik baza, reaktiv moddalar, xomashyo va yonilg‘i-moylash materiallari, reagentlar, jihozlar, asbob-uskunalar ishchi holatda hamda xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda saqlangan |
| | | 7.2.3 O‘quv jarayonlariga mos keladigan dasturiy ta’minot, simulyatorlar, o‘quv platformalari va kompyuter texnikalari ishchi holatda |
| | | 7.2.4 Moddiy-texnik bazaning holati bo‘yicha muntazam monitoring o‘tkazilgan hamda monitoring natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan choralar ko‘rilgan |
| | | 7.2.5 O‘quvchilar kontingenti va ta’lim dasturlariga mos ravishda mavjud jihozlar, asbob-uskunalar va laboratoriya resurslarini yangilash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan |
| | | 7.2.6 ARMda o‘quvchilar kontingentiga mos darslik, o‘quv va badiiy adabiyotlar mavjud* |
| | | 7.2.7 ARM zamonaviy AKT va elektron qurilmalar bilan jihozlangan va ulardan foydalanish bo‘yicha o‘quvchilarga doimiy ravishda tushuntirishlar berilgan |
| | | 7.2.8 ARMda o‘quv zali, elektron kutubxonadan foydalanish va internet tarmog‘iga ulanish imkoniyatlari yaratilgan |
| | 7.3. Inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining | 7.3.1 Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondida darsliklar, o‘quv adabiyotlar, o‘qitish materiallari to‘plami, elektron ta’lim resurslari va multimedia kontentlari raqamli formatda joylashtirilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani | 7.3.2 ARM va elektron ta’lim resurslaridan foydalanish tartibi qulay va ochiq, elektron ma’lumotlar bazasiga erkin kirish ta’minlangan |
| | | 7.3.3 ARM xizmatlaridan foydalanish samaradorligi bo‘yicha monitoring va foydalanuvchilar statistikasi yuritilgan va tahlil qilib borilgan |
| | | 7.3.4 ARM faoliyati natijalari pedagogik kengashda muntazam muhokama qilingan, shuningdek ARM faoliyatini takomillashtirish hamda zarur o‘quv-uslubiy va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan, ijrosi ta’minlangan va hisoboti yuritib borilgan |
| | | 7.3.5 Kutubxona fondi muntazam yangilanib borilgan |
| | | 7.3.6 O‘rta maxsus ta’lim tashkilotining binolari va o‘quv xonalari, shu jumladan yo‘laklar, panduslar, eshiklar va sanitariya xonalari (hojatxonalar) nogironligi bo‘lgan shaxslar (o‘quvchilar) uchun moslashtirilgan |
| | 7.4. Barcha o‘quv va laboratoriya xonalarida jihozlarning tegishli xavfsizlik qoidalari hamda o‘qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani | 7.4.1 Ta’lim dasturlari bo‘yicha maxsus o‘quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko‘rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud |
| | | 7.4.2 Inklyuziv ta’lim uchun AKT, elektron ta’lim resurslari va dasturiy ta’minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl alifbosi, subtitr yoki boshqalar) yaratilgan |
| | | 7.4.3 Inklyuziv ta’lim metodikasi bo‘yicha tayyorlangan va zarur ko‘nikmalarga ega pedagog(lar) va (yoki) psixolog mavjud |
| | | 7.4.4 O‘quv jarayonida inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik va psixologik yordam ko‘rsatish tizimi mavjud |
| | | 7.4.5 Inklyuziv ta’lim sharoitlarining amalda qo‘llanishi va samaradorligi bo‘yicha monitoring olib borilgan |
| | 7.5. O‘quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan | 7.5.1 O‘quv va laboratoriya xonalarida jihozlar va asbob-uskunalarning joylashuvi o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni va amaliyot jarayonlariga mos |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | jihozlangani va raqamli ta'lim muhiti yaratilgani | 7.5.2 | O'quv va laboratoriya xonalarida jihozlar mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos ravishda joylashtirilgan |
| | | 7.5.3 | O'quv va laboratoriya xonalarida erkin harakatlanish ta'minlangan hamda favqulodda holatlarda evakuatsiya chiqish yo'llari belgilangan |
| | | 7.5.4 | Jihozlar va asbob-uskunalarni joylashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va jismoniy imkoniyatlari, mashg'ulot turlari inobatga olingan |
| | | 7.5.5 | O'quv va laboratoriya xonalarida jihozlar va asbob-uskunalarning joylashuvi o'quv mashg'ulotlarining mazmuniga va amaliyot jarayonlariga mos |
| | | 7.5.6 | O'quv xonalari AKT vositalari (kompyuterlar, elektron doskalar, proyektorlar yoki boshqalar) bilan jihozlangan |
| | 7.6. Ta'lim tashkilotida o'quvchilar kontingentiga mos bufet/oshxona, o'rindiqlar va sport maydonlarining mavjudligi | 7.6.1 | Raqamli ta'lim muhiti yaratish uchun zarur bo'lgan internet tarmog'i, Wi-Fi zonalari va lokal tarmoqlar barqaror (ishchi holatda) |
| | | 7.6.2 | Pedagoglar va o'quvchilarning elektron platformalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan |
| | | 7.6.3 | AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha xavfsizlik texnikasi va tartib-qoidalari ishlab chiqilgan |
| | | 7.6.4 | AKT vositalarining holati bo'yicha monitoring o'tkazilgan, xizmat ko'rsatish, yangilash va ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan |
| | | 7.6.5 | Raqamli ta'lim muhitidan foydalanish samaradorligi bo'yicha tahlillar o'tkazilgan hamda o'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |

## Ilova 4. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish yo‘nalishlari, mezonlari va indikatorlari

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari kompleks davlat akkreditatsiyasi doirasida 7 ta yo‘nalish, 34 ta mezon va 147 ta indikator bo‘yicha baholanadi.

Majburiy mezonlar va indikatorlar yulduzcha (*) bilan belgilangan.

| Yo‘nalish | | Mezon | | Indikator | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Tashkiliy-boshqaruv faoliyati** | 1.1 | Ta’lim tashkilotida Ilmiy-pedagogik (metodik) kengashning (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi | 1.1.1 | Kengash tashkil etilgan hamda ta’lim tashkilotining boshqaruv tuzilmasida o‘z o‘rniga ega |
| | | | | 1.1.2 | Kengash tarkibi, vakolatlari, funksiyalari va mas’uliyati ichki nizomlarda aniq belgilangan, a’zolarning malakasi ta’lim sifati bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi |
| | | | | 1.1.3 | Kengashning yillik ish rejasi tasdiqlangan hamda reja asosida o‘tkazilgan yig‘ilishlar, ko‘rib chiqilgan masalalar va qabul qilingan qarorlar tegishli tartibda bayonnomalarda rasmiylashtirilgan |
| | | | | 1.1.4 | Kengash tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ta’lim sifati, strategik rivojlanish, moliyaviy boshqaruv va resurslardan samarali foydalanishni yaxshilashga qaratilgan |
| | | | | 1.1.5 | Kengash qarorlarining ijrosi bo‘yicha mas’ullar va muddatlar aniqlangan, qarorlar o‘quv jarayoni, ilmiy-metodik faoliyat, moddiy-texnik baza va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga ta’sir ko‘rsatadi |
| | | | | 1.1.6 | Kengash qarorlarining ijrosi va samaradorligi bo‘yicha monitoring tizimi joriy etilgan, natijalar muntazam tahlil qilinadi va zarur hollarda tuzatish chora-tadbirlari ko‘riladi |
| | | 1.2 | Ta’lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta’lim sifatini ta’minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo‘naltirilgani | 1.2.1 | Ta’lim tashkilotining istiqbolli rivojlanish rejasi, yillik ish rejasi va moliyaviy rejasi (smeta) o‘zaro uyg‘un holda ishlab chiqilgan, ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan va tasdiqlangan |
| | | | | 1.2.2 | Moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalari aniqlangan, ulardan foydalanish tartibi va ustuvor |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | yo‘nalishlari ta’lim sifatini ta’minlashga qaratilgan holda hujjatlashtirilgan |
| | | 1.2.3 | Moliyaviy rejada ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish va moddiy-texnik bazani yangilashga yo‘naltirilgan xarajatlar aniq belgilangan, mablag‘lar maqsadli va samarali yo‘naltiriladi |
| | | 1.2.4 | Mablag‘larning belgilangan yo‘nalishlarda maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlovchi ichki audit va moliyaviy nazorat jarayonlari yo‘lga qo‘yilgan, audit natijalari bo‘yicha tegishli tuzatish va takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘riladi |
| | 1.3 Ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani | 1.3.1 | Ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasi sohaning ustuvor yo‘nalishlari, mehnat bozori tahlillari va kadrlar malakasini oshirish bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan* |
| | | 1.3.2 | Ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasida maqsadlar, ustuvor yo‘nalishlar, muddat va mas’ul ijrochilar hamda kutilayotgan natijalar belgilangan |
| | | 1.3.3 | Ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy, moddiy va inson resurslari ajratilgan, ularning taqsimoti ustuvor yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirilgan |
| | | 1.3.4 | Ta’lim tashkilotini rivojlantirish rejasining bajarilish holati va natijalarini ochiq hamda shaffof tarzda jamoatchilikka yetkazib borish mexanizmlari yaratilgan |
| | 1.4 Ta’lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasi | 1.4.1 | Tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 1.4.2 | Tashkilotning hududiy va respublika darajasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishdagi ishtiroki va qo‘shgan hissasi |
| | | 1.4.3 | Madaniy-ma’rifiy yoki ilmiy tadbirlar (konferensiya, seminar, davra suhbati, festival, ko‘rgazma va boshqa anjumanlar) tashkil etilgan |
| | 1.5 Ta’lim jarayonlarini boshqarish hamda ta’lim | 1.5.1 | Ta’lim tashkilotida o‘quv jarayonlari va ta’lim sifatini boshqarishga xizmat |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | sifatini nazorat qilish bo‘yicha axborot tizimining mavjudligi va ushbu tizimning ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani | | qiluvchi raqamli axborot tizimi joriy etilgan |
| | | | 1.5.2 | Axborot tizimi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlariga integratsiya qilingan, ma’lumotlar avtomatik almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan |
| | | | 1.5.3 | Axborot tizimi foydalanuvchilar uchun qulay, ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi ta’minlangan |
| | | | 1.5.4 | Axborot tizimi orqali o‘quv jarayonlarini rejalashtirish, monitoring va hisobot ishlari yuritilgan, ma’lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlangan va kollegial organining yig‘ilishlarida muhokama qilingan |
| | | | 1.5.5 | Axborot tizimining samaradorligi, ma’lumotlar bilan ishlash jarayonlari va integratsiya holati bo‘yicha doimiy monitoring tizimi amalga oshirilgan hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun zarur tuzatishlar kiritish chora-tadbirlari ko‘rilgan |
| | 1.6 | Ta’lim tashkilotini xalqarolashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yilgan | 1.6.1 | Xorijiy ta’lim, ilmiy va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan |
| | | | 1.6.2 | Pedagoglar sohasi bo‘yicha nufuzli xorijiy tashkilotlarda malaka oshirish va stajirovkalarda ishtirok etgan |
| | | | 1.6.3 | Ta’lim jarayoniga malakali xorijiy mutaxassislar jalb etilgan |
| | | | 1.6.4 | Xalqaro hamkorlik orqali o‘quv jarayonlari, ilmiy salohiyat va ta’lim dasturlarining rivojlanishiga erishilgan |
| **2 Quality Assurance in Education** | 2.1 | Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta’lim sifatini ichki ta’minlashning yo‘lga qo‘yilgani | 2.1.1 | Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan, uning asosiy maqsad va vazifalari belgilangan |
| | | | 2.1.2 | Ta’lim tashkilotida ta’lim sifati samaradorligini aniqlash bo‘yicha tegishli mezonlar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan |
| | | | 2.1.3 | Manfaatdor tomonlar fikrini o‘rganish bo‘yicha so‘rov va tahlil ishlari tizimli amalga oshirilgan |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 2.2 | Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani | 2.2.1 | Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi Kengash yig'ilishlarida muhokama qilingan |
| | | | 2.2.2 | Tahlil natijalari asosida malaka oshirish tizimida aniqlangan muammolar, ularni bartaraf etish, takomillashtirish bo'yicha takliflar olingan |
| | | | 2.2.3 | Tahlillar hamda manfaatdor tomonlar tavsiyalari asosida ta'lim dasturlari va jarayonlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan |
| | 2.3 | Ichki baholash jarayoni o'tkazilgani, baholash natijalari asosida chora-tadbirlarning amalga oshirilgani. | 2.3.1 | Ichki baholash jarayoni ta'lim tashkilotida tasdiqlangan tartib asosida o'tkazilgan |
| | | | 2.3.2 | Ichki baholash natijalari bo'yicha aniqlangan muammo va rivojlanish sohalari uchun aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan |
| | | | 2.3.3 | Chora-tadbirlar rejasidagi bandlar belgilangan muddatlarda bajarilgan, ijro holati bo'yicha muntazam monitoring va hisobdorlik tizimi yo'lga qo'yilgan |
| | 2.4 | Tinglovchilar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi | 2.4.1 | Tinglovchilar bilimini baholash tizimi va mezonlari bo'yicha tartib va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan |
| | | | 2.4.2 | Baholash tizimi ta'lim dasturlaridagi o'quv natijalari va fan (modul) maqsadlariga mos ravishda ishlab chiqilgan |
| | | | 2.4.3 | Pedagoglar baholash mezonlaridan xabardor va ularni amaliyotda qo'llay oladi |
| | | | 2.4.4 | Baholash jarayonida raqamli texnologiyalar samarali qo'llaniladi hamda jarayon ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanib tashkil etilgan |
| | | | 2.4.5 | Baholash natijalari bo'yicha apellyatsiya yoki qayta ko'rib chiqish mexanizmi mavjud |
| | | | 2.4.6 | Baholash natijalari doimiy monitoring qilib borilgan hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda muhokama qilingan |
| | 2.5 | Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid | 2.5.1 | Akademik halollik qoidalari ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari orqali rasman tasdiqlangan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi | 2.5.2 | Akademik halollikni ta’minlash uchun mas’ul (komissiya yoki bo‘linma) belgilangan, uning vakolatlari, funksiyasi hujjatlashtirilgan hamda muntazam faoliyat yuritadi |
| | | 2.5.3 | Tinglovchilar uchun akademik halollik qoidalariga oid targ‘ibot ishlari muntazam o‘tkazilgan va axborot materiallari tayyorlangan |
| | | 2.5.4 | Ilmiy va o‘quv ishlarida plagiat hamda soxtalik holatlarini oldini olish maqsadida elektron tekshiruv tizimi joriy etilgan, tinglovchilar va pedagog xodimlar uchun tizimdan ochiq foydalanish imkoniyati yaratilgan |
| | 2.6 Ish beruvchilarning malaka oshirgan tinglovchilarga oid fikr-mulohazalarining tahlil qilingani | 2.6.1 | Ta’lim tashkilotida ish beruvchilar fikrini yig‘ish bo‘yicha amaliyot (anketalar, intervyular, onlayn platforma) yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 2.6.2 | Ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik va aloqa mexanizmlarining yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 2.6.3 | Ish beruvchilar fikrlari asosida ta’lim dasturlariga o‘zgartirishlar kiritilishi imkoniyati mavjud |
| 3 **Tinglovchilar faoliyati** | 3.1 Qabul parametrlarining ta’lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi | 3.1.1 | Tinglovchilarni o‘qishga qabul qilishda ta’lim tashkilotining quvvati, bino va inshootlar sig‘imi, moliyaviy resurslari hamda moddiy-texnik bazasi imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilangan* |
| | | 3.1.2 | Ta’lim tashkilotining o‘qituvchilari va tinglovchilari sonining bir nafar o‘qituvchi hisobiga nisbatining cheklangan normativlari mavjud |
| | | 3.1.3 | Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan didaktik imkoniyatlarning mavjudligi |
| | | 3.1.4 | Tinglovchilarni o‘qishga qabul qilish parametrlarining monitoringi olib borilgan |
| | | 3.1.5 | Monitoring natijalari asosida qabul rejasiga zarur o‘zgartirishlar kiritiladi |
| | 3.2 Tinglovchilarni o‘qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to‘g‘ri tashkil qilingani | 3.2.1 | Tinglovchilarni o‘qishga qabul qilish tartib-qoidalari, mezonlari va komissiya faoliyati ta’lim tashkilotining ichki hujjatlarida belgilangan bo‘lib, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi |
| | | 3.2.2 | Korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlovchi raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan |
| | | 3.2.3 | Tinglovchilar hujjatlarni qabul qilish va tekshirish bo'yicha aniq reglamentlar, mas'ullar va muddatlar belgilangan |
| | | 3.2.4 | Tinglovchilarni o'qishga qabul qilish jarayonining doimiy monitoringi amalga oshirilgan |
| **4 O'quv jarayonini tashkil etish** | 4.1 O'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani | 4.1.1 | Davlat ta'lim talablari (malaka talablari) asosida o'quv reja va o'quv dasturlari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan* |
| | | 4.1.2 | Ishchi o'quv reja va dasturlar ta'lim dasturlariga mos holatda ishlab chiqilgan |
| | | 4.1.3 | Dars jadvallari o'quv rejadagi kredit/soat hajmi, fan (modul)lar ketma-ketligi bo'yicha ishlab chiqilib, tasdiqlangan hamda o'quv kursi boshlanishidan oldin e'lon qilingan |
| | | 4.1.4 | Ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar-trening, ko'chma mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim bo'yicha haftalik yuklama taqsimoti hujjatlashtirilgan |
| | | 4.1.5 | O'quv jarayonini rejalashtirishga oid asosiy hujjatlar (dars jadvallari, imtihonlar jadvali va boshqalar) tinglovchi, pedagog va manfaatdor tomonlar uchun ochiq holda veb-sayt yoki axborot tizimi orqali e'lon qilingan |
| | 4.2 Professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani, tasdiqlangani va yuritilishi | 4.2.1 | O'quv dasturlarda fan (modul)ning maqsad va vazifalari, o'quv natijalari, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, ta'lim texnologiyalari aniq belgilangan |
| | | 4.2.2 | Har bir fan (modul)ning o'quv dasturi davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturining maqsad va natijalariga mos holda ishlab chiqilgan* |
| | | 4.2.3 | O'quv-me'yoriy hujjatlar pedagoglarga dars mashg'ulotlari boshlanishidan oldin yetkazilgan va tinglovchilar uchun ham ochiq holda taqdim etilgan |
| | | 4.2.4 | O'quv-me'yoriy hujjatlarning sifati, mazmuni va amaliy ahamiyati muntazam ravishda tegishli bo'limlar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | tomonidan nazorati amalga oshirib boriladi |
| | 4.3 | Professor-oʻqituvchilarga oʻquv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani | 4.3.1 | Ta’lim tashkilotlari professor-oʻqituvchilarining oʻquv, oʻquv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik va ma’naviy-ma’rifiy ish turlari hajmini belgilash qoidalari mavjud va tasdiqlangan |
| | | | 4.3.2 | Professor-oʻqituvchilar mutaxassisligi oʻqitiladigan fanlar (modullar) bilan toʻliq mos keladi yoki tegishli yoʻnalishi boʻyicha amaliy ish tajribasiga ega |
| | | | 4.3.3 | Oʻquv yuklama pedagoglar oʻrtasida ularning ish stavkasi va zaruratga koʻra ilmiy daraja va ilmiy unvonlardan kelib chiqib mutanosib ravishda taqsimlangan. |
| | | | 4.3.4 | Oʻquv yuklama toʻgʻrisidagi ma’lumotlar oʻquv yili boshlanishidan avval oʻz vaqtida pedagoglarga tegishli tartibda yetkazilgan |
| | | | 4.3.5 | Oʻquv yuklama taqsimoti barcha pedagoglar uchun ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilgan |
| | 4.4 | Ta’lim dasturlarini iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib, takomillashtirilgani hamda mazmunining yangilangani | 4.4.1 | Ta’lim dasturlarini takomillashtirish jarayonida ish beruvchi va buyurtmachilar, soha mutaxassislari fikr-mulohazalari oʻrganilgan |
| | | | 4.4.2 | Ta’lim dasturlari mehnat bozori, soha ehtiyojlari va iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ishlab chiqilgan |
| | | | 4.4.3 | Dastur mazmuniga raqamli texnologiyalar, zamonaviy kompetensiyalar va innovatsion yondashuvlar integratsiya qilingan |
| | | | 4.4.4 | Ta’lim dasturlariga kiritilgan oʻzgarishlar tinglovchilar, pedagoglar va ish beruvchilarga ochiq va shaffof tarzda yetkazilgan |
| | 4.5 | Ta’lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani | 4.5.1 | Dars tahlillarini oʻtkazish tartibi, mezonlari va baholash koʻrsatkichlari ichki hujjatlarda belgilangan |
| | | | 4.5.2 | Dars tahlillari oʻtkazish reja-grafigi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan |
| | | | 4.5.3 | Dars tahlillari belgilangan reja asosida muntazam amalga oshiriladi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 4.5.4 | Dars tahlillari natijalari kafedra, fakultet yoki tegishli bo‘linma yig‘ilishlarida muhokama qilinadi |
| | | 4.5.5 | Aniqlangan kamchiliklar va takomillashtirish imkoniyatlari bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi |
| **5 Inson resurslari** | 5.1 Ta’lim tashkilotida belgilangan talablar va me’yorlarga muvofiq ilmiy salohiyatga ega pedagog kadrlarning mavjudligi | 5.1.1 | Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga sohaning yetuk professor-o‘qituvchilari hamda tajribali mutaxassislari jalb qilingan* |
| | | 5.1.2 | Har bir qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlaridan kelib chiqib yetarlicha ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega pedagoglar jalb qilingan |
| | | 5.1.3 | Pedagog kadrlar ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etadi, ularning ilmiy ishlari va natijalari doimiy tahlil qilinadi |
| | 5.2 Ta’lim tashkilotida pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) va faoliyat yo‘nalishlari dars o‘tadigan fan(lar)ga mosligi | 5.2.1 | Pedagoglarning o‘qitayotgan fanlari bo‘yicha tegishli oliy ma’lumoti, ixtisosligi va kasbiy tayyorgarligi mavjud |
| | | 5.2.2 | Pedagoglarning mutaxassisligi o‘qitilayotgan fanlarning profili va mazmuniga mos keladi |
| | | 5.2.3 | Ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayoniga jalb qilingan pedagoglar dars berayotgan fan (modul)i bo‘yicha malaka oshirishdan yoki qisqa muddatli treninglardan o‘tkazilgan |
| | 5.3 Ta’lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish to‘g‘ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo‘nimsizligining oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilgani | 5.3.1 | Pedagog kadrlarni ishga qabul qilish jarayonlari amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlar asosida amalga oshiriladi |
| | | 5.3.2 | Ishga qabul qilish ochiq va shaffof tanlov asosida tashkil etiladi hamda xolis baholash mezonlari qo‘llaniladi |
| | | 5.3.3 | Ishga qabul qilingan pedagog xodimlar bilan mehnat shartnomalari mehnat qonunchiligi talablari asosida rasmiylashtiriladi |
| | | 5.3.4 | Pedagog kadrlarni ishdan bo‘shatish jarayonlari mehnat qonunchiligi talablariga qat’iy rioya etgan holda amalga oshiriladi |
| | 5.4 Pedagog kadrlarning xorijda va/yoki ishlab chiqarish korxonalarida malaka | 5.4.1 | Ta’lim tashkiloti xorijiy ta’lim tashkilotlari, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari bilan malaka |

| | | |
|---|---|---|
| | oshirishi yoki stajirovkalari tashkil etilgani | oshirish va stajirovka bo‘yicha hamkorlik kelishuvlariga ega |
| | | 5.4.2 Oxirgi uch yilda stajirovka va malaka oshirishda ishtirok etgan pedagoglar ulushi o‘sish tendensiyasini ko‘rsatgan |
| | | 5.4.3 Malaka oshirish va stajirovka jarayonlari uchun zarur moliyaviy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan |
| | | 5.4.4 Malaka oshirish yoki stajirovka natijalari bo‘yicha olingan bilim va ko‘nikmalar o‘quv jarayoniga joriy etilgan |
| | 5.5 Xodimlar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI)ning yo‘lga qo‘yilgani hamda u asosida xodimlarning moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilgani | 5.5.1 Ta’lim tashkilotida rahbar va xodimlar hamda pedagoglar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI) to‘g‘risidagi tartib ishlab chiqilgan |
| | | 5.5.2 KPI ko‘rsatkichlari va baholash mezonlari aniq belgilangan |
| | | 5.5.3 KPI baholash jarayoni ochiqlik va xolislik tamoyillari asosida amalga oshiriladi |
| | | 5.5.4 KPI baholash natijalari bo‘yicha xodimlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 5.5.5 KPI tizimining samaradorligi davriy ravishda tahlil qilinib, natijalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi |
| **6 Tinglovchilarni qo‘llab-quvvatlash** | 6.1 Ta’lim xizmatlari yuzasidan tinglovchilar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko‘rilgani | 6.1.1 Tinglovchilar fikr-mulohazalarini o‘rganish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 6.1.2 Tinglovchilar qoniqishini baholash bo‘yicha so‘rovnoma (anketa) shakli va metodologiyasi ishlab chiqilgan |
| | | 6.1.3 Fikr-mulohazalarni yig‘ish bo‘yicha monitoring tizimi mavjud (onlayn anketa platformasi) |
| | | 6.1.4 Tinglovchilar fikr-mulohazalarining umumiy natijalari kafedra (bo‘lim, kengash va b.) yig‘ilishida muhokama qilingan |
| | 6.2 Tinglovchilarga yetarli darajada ta’lim olish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha | 6.2.1 Tinglovchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maslahat berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | maslahat berish hamda karera xizmatlarining tashkil etilgani | 6.2.2 Tinglovchilar ijtimoiy, akademik va psixologik qo‘llab-quvvatlash uchun malakali mutaxassislar jalb qilingan |
| | | 6.2.3 Tinglovchilardan olingan fikr-mulohazalar asosida xizmatlar faoliyati takomillashtirilgan |
| | 6.3 Ijtimoiy himoyaga muhtoj va imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani | 6.3.1 Ijtimoiy himoyaga mansub tinglovchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil qilishda imtiyozlar belgilangan |
| | | 6.3.2 Imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun ta’lim va infratuzilma sharoitlari yaratilgan |
| | | 6.3.3 Ta’lim tashkilotida tinglovchilar turar joyi (TTJ) mavjud va uning faoliyati tashkil etilgan |
| | | 6.3.4 TTJda madaniy va ma’rifiy tadbirlari hamda tinglovchilar bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha faoliyat yo‘lga qo‘yilgan |
| | 6.4 Tinglovchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko‘rib chiqish tartibining mavjudligi | 6.4.1 Tinglovchilar huquqlarini himoya qilish, shikoyat va murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonini tartibga soluvchi ichki hujjat mavjud |
| | | 6.4.2 Shikoyat va murojaatlarni qabul qilish uchun axborot tizimi joriy etilgan |
| | | 6.4.3 Tinglovchilar murojaatlarini ko‘rib chiqish muddati va tartibiga rioya qilinadi |
| | | 6.4.4 Shikoyatlar va murojaatlar bo‘yicha qarorlar rasmiy ravishda hujjatlashtirilgan |
| | | 6.4.5 Murojaatlar natijalari tahlil qilinib, tizimli choralar ko‘rilgan |
| **7 Moddiy-texnik ta’minot** | 7.1 Ta’lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun tinglovchilar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta’minot bilan ta’minlangan | 7.1.1 Ta’lim muassasasining umumiy maydoni tinglovchilarning kontingenti hisobga olingan holda o‘quv xonalari, laboratoriyalar, amaliy mashg‘ulot xonalari, axborot resurs markazi va boshqa infratuzilmalar bilan ta’minlangan* |
| | | 7.1.2 Ta’lim tashkilotining bino va inshootlari va moddiy-texnik bazasi mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | qoidalari hamda yong‘in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi |
| | | 7.1.3 | Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarning amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, musiqa asboblari, texnik vositalar va xomashyo bilan yetarli darajada ta’minlangan |
| | | 7.1.4 | Tinglovchilar va pedagoglarning elektron ta’lim platformalari hamda dasturiy ta’minotlarga kirish imkoniyati mavjud |
| | | 7.1.5 | Infratuzilmadan foydalanish va uni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha moliyaviy hisobotlar mavjud |
| | 7.2 Ta’lim jarayonlari uchun zarur bo‘lgan amaliyot bazalari, ustaxonalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta’lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgani | 7.2.1 | Amaliyot o‘tish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilma (laboratoriyalar, ustaxonalar, amaliyot xonalari) mavjud va faoliyat ko‘rsatmoqda* |
| | | 7.2.2 | Ta’lim dasturiga mos laboratoriya va amaliyot bazalari tashkil etilgan hamda zarur jihozlar bilan ta’minlangan |
| | | 7.2.3 | Laboratoriya jihozlari va asbob-uskunalar ishchi holatda bo‘lib, ularni yangilash bo‘yicha rejali ishlar amalga oshirilgan |
| | 7.3 Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) zaruriy o‘quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda unda o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi | 7.3.1 | Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) fondi tarkibi va undan foydalanish ko‘rsatkichlari, shu jumladan kitoblar sonining (elektron manbalarning) tinglovchilar soniga nisbati o‘quv-metodik ta’minotga qo‘yiladigan minimal talablarga mos keladi |
| | | 7.3.2 | Fanlar (modullar) bo‘yicha zarur o‘quv, ilmiy adabiyotlar va o‘quv uslubiy majmualar yetarli miqdorda mavjud |
| | | 7.3.3 | Elektron kutubxona va ma’lumotlar bazalari (jumladan xalqaro) foydalanish uchun ochiq |
| | | 7.3.4 | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlar, internet, elektron katalog) joriy etilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 7.3.5 | Elektron katalog va onlayn foydalanish tizimi yaratilgan va muntazam yangilanadi |
| | | 7.3.6 | Axborot-resurs markazi sohaviy ilmiy manbalar va jurnallar bilan ta’minlangan |
| | | 7.3.7 | Kutubxona va elektron resurslardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi va hisobot yuritiladi |
| | 7.4 Inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani | 7.4.1 | Ta’lim tashkiloti binolar va o‘quv xonalari, shu jumladan yo‘laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo‘lgan shaxslar (talabalar) uchun moslashtirilgan |
| | | 7.4.2 | Ta’lim dasturlari bo‘yicha maxsus o‘quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko‘rgazmali materiallar), ergonomik o‘rindiqlar, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud |
| | | 7.4.3 | Inklyuziv ta’lim uchun AKT, elektron ta’lim resurslari va dasturiy ta’minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl alifbosi, subtitr yoki boshqalar) yaratilgan |
| | | 7.4.4 | Individual ta’lim rejalari ishlab chiqilgan va amalga oshiriladi |
| | | 7.4.5 | Inklyuziv ta’lim jarayonlari samaradorligi muntazam tahlil qilinadi va hisobot yuritiladi |
| | 7.5 O‘quv va laboratoriya xonalarida jihozlarning xavfsizlik qoidalari hamda o‘qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani | 7.5.1 | O‘quv va laboratoriya xonalarida jihozlar va asbob-uskunalarning joylashuvi o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni va amaliyot jarayonlariga mos |
| | | 7.5.2 | O‘quv va laboratoriya xonalarida erkin harakatlanish ta’minlangan hamda favqulodda holatlarda evakuatsiya chiqish yo‘llari belgilangan |
| | | 7.5.3 | Laboratoriya asboblari xavfsiz masofada o‘rnatilgan va foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar mavjud |
| | | 7.5.4 | Elektr uskunalar xavfsiz ulangan, muntazam tekshiruvlar amalga oshiriladi |
| | | 7.5.5 | Havo aylanishi va yoritish tizimlari sanitar-gigiyenik talablarga javob beradi |

| | | |
|---|---|---|
| | | 7.5.6 Javon va saqlash joylari xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etilgan |
| | 7.6 O‘quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va raqamli ta’lim muhiti yaratilgani | 7.5.7 O‘quv xonalari AKT vositalari (kompyuterlar, elektron doskalar, proyektorlar yoki boshqalar) bilan jihozlangan |
| | | 7.6.1 Raqamli ta’lim muhiti (LMS, elektron jurnal, elektron kutubxona, raqamli o‘quv resurslari) joriy etilgan va o‘quv jarayonida faol qo‘llaniladi |
| | | 7.6.2 Pedagoglar o‘quv jarayonida elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari va interaktiv uskunalardan samarali foydalanadi |
| | | 7.6.3 Onlayn darslar va videokonferensiyalar uchun to‘liq texnik sharoit yaratilgan |
| | | 7.6.4 AKT vositalaridan foydalanish bo‘yicha xavfsizlik texnikasi va tartib-qoidalari ishlab chiqilgan |
| | | 7.6.5 O‘quv binolarida barqaror va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i ta’minlangan va Wi-Fi qamrov hududi yetarli darajada tashkil etilgan |

## Ilova 5. Oliy ta'lim tashkilotlarinining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari

Ta'lim dasturlari maxsus davlat akkreditatsiyasi doirasida 6 ta yo'nalish, 31 ta mezon va 186 ta indikator bo'yicha baholanadi.

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan yangi tashkil etilgan ta'lim dasturlari, shuningdek, amaldagi ta'lim dasturlari ham o'tkazilganligi sababli, ma'lum indikatorlar faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun tatbiq etiladi.

Majburiy mezon va ko'rsatkichlar (*) belgisi bilan, amaldagi ta'lim dasturlariga tegishli indikatorlar esa (**) belgisi bilan ajratiladi.

| Yo'nalish | Mezon | Indikator |
|---|---|---|
| 1. **Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi** | 1.1. Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi* | 1.1.1. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (kafedrani, bo'limni) (bundan buyon matnda tarkibiy tuzilma deb yuritiladi) tashkil etish hamda uni moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar mavjud* |
| | | 1.1.2. Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan va ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlarga uyg'un tarzda aniq belgilangan |
| | | 1.1.3. Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlangan hamda tarkibiy tuzilmaning ish rejalari ishlab chiqilgan** |
| | | 1.1.4. Tarkibiy tuzilmaning faoliyati oliy ta'lim tashkiloti va ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga uyg'un** |
| | | 1.1.5. Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim dasturining mehnat bozori talablariga muvofiqligi va natijadorligi baholanib, tahliliy ma'lumotlar muntazam tayyorlanadi** |
| | | 1.1.6. Tarkibiy tuzilma faoliyati muntazam monitoring va tahlil orqali tizimli ravishda tahlil qilinadi** |
| | | 1.1.7. Monitoring va tahlil natijalari asosida tarkibiy tuzilmaning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirib boriladi** |
| | 1.2. Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy | 1.2.1. Istiqbolli reja ishlab chiqilgan va oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) bilan mos |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 5 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi | 1.2.2. | Istiqbolli rejada ta’lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo‘nalishlari qamrab olingan |
| | | 1.2.3. | Istiqbolli rejadagi har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq maqsadlar, vazifalar va ushbu vazifalarning bajarilishini baholash mezonlari belgilangan |
| | | 1.2.4. | Istiqbolli rejani amalga oshirish uchun mas’ul ijrochilar hamda ijro muddatlari aniq belgilangan |
| | | 1.2.5. | Istiqbolli rejani amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari mavjud |
| | | 1.2.6. | Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta’sir qiluvchi xavf tahlili mavjud hamda ushbu xavflarni bartaraf etish bo‘yicha muqobil choralar belgilangan |
| | | 1.2.7. | Istiqbolli rejaning bajarilishi bo‘yicha monitoring va tahlil tizimi yo‘lga qo‘yilgan** |
| | | 1.2.8. | Monitoring va tahlil natijalari taqozo etgan taqdirda, istiqbolli rejaga tegishli o‘zgartirishlar kiritib boriladi** |
| | 1.3. Ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani | 1.3.1. | Ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash bo‘yicha ichki hujjatlar, shu jumladan tartib (qoidalar) oliy ta’lim tashkilotining strategik rejasida (missiyasida, strategiyasida) belgilangan maqsadlar va institutsional sifatni ta’minlash siyosatiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan, tasdiqlangan hamda jamoatchilik uchun ochiq |
| | | 1.3.2. | Ta’lim dasturini muntazam monitoring qilish, tahlil qilish va qayta ko‘rib chiqish tartibi (qoidalari) mavjud |
| | | 1.3.3. | Ta’lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirishda talabalar, professor-o‘qituvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari, bitiruvchilar, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) fikr-mulohazalarini inobatga olish mexanizmi mavjud |
| | | 1.3.4. | Sifatni ichki ta’minlash mexanizmlarini joriy etish, muvofiqlashtirish va takomillashtirish jarayonlari strategik |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | boshqaruvning uzviy qismi sifatida tizimli ravishda amalga oshiriladi** |
| | | 1.3.5. | Ta'lim dasturi sifatini baholash maqsadida manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari muntazam baholanadi** |
| | | 1.3.6. | Manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi** |
| | | 1.3.7. | Sifatni ichki ta'minlash tizimi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi muntazam ravishda baholab boriladi** |
| | 1.4. Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi. | 1.4.1. | Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ish, tahlil va monitoring qilish bo'yicha tartib mavjud hamda ushbu masalalar yuzasidan tarkibiy tuzilmaning vazifa va funksiyalari aniq belgilangan |
| | | 1.4.2. | Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni yig'ish, tahlil va monitoring qilish jarayonlari yo'lga qo'yilgan, shuningdek ta'lim dasturi ushbu jarayonlarni tizimli va izchil amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlangan |
| | | 1.4.3. | Yig'ilgan ma'lumotlar ta'lim dasturini rejalashtirish va ishlab chiqishda qo'llanilgan |
| | | 1.4.4. | Tahlil va monitoring natijalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi** |
| | | 1.4.5. | Tahlil va monitoring natijalari va belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yakunlaridan kelib chiqib, ta'lim dasturiga zarur o'zgartishlar kiritiladi** |
| | | 1.4.6. | Talabalarni mehnat bozoridagi mavjud imkoniyatlar to'g'risida xabardor qilish mexanizmi yo'lga qo'yiladi** |
| | | 1.4.7. | Ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalari bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar manfaatdor tomonlar foydalanishi uchun ochiq e'lon qilinadi** |
| | | 1.5.1. | Talabalar o'rtasida ta'lim dasturlari bo'yicha so'rovnomalarni (intervyular, |

| | | |
|---|---|---|
| | 1.5. Amaldagi ta’lim dasturlari bo‘yicha talabalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazilgani va uning natijalari asosida ta’lim dasturlarining takomillashtirilgani | muhokamalar va talabalar fikrini o‘rganishga qaratilgan boshqa tadbirlar) o‘tkazishning tartibi mavjud** |
| | | 1.5.2. So‘rovnomalar ta’lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va o‘quv jarayonlari sifati bilan bog‘liq savollarni (masalalarni) qamrab oladi** |
| | | 1.5.3. So‘rovnoma savollari (masalalari) va o‘tkazish jarayonlari ilmiy-metodologik asoslangan** |
| | | 1.5.4. So‘rovnoma oliy ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylik asosida muntazam o‘tkaziladi va so‘rovnoma natijalari tizimli ravishda tahlil qilinadi** |
| | | 1.5.5. So‘rovnoma natijalari bo‘yicha muammolarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi** |
| | | 1.5.6. Tahlil natijalari va amalga oshirilgan chora-tadbirlar yakunlaridan kelib chiqib, ta’lim dasturiga zarur o‘zgartishlar kiritib boriladi** |
| | | 1.5.7. Talabalar so‘rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida xabardor qilinadi** |
| 2. **Ta’lim dasturlari** | 2.1. Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti (bundan buyon matnda DTS deb yuritiladi) va milliy malakalar ramkasi (bundan buyon matnda MMR deb yuritiladi) talablariga muvofiqligi* | 2.1.1. Ta’lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha tartib mavjud |
| | | 2.1.2. Ta’lim dasturini ishlab chiqish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari va professor-o‘qituvchilar ishtiroki ta’minlanib, mazkur jarayon tizimli yo‘lga qo‘yilgan* |
| | | 2.1.3. Ta’lim dasturining maqsadlari, kutilgan o‘quv natijalari va kompetensiyalari aniq belgilangan hamda o‘zaro uzviy bog‘langan |
| | | 2.1.4. Ta’lim dasturining maqsadlari va kutilgan o‘quv natijalari MMR, DTS, kasbiy standart(lar) va (yoki) xalqaro ta’lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan |
| | | 2.1.5. Ta’lim dasturi yakunida beriladigan kvalifikatsiya(lar) ta’lim dasturida belgilangan |
| | | 2.1.6. Ta’lim dasturining maqsadlari va kutilgan o‘quv natijalari oliy ta’lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) va akademik profiliga muvofiq ishlab chiqilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | | Jamoatchilik, abituriyentlar va talabalar ta’lim dasturi haqida haqqoniy va xolis axborotga ega boʻlish imkoniyatiga ega** |
| | 2.2. Ta’lim dasturining milliy ta’lim tizimidagi ustuvor yoʻnalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani. | 2.2.1. Ta’lim dasturi mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlari va Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq ishlab chiqilgan |
| | | 2.2.2. Ta’lim dasturini ishlab chiqishda xalqaro ta’lim standartlari va (yoki) DTS inobatga olingan |
| | | 2.2.3. Ta’lim dasturida sohaga oid dolzarb ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar oʻz aksini topgan |
| | | 2.2.4. Ta’lim dasturining maqsadlari va kutilgan oʻquv natijalari mamlakatdagi inson kapitalini rivojlantirish hamda ichki va xalqaro mehnat bozorining ehtiyojlariga muvofiq belgilangan |
| | | 2.2.5. Ta’lim dasturining xalqaro ta’lim standartlariga mosligi boʻyicha vakolatli xorijiy ekspertlar yoki tashkilotlar tomonidan berilgan rasmiy xulosa (akkreditatsiya) mavjud |
| | 2.3. Ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani | 2.3.1. Ta’lim dasturining davomiyligi (umumiy kreditlar (soatlar), oʻqish muddati) ushbu dasturning maqsadlari va kutilgan oʻquv natijalariga mos ravishda belgilangan* |
| | | 2.3.2. Ta’lim dasturining barcha tarkibiy qismlari, shu jumladan fanlar (modullar), nazariy va amaliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot faoliyati, amaliyot va attestatsiya oʻrtasida mantiqiy izchillik va uzviylik ta’minlangan |
| | | 2.3.3. Ta’lim dasturiga kiritilgan fanlar (modullar) ta’lim dasturining kutilgan oʻquv natijalariga erishishga yoʻnaltirilgan |
| | | 2.3.4. Ta’lim dasturida boshqa ta’lim turlari bilan mantiqiy izchillik va uzviylik ta’minlangan |
| | | 2.3.5. Oʻquv yuklamalari fanlar (modullar) kesimida toʻgʻri va oʻlchovli taqsimlangan |
| | | 2.3.6. Fanlar (modullar) tarkibidagi nazariy bilim, amaliy mashgʻulot va tadqiqot ishlari oʻzaro uygʻunlashgan |
| | | Mashgʻulot turlari (nazariy, amaliy, laboratoriya va boshqalar) ta’lim dasturi mazmuniga muvofiq ravishda belgilangan |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.4. Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani* | 2.4.1. Ta'lim dasturi samaradorligini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan** |
| | | 2.4.2. Ta'lim dasturi bo'yicha tizimli monitoring va tahlil jarayonlari oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylikda izchil amalga oshiriladi** |
| | | 2.4.3. Monitoring jarayonida ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislari ishtiroki tizimli ravishda ta'minlanadi** |
| | | 2.4.4. Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli ravishda ishlab chiqiladi hamda mazkur chora-tadbirlarning ijro holati nazoratga olinadi** |
| | | 2.4.5. Ta'lim dasturining monitoringi va tahlili natijalaridan ochiq foydalanish imkoniyati mavjud** |
| | | 2.4.6. Monitoring va tahlil natijalari asosida ta'lim dasturi, shu jumladan fanlarning (modullarning) mazmuni, o'qitish usullari va baholash tizimiga zarur o'zgartishlar kiritib boriladi** |
| 3. **O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash** | 3.1. Ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani * | 3.1.1. O'quv reja va o'quv dasturlar (sillabuslar) ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislarini jalb qilgan holda, shuningdek ularning takliflari asosida ishlab chiqilgan |
| | | 3.1.2. O'quv reja va o'quv dasturlar MMR, DTS, kasbiy standart(lar), malaka talabi va (yoki) xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan* |
| | | 3.1.3. O'quv reja va o'quv dasturlar ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiq |
| | | 3.1.3. Fanlarning (modullarning) o'quv dasturi tegishli qonunchilikdagi o'zgarishlar va xorijiy tajribani qamrab olgan |
| | | 3.1.4. Fanlarning (modullarning) o'quv dasturi talabalarda qattiq va yumshoq ko'nikmalarni (hard and soft skills) rivojlantirishga hamda bu orqali talabalarning shaxsiy rivojlanishi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan |
| | | 3.1.5. Fan (modul) bo'yicha baholash mezonlari aniq belgilangan bo'lib, ular fanning (modulning) maqsadi va kutilayotgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | o‘quv natijalariga to‘liq mos hamda talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda aniq, adolatli va shaffof tartib mavjud |
| | 3.2. O‘quv jarayonining ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga erishishga yo‘naltirilgani* | 3.2.1. | O‘quv jarayoni ta’lim dasturining maqsadlari va kutilgan o‘quv natijalariga muvofiqlashtirilgan |
| | | 3.2.2. | Ta’lim dasturi bo‘yicha amaliyot bazalari mavjud* |
| | | 3.2.3. | O‘quv jarayoni ish beruvchilar va soha mutaxassislari bilan hamkorlikda mehnat bozoridagi zamonaviy ehtiyojlar, ilm-fandagi so‘nggi tendensiyalar, sohaning xususiyatlaridan va oliy ta’lim tashkilotining amaliyot bazalari mavjudligidan kelib chiqqan holda rejalashtirilgan |
| | | 3.2.4. | O‘quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beruvchi amaliy mashg‘ulotlar (seminar, amaliy loyihalar, laboratoriya ishlari va boshqalar), ishlab chiqarishda amaliyot va ilmiy-tadqiqot faoliyati nazarda tutiladi** |
| | | 3.2.5. | Amaliyot natijalari bo‘yicha manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini yig‘ish hamda tahlil qilish amaliyoti mavjud** |
| | | 3.2.6. | Tahlil natijalari asosida amaliyot samaradorligi baholanadi hamda amaliyot dasturlari takomillashtirib boriladi** |
| | O‘quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani | 3.3.1. | O‘quv jarayoni sifatini baholash, tahlil qilish va takomillashtirish tartibi ishlab chiqilgan |
| | | 3.3.2. | O‘quv jarayoni sifatini baholash va tahlil qilish oliy ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylikda izchil amalga oshiriladi** |
| | | 3.3.3. | Baholash jarayonida manfaatdor tomonlar ishtiroki tizimli ravishda ta’minlab boriladi** |
| | | 3.3.4. | Baholash va tahlil qilish natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi** |
| | | 3.3.5. | O‘quv jarayonidagi baholash va tahlil qilish natijalari hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlar asosida ta’lim dasturi va oliy ta’lim tashkilotining metodik hujjatlari |

| | | |
|---|---|---|
| | | doimiy ravishda takomillashtirib boriladi** |
| | 3.3. Amaldagi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani | 3.4.1. Dars jarayonlarida yangi o‘qitish usullari, ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar (bundan buyon matnda ilg‘or pedagogik yondashuvlar deb yuritiladi) muntazam qo‘llaniladi** |
| | | 3.4.2. Ilg‘or pedagogik yondashuvlar fanlar (modullar) mazmunini chuqur o‘zlashtirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga samarali erishishga qaratilgan** |
| | | 3.4.3. Ilg‘or pedagogik yondashuvlar ta’lim shakli va talabalar ehtiyojlariga muvofiq holda belgilanadi** |
| | | 3.4.4. Ilg‘or pedagogik yondashuvlar samaradorligi bo‘yicha muntazam monitoring va tahlil olib boriladi** |
| | | 3.4.5. Monitoring va tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ilg‘or pedagogik yondashuvlar bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning salohiyati doimiy ravishda rivojlantiriladi** |
| | | 3.4.6. Monitoring va tahlil natijalari asosida o‘quv reja, o‘quv dasturlari va metodik materiallar yangilanadi, shuningdek ilg‘or pedagogik yondashuvlar bo‘yicha metodik qo‘llanmalar va o‘quv materiallari muntazam ishlab chiqiladi hamda amaliyotga joriy etiladi** |
| | | 3.4.7. Ilg‘or pedagogik yondashuvlar samaradorligi bo‘yicha yillik tahliliy hisobot tayyorlanadi va oliy ta’lim tashkilotining kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi** |
| | 3.4. Ta’lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o‘quv natijalariga muvofiqligi | 3.5.1. Baholash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun tartib va mexanizmlar ishlab chiqilgan |
| | | 3.5.2. Baholash tartibi (qoidalari), mezonlari, usullari va yondashuvlari har bir fan (modul) boshlanishidan oldin talabalarga e’lon qilib boriladi** |
| | | 3.5.3. Ta’lim dasturida formativ (jarayon davomida baholash) va summativ (yakuniy baholash) baholashni |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | ta’minlovchi yondashuv va vositalar qo‘llaniladi** |
| | | 3.5.4. | Baholash mezonlari fan (modul) va ta’lim dasturining kutilgan o‘quv natijalariga asoslanadi hamda talabalarga aniq va tushunarli tarzda yetkazib boriladi** |
| | | 3.5.5. | Baholash jarayonida adolat, shaffoflik va akademik halollik tamoyillariga qat’iy rioya etiladi** |
| | 3.5. Talabalarning baholash natijalari bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi | 3.6.1. | Talabalarning baholash natijalari yuzasidan takliflari, fikr-mulohazalari va shikoyatlarini yig‘ish, ko‘rib chiqish va tahlil qilish, shuningdek ushbu masalalarni bajarish uchun mas’ul ijrochilarni belgilash bo‘yicha tartib ishlab chiqilgan |
| | | 3.6.2. | Ishlab chiqilgan tartibda shikoyat berish shakllari, muddatlari, ularni ko‘rib chiqish tartibi va qaror qabul qilish mexanizmi aniq belgilangan |
| | | 3.6.3. | Takliflar, fikr-mulohazalar va shikoyatlar talabalar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali qabul qilinadi hamda ularni ko‘rib chiqish jarayoni shaffoflik, hisobdorlik va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi** |
| | | 3.6.4. | Talabalarning baholash jarayoni, natijalari bo‘yicha shikoyatlari oliy ta’lim tashkilotining apellatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi va tizimli ravishda tahlil qilinadi** |
| | | 3.6.5. | Tahlil natijalari bo‘yicha hisobotlar tayyorlanadi hamda baholash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanadi, baholash tartibi va mezonlariga zarur o‘zgartirishlar kiritib boriladi** |
| | 3.6. Ta’lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi* | 3.7.1. | Oliy ta’lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas’uliyatga oid tartib (qoidalar) va (yoki) yo‘riqnoma(lar) mavjud |
| | | 3.7.2. | Akademik halollik tamoyillari ta’lim dasturini ishlab chiqish, o‘qitish, baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilinadi** |
| | | 3.7.3. | Plagiat va boshqa akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha antiplagiat |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | tizimi va tashkiliy choralar joriy etib boriladi** |
| | | 3.7.4. | Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko‘rib chiqish va javobgarlik choralarini belgilash bo‘yicha shaffof tartib mavjud** |
| | | 3.7.5. | Talabalar va professor-o‘qituvchilar akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilgan** |
| | | 3.7.6. | Talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun’iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma’ruzalar) tashkil etiladi** |
| | | 3.7.7. | Talabalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g‘oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar himoya qilinadi** |
| 4. **Talabalar faoliyati** | 4.1. Ta’lim dasturi bo‘yicha qabul talablari aniq belgilangani, o‘qishga qabul qilish shaffof tarzda yo‘lga qo‘yilgani | 4.1.1. | Ta’lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari aniq belgilangan, barcha abituriyentlar va manfaatdor tomonlarga ochiq tarzda yetkazish mexanizmi mavjud |
| | | 4.1.2. | Qabul jarayonlari, talablari va mezonlarining amaldagi qonunchilik talabalariga muvofiqligi ta’minlangan |
| | | 4.1.3. | Ta’lim dasturining qabul talablari oliy ta’lim tashkilotining ichki tartibiga, shu jumladan talabalar mobilligi, kreditlarni tan olish va avvalgi ta’lim natijalarini e’tirof etish qoidalariga muvofiq |
| | | 4.1.4. | Abituriyentlar qabul natijalari haqida o‘z vaqtida va ochiq ma’lumot olish imkoniyatiga ega |
| | | 4.1.5. | Qabul jarayoni va natijalar bo‘yicha shikoyat berish mexanizmi mavjud |
| | | 4.1.6. | Xorijiy tilda olib boriladigan ta’lim dasturi qabulida nomzodlardan milliy yoki xalqaro talablarga mos xorijiy til bo‘yicha bilim darajasi talab etiladi**<br>(Bunda abituriyentlarning dasturga qabul qilinmasdan oldin xorijiy til bo‘yicha yetarli salohiyatga ega ekanligi xorijiy til bo‘yicha bilimlarni tasdiqlovchi hujjat orqali aniqlanadi)** |
| | | 4.1.7. | Ta’lim dasturiga qabul talablari avvalgi yillarda qabul qilingan talabalarni |

| | | |
|---|---|---|
| | | formativ va summativ baholashdagi natijalari asosida tizimli qayta ko‘rib chiqiladi va zarur o‘zgartirishlar kiritiladi** |
| | 4.2. Qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi* | 4.2.1. Qabul parametrlari (talabalar soni, yo‘nalishlar kesimidagi kvotalar va boshqalar) oliy ta’lim tashkilotining auditoriyalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari, texnikaviy jihozlanishi hamda ta’lim, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy va sog‘lomlashtirish faoliyatini ta’lim dasturida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatiga mos ravishda belgilangan |
| | | 4.2.2. Qabul parametrlarini belgilashda axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) imkoniyatlari (sig‘imi) hisobga olingan |
| | | 4.2.3. Qabul parametrlari professor-o‘qituvchilar soni, tarkibi va ularning ish yuklamasini tahlil qilish asosida belgilangan |
| | | 4.2.4. Moliyaviy imkoniyatlardan (budjet, grantlar, kontrakt tushumlari) kelib chiqqan holda qabul parametrlari shakllantirilgan |
| | | 4.2.5. Qabul parametrlari oliy ta’lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg‘unlashtirilgan |
| | | 4.2.6. Qabul parametrlari sohaviy mehnat bozori tahlili, ish beruvchilarning taklif va ehtiyojlari asosida belgilangan |
| | | 4.2.7. Qabul parametrlarini bajarilish holati bo‘yicha har yili tahlil amalga oshiriladi hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o‘zgartishlar kiritib boriladi** |
| | 4.3. Talabalarning o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash (bundan buyon matnda talabalar harakati deb yuritiladi) | 4.3.1. Talabalar harakati bo‘yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) o‘qishga qabul qilish, o‘qishni ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda ishlab chiqilgan |
| | | 4.3.2. Talabalar harakatiga oid jarayonlar va qarorlar bo‘yicha shikoyat berish imkoniyati mavjud |

| | | |
|---|---|---|
| | tartibining belgilangani* | 4.3.3. Talabalar harakati bo‘yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom), talabalar harakati jarayonlari va natijalari to‘g‘risida talabalar va ularning ota-onalari xabardor qilinadi** |
| | | 4.3.4. Talabalar harakati bo‘yicha qabul qilingan qarorlar asoslantirilgan holda hujjatlashtiriladi** |
| | 4.4. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi | 4.4.1. Ta’lim dasturi bo‘yicha talabalarni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo‘nalish bo‘yicha maslahat berish tizimi mavjud yoki rejalashtirilgan |
| | | 4.4.2. Talabalarga fanlarni (modullarni) to‘g‘ri tanlash, baholash tizimini tushunish va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini belgilashda “ustoz — shogird” va mentorlik yordami beriladi** |
| | | 4.4.3. Psixologik maslahat va yordam markazi tashkil etilgan** |
| | | 4.4.4. Akademik qarzdor talabalar bilan ishlash yo‘lga qo‘yilgan** |
| | | 4.4.5. Talabalarning qiziqishlari va kasbiy maqsadlarini hisobga olgan holda individual ta’lim trayektoriyasi shakllantiriladi va amalga oshirish bo‘yicha metodik va axborot ko‘magi ko‘rsatiladi** |
| | | 4.4.6. Maslahat berish xizmatlaridan foydalanish va ushbu xizmatlarning samaradorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘iladi va tahlil qilinadi hamda talabalarning ushbu xizmatlarga bo‘lgan qoniqish darajasi muntazam baholanadi hamda maslahat berish tizimi takomillashtirib boriladi** |
| **5 Inson resurslari** | 5.1. Ta’lim dasturi uchun belgilangan me’yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi | 5.1.1. Professor-o‘qituvchilar soni ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun yetarli (ta’lim dasturi doirasidagi asosiy shtatdagi professor-o‘qituvchilar soni barcha ta’lim dasturi doirasidagi professor-o‘qituvchilar soniga nisbatan kamida 70 foizni tashkil etadi)<br>5.1.2. (Bunda yangi ta’lim dasturi uchun professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda professor-o‘qituvchilar bilan amalda ta’minlanish talab etilmaydi) |

| | | |
|---|---|---|
| | belgilangan talablarga mosligi* | 5.1.3. Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlangan (ta'lim dasturi doirasidagi ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni ta'lim dasturi doirasidagi barcha asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soniga nisbatan bakalavriatda kamida 35 foizni va magistraturada 70 foizni tashkil etadi)<br>5.1.4. For a newly established educational program, actual provision of academic staff holding academic degrees and academic titles is not required, provided that a clear academic staffing plan has been submitted |
| | | 5.1.5. Boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining soni Oliy ta'lim tashkilotlari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini (ro'yxat raqami 2859, 2017-yil 21-fevral) inobatga olgan holda belgilangan<br>5.1.6. (Bunda yangi ta'lim dasturi uchun o'quv-yordamchi kadrlar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda o'quv-yordamchi kadrlar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi) |
| | | 5.1.7. Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etilgan** |
| | 5.2. Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangani* | 5.2.1. Ta'lim dasturining maqsadlari, vazifalari va kutilgan o'quv natijalaridan kelib chiqqan holda o'quv rejani samarali bajarish maqsadida ta'lim dasturi doirasidagi professor-o'qituvchilarning soni va tarkibi shakllantirilgan** |
| | | 5.2.2. Professor-o'qituvchilar ixtisosligi o'qitiladigan fanlar (modullar) bilan mos keladi** |
| | | 5.2.3. Professor-o'qituvchilarning erishgan yutuqlari bo'yicha (davlat va tarmoq mukofotlari, faxriy unvonlar, xalqaro va respublika tanlovlar g'olibligi va boshqalar) ko'rsatkichlar shakllantirilgan** |
| | | 5.2.4. Professor-o'qituvchilarning bajargan o'quv, ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlari (fundamental, amaliy va boshqa ilmiy loyihalardagi ishtiroki, darslik, o'quv qo'llanma va o'quv-metodik ishlanmalarni |

| | | |
|---|---|---|
| | | ishlab chiqishi, mahalliy va xalqaro nashrlar, impakt-faktorli (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari) jurnallarda maqolalar chiqarish va boshqalar) mavjud** |
| | | 5.2.5. Ichki va tashqi malaka oshirish kurslariga doimiy yo'naltirish tizimi yo'lga qo'yilgan** |
| | 5.3. Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi* | 5.3.1. Yangi ta'lim dasturlari uchun kadrlar ehtiyoji tahlil qilingan* |
| | | 5.3.2. Fanlar (modullar) bo'yicha zarur mutaxassisliklar va kompetensiyalar aniqlangan |
| | | 5.3.3. Yangi kadrlarni jalb qilish strategiyalari (tanlov, konkurs, grant va boshqalar orqali) belgilangan |
| | | 5.3.4. Ishga qabul qilish va kadrlar zaxirasini yaratish mexanizmi belgilangan |
| | | 5.3.5. Xorijiy mutaxassislar va amaliyotchi ekspertlarni jalb qilish imkoniyatlari ko'zda tutilgan |
| | | 5.3.6. Yangi ta'lim dasturlari uchun ilmiy darajasi yuqori kadrlarni tayyorlash va doktorlikka maqsadli yo'naltirish choralari ko'rilgan |
| | 5.4. Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi | 5.4.1. Pedagog kadrlar va boshqa xodimlar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilgan |
| | | 5.4.2. Ilmiy maqolalar chop etish, innovatsion g'oyalarga hissa qo'shish hamda xalqaro yoki milliy loyihalarda faol ishtirok etishni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi mavjud |
| | | 5.4.3. Rag'batlantirish mezonlari oliy ta'lim tashkilotining ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilgan holda shaffof va natijaga yo'naltirilgan |
| | | 5.4.4. Xodimlarni soha mutaxassisligi bo'yicha xorijiy stajirovkalar va konferensiyalarga yuborish amaliyoti mavjud** |
| | | 5.4.5. Kasbiy rivojlanish natijalarini baholash va hisobga olish mexanizmi mavjud |
| 6 **Moddiy-texnik ta'minot** | 6.1. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs | 6.1.1. Ta'lim dasturi bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar texnikalar, xomashyo materiallari mavjud |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qoʻllanma (koʻrsatma)lar bilan ta'minlangani* | | hamda ular ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan oʻquv natijalariga muvofiq |
| | | 6.1.2. | Oliy ta'lim tashkiloti talabalar kontingentidan kelib chiqqan holda asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar bilan ta'minlangan |
| | | 6.1.3. | Asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalarning texnik pasportlari mavjud, texnik koʻrikdan oʻtkazilgan, texnik xizmat koʻrsatilganlik (ta'mirlash, profilaktika) ishlari hujjatlashtirib boriladi** |
| | | 6.1.4. | Asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalardan foydalanish boʻyicha metodik qoʻllanmalar, yoʻriqli texnologik xaritalar, koʻrsatmalar va yoʻriqnomalar (xavfsizlik yoʻriqnomasi, instruksiyalar) mavjud** |
| | | 6.1.5. | Asbob-uskunalar bilan ishlash boʻyicha pedagoglar va talabalar uchun soha mutaxassislari yoki ish beruvchilar bilan hamkorlikda treninglar (master-klasslar) oʻtkazish yoʻlga qoʻyilgan** |
| | | 6.1.6. | Amaliy va laboratoriya mashgʻulotlar oʻtkaziladigan oʻquv xonalarini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash boʻyicha yillik reja ishlab chiqilgan** |
| | 6.2. Fanlar kesimida oʻquv va oʻquv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani* | 6.2.1. | Har bir fanning (modulning) oʻquv dasturida belgilangan oʻquv adabiyotlar va metodik qoʻllanmalar mavjud |
| | | 6.2.2. | Adabiyotlar fanlarning (modullarning) mazmuni va oʻquv maqsadlariga mos ravishda tanlangan |
| | | 6.2.3. | Fanlar (modullar) boʻyicha ishlab chiqilgan oʻqitish materiallari toʻplamlari va raqamli ta'lim resurslari elektron kutubxonaga joylashtirilgan |
| | | 6.2.4. | Pedagog kadrlar va talabalar uchun elektron resurslarga uzluksiz kirish imkoniyati mavjud** |
| | | 6.2.5. | Oʻquv adabiyotlari va metodik qoʻllanmalar doimiy yangilanib, zamonaviy fanlar (modullar) va ilmiy-texnologik rivojlanish tendensiyalariga moslashtirib boriladi** |
| | | 6.2.6. | Fan (modul) mazmuniga mos zamonaviy xorijiy adabiyotlardan foydalaniladi** |

| | | |
|---|---|---|
| | 6.3. O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani* | 6.3.1. Oliy ta'lim tashkiloti talabalar kontingentidan kelib chiqqan holda o'quv xonalari bilan ta'minlangan* |
| | | 6.3.2. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xonalari va moddiy-texnik baza mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi |
| | | 6.3.3. Laboratoriyalar va ustaxonalar (poligonlar) ta'lim dasturiga mos asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar bilan ta'minlangan, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari mavjud, evakuatsiya yo'llari (sxemalari) belgilangan hamda xavfsizlik jurnallarini yuritish yo'lga qo'yilgan |
| | | 6.3.4. Fanlar (modullar) ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv xonalarida axborot-kommunikatsiya vositalari (proyektor, kompyuter va boshqalar) o'rnatilgan hamda IT infratuzilma shakllantirilgan |
| | | 6.3.5. O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) talabalar uchun o'rindiqlar va ish joylari mavjud |
| | Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) foydalanish imkoniyati yaratilgani | 6.4.1. Oliy ta'lim tashkiloti binolar va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar (talabalar) uchun moslashtirilgan |
| | | 6.4.2. Ta'lim dasturi bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud |
| | | 6.4.3. Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron resurslar, dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl yozuvi alifbosi, subtitr va boshqalar) yaratilgan |
| | | 6.4.4. Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish tizimi mavjud** |
| | | 6.4.5. Inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha tayyorlangan va zarur ko'nikmalarga ega pedagog(lar) va (yoki) psixolog mavjud** |

| | | |
|---|---|---|
| | | 6.4.6. Inklyuziv ta’lim sharoitlarining amalda qo‘llanishi va samaradorligi bo‘yicha monitoring olib boriladi** |
| | 6.4. Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta’lim dasturlariga mos o‘quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta’minlangani, o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi* | 6.5.1. ARMda ta’lim dasturiga mos darslik, o‘quv qo‘llanma va adabiyotlar, badiiy adabiyotlar mavjud* |
| | | 6.5.2. ARM zamonaviy AKT va elektron qurilmalar bilan jihozlangan, internet tarmog‘iga ulanish imkoniyati yaratilgan hamda ulardan foydalanish bo‘yicha talabalarga tushuntirishlar berilgan |
| | | 6.5.3. Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondida ta’lim dasturi bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanma va adabiyotlar, o‘qitish materiallari to‘plami, raqamli ta’lim resurslari va multimedia kontentlar raqamli formatda joylashtirilgan |
| | | 6.5.4. Talabalar uchun qulay sharoitlarga ega bo‘lgan ARM o‘quv zali mavjud |
| | | 6.5.5. Kutubxona fondi muntazam yangilanib boriladi** |
| | 6.5. Raqamli ta’lim muhiti yaratilgani (LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari) | 6.6.1. Ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (HEMIS) va (yoki) LMS orqali dars jarayonlari va materiallar elektron formatda taqdim etiladi hamda onlayn kurslar va videodarslar o‘quv jarayonlariga integratsiya qilingan |
| | | 6.6.2. Masofaviy ta’lim platformalari orqali o‘quv jarayonlarida qatnashish imkoniyati yaratilgan |
| | | 6.6.3. Talabalarni akademik faoliyatini kuzatish, tahlil qilish va elektron baholash hamda “feedback” berish tizimi joriy etilgan |
| | | 6.6.4. Raqamli ta’lim muhiti axborot xavfsizligi talablariga mos ravishda himoyalangan |
| | | 6.6.5. Vebinarlar va onlayn seminarlar muntazam tashkil etiladi** |
| | | 6.6.6. Ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (HEMIS) va (yoki) LMS (learning management system) orqali talabalar, pedagog kadrlar va ma’muriyat o‘rtasida muloqot kanali yo‘lga qo‘yilgan** |
| | | 6.6.7. Elektron ta’lim resurslaridan foydalanish bo‘yicha texnik qo‘llab-quvvatlash xizmati mavjud** |
| | 6.6. Ta’lim dasturi xususiyatidan kelib | 6.7.1. Sport zali, stadion va sport maydonchalaridan foydalanish imkoniyati |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi | | ta'minlangan hamda jismoniy tarbiya va sport tadbirlari uchun zarur inventarlar mavjud |
| | | 6.7.2. | Ta'lim dasturi talablariga muvofiq, musiqa, san'at va madaniyat darslari uchun maxsus xonalar jihozlangan hamda ijodiy faoliyat uchun asbob-uskunalar mavjud |
| | | 6.7.3. | Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus laboratoriyalar, studiyalar yoki boshqa maxsus xonalar mavjud |
| | | 6.7.4. | Binolar (inshootlar) ta'lim jarayoni davomida doimiy faoliyat ko'rsatadi |
| | | 6.7.5. | Binolar (inshootlar) talabalar soniga mos hajm va sig'imga ega |

## Ilova 6. Kasbiy ta'lim tashkilotlarinining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari

Ta'lim dasturlari maxsus davlat akkreditatsiyasi doirasida 6 ta yo'nalish, 31 ta mezon va 163 ta indikator bo'yicha baholanadi.

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan yangi tashkil etilgan ta'lim dasturlari, shuningdek, amaldagi ta'lim dasturlari ham o'tkazilganligi sababli, ma'lum indikatorlar faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun tatbiq etiladi.

Majburiy mezon va ko'rsatkichlar (*) belgisi bilan, amaldagi ta'lim dasturlariga tegishli indikatorlar esa (**) belgisi bilan ajratiladi.

| Yo'nalish | Mezon | Indikator |
|---|---|---|
| **1. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash** | 1.1. Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi | 1.1.1. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (kafedrani, bo'limni) (bundan buyon matnda tarkibiy tuzilma deb yuritiladi) tashkil etish hamda uni moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar mavjud* |
| | | 1.1.2. Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan va ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlarga uyg'un tarzda aniq belgilangan |
| | | 1.1.3. Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim dasturini mehnat bozori talablariga va texnologik o'zgarishlarga muvofiq takomillashtirish mexanizmlari mavjud |
| | | 1.1.4. Ta'lim dasturini samarali amalga oshirishi uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlanib boriladi hamda tarkibiy tuzilmaning ish rejalari mavjud** |
| | | 1.1.5. Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim dasturining mehnat bozori talablariga muvofiqligi va natijadorligi ko'rib chiqilib, tahliliy ma'lumotlar tayyorlab boriladi** |
| | | 1.1.6. Tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar asosida tarkibiy tuzilma tomonidan chora-tadbirlar rejasi tizimli ravishda ishlab chiqiladi, amalga oshiriladi hamda ijrosi nazorat qilinadi** |
| | 1.2. Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini | 1.2.1. Istiqbolli reja ishlab chiqilgan va kasbiy ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) bilan mos |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | ta’minlash bo‘yicha 3 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi | 1.2.2. | Istiqbolli rejada ta’lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik baza, infratuzilma, axborot texnologiyalari, inson resurslari, moliyaviy manbalar va ish beruvchilar bilan hamkorlik masalalari aks ettirilgan hamda ushbu rejadagi vazifalarni bajarish muddatlari va mas’ul ijrochilar aniq ko‘rsatilgan |
| | | | 1.2.3. | Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta’sir qiluvchi xavf tahlili mavjud hamda ushbu xavflarni bartaraf etish bo‘yicha muqobil choralar belgilangan |
| | | | 1.2.4. | Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarning bajarilishini monitoring va tahlil mexanizmlari ishlab chiqilib, monitoring va tahlil natijalarida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish choralari ko‘rib boriladi** |
| | 1.3. | Ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani | 1.3.1. | Ta’lim dasturini monitoring va tahlil qilish bo‘yicha sifatni ichki ta’minlash bo‘linmasi tashkil etilgan yoki mas’ul xodim(lar) ajratilgan |
| | | | 1.3.2. | Ta’lim dasturini ichki baholash tartibi ishlab chiqilgan hamda pedagogik (metodik) kengash va ish beruvchilar muhokamasidan o‘tkazilgan holda tasdiqlangan |
| | | | 1.3.3. | Pedagoglar, ish beruvchilar, o‘quvchilar, shuningdek ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning (bundan buyon matnda ota-onalar deb yuritiladi) takliflari hamda fikr-mulohazalari asosida ta’lim dasturi muntazam takomillashtiriladi hamda sifatni ichki ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi shakllantirib boriladi** |
| | | | 1.3.4. | Ta’lim dasturini takomillashtirish va sifatni ichki ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan monitoring va tahlil ishlari amalga oshirilib, ta’lim dasturi takomillashtirilib boriladi** |
| | | | 1.3.5. | Ta’lim dasturini takomillashtirish haqidagi ma’lumotlar kasbiy ta’lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e’lon qilib boriladi** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 1.4. | Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi | 1.4.1. | Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari, shuningdek ilmiy-tadqiqot tendensiyalarini o'rganish uchun monitoring o'tkazish rejasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan |
| | | | 1.4.2. | Monitoring jarayonida pedagoglar, ish beruvchilar va soha mutaxassislarining ishtiroki ta'minlanib, mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar muntazam yig'iladi, tahlil qilinadi va baholanadi** |
| | | | 1.4.3. | Monitoring natijalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan muammo va kamchiliklar aniqlanadi hamda ta'lim dasturidagi fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlariga (mavzu(lar)iga va mazmuniga) tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi** |
| | | | 1.4.4. | Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridagi yangiliklar va mehnat bozori talablari asosida doimiy yangilanuvchi ma'lumotlar bazasi yaratib boriladi** |
| | | | 1.4.5. | Mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar pedagoglar, ish beruvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va soha mutaxassislari uchun ochiq tarzda e'lon qilib boriladi** |
| | 1.5. | Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgani va uning natijalari asosida ta'lim dasturlarining takomillashtirilgani | 1.5.1. | Amaldagi ta'lim dasturini baholash va takomillashtirish bo'yicha so'rovnoma, intervyu va fokus-guruhlar (bundan buyon matnda so'rovnoma deb yuritiladi), ularning mavzulari, savollar (masalalar) ro'yxati, so'rovnomani o'tkazish muddatlari hamda mas'ul ijrochilar belgilab boriladi** |
| | | | 1.5.2. | O'tkaziladigan so'rovnomalar to'g'risida o'quvchilar muntazam xabardor qilinadi hamda tizimli ravishda ularning ishtirokini ta'minlash choralari ko'riladi** |
| | | | 1.5.3. | So'rovnoma jarayonlari ochiqlik, tenglik va xolislik tamoyillari asosida tashkil etiladi** |
| | | | 1.5.4. | O'tkazilgan so'rovnoma natijalari mas'ul ijrochilar tomonidan tahlil qilinib, o'quvchilarning ta'lim dasturini takomillashtirishga oid taklif va fikr-mulohazalari muntazam yig'iladi** |

| | | |
|---|---|---|
| | | 1.5.5. So‘rovnoma natijalari bo‘yicha tahliliy hisobot tayyorlanib, pedagogik (metodik) kengashga taqdim etib boriladi** |
| | | 1.5.6. Tayyorlangan tahliliy hisobot asosida ta’lim dasturini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tizimli ravishda ishlab chiqiladi va ta’lim dasturiga zarur o‘zgartirishlar kiritib boriladi** |
| | | 1.5.7. So‘rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar kasbiy ta’lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e’lon qilib boriladi** |
| **2. Ta’lim dasturlari** | 2.1. Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti (bundan buyon matnda DTS deb yuritiladi) va milliy malakalar ramkasi (bundan buyon matnda MMR deb yuritiladi) talablariga muvofiqligi | 2.1.1. Ta’lim dasturini ishlab chiqish tartibi mavjud, shu jumladan ta’lim dasturining maqsadi, kompetensiyalari hamda kutilgan o‘quv natijalari belgilangan hamda ta’lim dasturini ishlab chiqish bo‘yicha pedagoglar, soha mutaxassislari va ish beruvchilardan iborat ishchi guruh tashkil etilgan* |
| | | 2.1.2. Ta’lim dasturining mazmuni DTS, MMR, kasbiy standart(lar) (yoki malaka talablari) hamda mehnat bozori talablariga mosligi bo‘yicha tahlil qilingan |
| | | 2.1.3. Tahlil natijalari asosida ta’lim dasturining kutilgan o‘quv natijalari va maqsadlari aniqlashtirilgan, kamchiliklar yuzasidan xulosalar tayyorlangan |
| | | 2.1.4. Ta’lim dasturi ish beruvchilar va pedagoglar ishtirokida muhokama qilingan hamda ularning taklif va tavsiyalari asosida ta’lim dasturiga o‘zgartirishlar kiritilgan |
| | | 2.1.5. Ta’lim dasturi DTS, MMR va kasbiy standart(lar)ga (yoki malaka talablari) muvofiq ta’lim dasturi yakunida beriladigan kvalifikatsiya(lar) aniq belgilangan holda ishlab chiqilgan va ish beruvchilar bilan kelishilgan holda tasdiqlangan |
| | 2.2. Ta’lim dasturining mazmuni va strukturasi | 2.2.1. Ta’lim dasturida belgilangan kutilgan o‘quv natijalari va kompetensiyalarni |

| | | |
|---|---|---|
| | nazariya hamda amaliyot bilan mutanosib ravishda uyg‘unlashtirilgani | shakllantirish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy qismlar belgilangan |
| | | 2.2.2. Ta’lim dasturida nazariya va amaliyot uchun ajratilgan kreditlar (soatlar) DTS hamda MMRdagi malaka darajasiga mos |
| | | 2.2.3. Kasb (mutaxassislik) xususiyatidan kelib chiqqan holda ta’lim dasturida amaliyot mashg‘ulotlari (o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari hamda laboratoriya mashg‘ulotlari) nazarda tutilgan va zarur kreditlar (soatlar) ajratilgan |
| | | 2.2.4. Nazariy va amaliy fanlar (modullar) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash uchun ish beruvchi korxonalar va amaliyot bazalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan |
| | | 2.2.5. Ta’lim dasturini baholash natijalariga muvofiq nazariy fanlar (modullar) va amaliyot mashg‘ulotlari takomillashtirib boriladi hamda tizimli ravishda kreditlar (soatlar) qayta ko‘rib chiqiladi** |
| | 2.3. Ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani | 2.3.1. Ta’lim dasturining davomiyligi (umumiy kreditlar (soatlar), o‘qish muddati) ushbu dasturning maqsadlari va kutilgan o‘quv natijalariga muvofiq ravishda belgilangan* |
| | | 2.3.2. O‘quv rejadagi fanlarning (modullarning) ketma-ketligi va uzluksiz ta’lim tizimiga (boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus kasbiy ta’lim darajalari hamda oliy ta’lim) muvofiqligi ta’minlangan |
| | | 2.3.3. Fanlarning (modullarning) o‘quv yuklamalari hamda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning ketma-ketligi davomiylik, uzluksizlik va kutilgan o‘quv natijalari talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan |
| | | 2.3.4. Fanlardagi (modullardagi) nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasida o‘zaro integratsiya ta’minlangan |
| | | 2.3.5. Ta’lim dasturini qayta ko‘rib chiqish jarayonida fanlardagi (modullardagi) nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning o‘zaro uzviyligi va uzluksizligi doimiy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | tahlil qilinadi hamda takomillashtiriladi** |
| | 2.4. | Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani | 2.4.1. | Ta'lim dasturining samaradorligini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan** |
| | | | 2.4.2. | Ta'lim dasturi bo'yicha tizimli monitoring va tahlil jarayonlari amalga oshirib boriladi** |
| | | | 2.4.3. | Monitoring jarayonida ish beruvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, bitiruvchilar hamda soha mutaxassislarining ishtiroki tizimli ravishda yo'lga qo'yiladi** |
| | | | 2.4.4. | Monitoring natijalari tahlil qilinib, ta'lim dasturining samaradorligi va kutilgan o'quv natijalariga mosligi baholab boriladi hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi shakllantirib boriladi** |
| | | | 2.4.5. | Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilinib, ta'lim dasturidagi fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlarining mazmuni hamda baholash tartibi va mezonlariga zarur o'zgartirishlar kiritib boriladi** |
| **3.** | **O'quv jarayonini tashkil etish va kutilgan o'quv natijalarini baholash** | 3.1. | Ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani | 3.1.1. | Ishchi o'quv reja va fan (modul), amaliyot dasturlari namunaviy o'quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan |
| | | | | 3.1.2. | DTS talablariga muvofiq ishchi o'quv reja va dasturlar hududlardagi ish beruvchilar tomonidan berilgan takliflar asosida ishlab chiqilgan* |
| | | | | 3.1.3. | Ishchi o'quv rejadagi o'quv yuklamalarida nazariy va amaliy qismlar, shuningdek o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari o'rtasida mutanosiblik ta'minlangan |
| | | | | 3.1.4. | Ishchi o'quv reja va dasturlar mehnat bozori, soha va mavsumiylik talablariga muvofiqlashtirilgan |
| | | 3.2. | O'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan kutilgan o'quv natijalariga | 3.2.1. | O'quv jarayoni ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda mehnat bozoridagi zamonaviy ehtiyojlar va sohaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rejalashtirilgan |

| | | |
|---|---|---|
| | erishishga yo‘naltirilgani | 3.2.2. Ishchi o‘quv reja bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari jadvali o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan** |
| | | 3.2.3. Ishchi o‘quv reja bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishda fanlar (modullar), o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining o‘zaro uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangan** |
| | | 3.2.4. O‘quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) foydalanib boriladi** |
